

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MAXSUS SIRTQI BO'LIM

**BOSHLANG`ICH TA'LIM VA SPORT TARBIYAVIY ISH IXTISOSLIGI
UCHUN**

**«Hozirgi o'zbek tili (sintaksis)»
FANIDAN**

MA'RUZALAR MATNI

Ma'ruzachi: p.f.n. Sh. Yuldasheva

NUKUS – 2009

Mundarija

1-MA'RUZA	4
SINTAKSIS HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT	4
Gapda soʻzlarning oʻzaro aloqaga kirish usullari	5
Soʻzlar oʻzaro tenglashish, munosabatdorlashish, ergashish, moslashish orqali sintaktik aloqaga kirishadi.	5
Soʻz birikmasi.....	5
Soʻz birikmalarining strukturasi koʻra turlari	7
Soʻz birikmasining tahlil qilish tartibi:	7
Nazorat savollari:	7
Tayanch atamalar:	8
Asosiy adabiyotlar:	8
2-MA'RUZA	9
GAP. GAPNING BOSH BO'LAKLARI	9
Ega gapning bosh boʻlagi	9
Kesim va uning ifodalanishi	10
Ega va kesimning moslashuvi. ular oʻrtasida tirening ishlatilishi	10
Ega bilan kesimning sonda mosligi	11
Fe'l -kesimning ega bilan moslashuvi	11
Ot-kesimning ega bilan moslashuvi.....	11
Sodda va tarkibli kesimlar	12
Nazorat savollari:	12
Tayanch atamalar	13
Asosiy adabiyotlar	13
3-MA'RUZA	14
IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLAR.....	14
Ikkinchi darajali boʻlaklar. toʻldiruvchi uning ifodalanishi va grammatik xususiyatlari.....	14
Aniqllovchi va uning ifodalanishi	15
Hol va uning ma'no turlari	16
Ravish holi.....	16
Miqdor-daraja holi.....	16
Oʻrin holi	16
Payt holi.....	16
Sabab holi	16
Maqsad holi	16
Toʻsiqsiz hol	17
Shart holi	17
Nazorat savollari:	17
Tayanch atamalar	18
Asosiy adabiyotlar	18
4-MA'RUZA	20
AJRATILGAN BO'LAKLAR	20
Ajratilgan boʻlaklar	20
U n d a l m a	21
Nazorat savollari:	21
Tayanch atamalar	21
Asosiy adabiyotlar	21
5-MA'RUZA	23
QO'SHMA GAP VA UNING SODDA GAPDAN FARQI. QO'SHMA GAP TURLARI	23
Bogʻlangan qoʻshma gaplar.....	24
I. Biriktirish munosabati	24
II. Ayiruv munosabati.....	24
III. Sabab – natija munosabati.	24
IV . Zidlash (qiyoslash munosabati)	25
V. Izohlash munosabati.	25
Mavzu boʻyicha nazorat savollari:	25
Mavzu boʻyicha tayanch soʻz va iboralar:.....	25
Asosiy adabiyotlar:	25
6-MA'RUZA	26
ERGASH GAPLI QO'SHMA GAPLAR.....	26
Ergash gapli qoʻshma gaplar	26
Ergash gaplarni tasnif qilish asos (mezon)lari	27
Ega ergash gapli qoʻshma gap	30

Kesim ergash gapli qo`shma gap	31
To`ldiruvchi ergash gapli qo`shma gap	31
Aniqlovchi ergash gapli qo`shma gap	32
Ravish ergash gapli qo`shma gap	32
Sabab ergash gapli qo`shma gap	33
Payt ergash gapli qo`shma gap	33
O`rin ergash gapli qo`shma gap	34
Shart ergash gapli qo`shma gap	35
Mavzu bo`yicha nazorat savollari:.....	35
Tayanch so`z va iboralar:	37
Asosiy adabiyotlar:	38
7-MA`RUZA	38
BOG`LOVCHISIZ QO`SHMA GAPLAR.....	38
Qiyoslash munosabatini ifodalovchi bog`lovchisiz qo`shma gaplar.	40
Bog`lovchisiz qo`shma gaplarda tinish belgilari.	40
Mavzu bo`yicha nazorat savollari:.....	40
Tayanch so`z va iboralar:	41
Asosiy adabiyotlar:	41
8-MA`RUZA	42
MURAKKAB QO`SHMA GAPLAR.....	42
Mavzu bo`yicha nazorat savollari:.....	43
Tayanch so`z va iboralar:	43
Asosiy adabiyotlar.....	43

1-MA'RUZA

SINTAKSIS HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

R E J A:

Til sistemasida sintaksisning tutgan o'ri.

Sintaksis tushunchasi va ma'nolari.

Sintaksis kursining tekshiruv obyekti.

Sintaksisning boshqa sohalar bilan aloqasi.

So'z birikmasi – Sintaksisning tekshiruv obyekti:

So'z birikmasining so'z, qo'shma so'z, turg'un ibora (birikmalar) hamda gapdan farqi

So'z birikmasining tiplari:

Otli so'z birikmalari

Fe'li so'z birikmalari.

Ravishli so'z birikmalari.

Sifatli so'z birikmalari.

Modal so'z birikmalari.

Tobe komponentlarning sintaktik funksiyaga ko'ra birikmasining turlari

So'z birikmasining sutrukturasiga ko'ra turlari.

Sintaksis – lotincha so'z bo'lib, tuzilish, qurilish ma'nolarini anglatadi. U fan sifatida so'zlarning bir qatorga tuzilishi natijasida hosil bo'lgan qurilmalarni o'rganuvchi ta'limotga nisbatan ishlatiladi. Sintaksis grammatikaning teng huquqli bir qismidir. U tilning sintaksisida eng yuqori bosqich hisoblanadi. Til bilimlari fonetika bilan boshlanib, sintaksis ta'limoti bilan yakunlanadi. Sintaksis bilan bog'liq bo'lgan bir qator atamalarga qo'yidagicha ta'rif berish mumkin:

Sintaktik aloqa – sintaktik konstruksiyani tashkil etgan elementlarning burilish yo'li.

Sintaktik konstruksiya – so'zlarning ma'no va grammatik jihatdan birikishidan hosil bo'lgan qurilma:

Sintaktik konstruksiyaning tashkil qilinishida elementlarni bog'lovchi vosita: intonasiya, ko'makchilar, kelishiklar.

Sintaktik hodisa – sintaktik birliklarni o'zaro birikish jarayoni.

Sintaktik munosabat - sintaktik aloqa bilan sinonim tarzda qo'llanuvchi atama.

Sintaksisning tekshiruv ob'ekti keng.

Shunga ko'ra hozirgi o'zbek adabiy tilida:

So'z birikmasi sintaksisi.

Gap sintaksisi.

Matn sintaksisi.

Ikki so'zli sintaktik konstruksiya faqat ikki mustaqil ma'noli so'zning birikishidan tashkil topadi: Ko'p so'zli sintaktik konstruksiyalar uch yoki undan ortiq mustaqil ma'noli so'zlardan birikadi:

Sintaksis tilshunoslikning barcha sohalar bilan o'zaro aloqador bo'ladi. Fonetikada nutq tovushlari, leksikologiyada so'z ma'nolari, morfologiyada so'z shakllari va turkmlari o'rganilar ekan, ularning asosiy vazifasi va ma'nosi sintaksis konstruksiyada to'la yuzaga chiqadi. Sintaksis konstruksiyalar esa sintaksisning asaosiy tekshiruvi boshqa sohalar bilan aloqasi vujudga keladi.

Sintaksis grammatikaning bir qismi bo'lib, gap qurilishi haqidagi ta'limotdir. Gap va uning logik-grammatik tiplari sintaksisning o'rganish ob'ektidir. So'z birikmalari va gap bo'laklari gap qurilishining tarkibiy qismini tashkil qiladi. Gapda so'zlarning o'zaro sintaktik aloqaga kirish usullari sintaksisning «so'z birikmasi» bahsining ob'ekti hisoblanadi.

Sintaksis grammatikaning ikkinchi qismi–morfologiya bilan uzviy bog'liqdir. Morfologiya va sintaksis bir-birini to'ldiradi. Sintaktik kategoriyalar ko'pincha morfologiya bilan bog'liq holda o'rganiladi.

Gapda soʻzlarning oʻzaro aloqaga kirish usullari

Soʻzlar oʻzaro tenglashish, munosabatdorlashish, ergashish, moslashish orqali sintaktik aloqaga kirishadi.

Tenglashishda sintaktik jixatdan keyin, biri ikkinchisiga boʻysinmaydigan soʻzlar sanash ohangi yoki teng bogʻlovchilar yordamida sintaktik aloqaga kirishadi. Bunda ochiq yoki yopiq qator hosil boʻladi:

Ergashishda biri hokim, biri tobe boʻlaklar sintaktik aloqaga kirishadi: beshta daftar, vazifani bajarmoq.

Munosabatdorlashishda biri ikkinchisini taqozo qiladigan soʻzlar sintaktik aloqaga kirishadi. Bunda biri ikkinchisiga hokim, biri ikkinchisiga tobe: Salimaning daftari. Bu tip konstruksiyalarda birinchi komponentning belgisiz kelishi ham mumkin: institut kutubxonasi.

Moslashishda ega va kesim formasiga koʻra, yaʼni shaxs-sonda moslashadi: Men koʻndim. Siz keldingiz. Uchinchi shaxsda son jixatidan doimo moslashish Shart emas. qiyoslang: Ular keldilar, ular keldi.

Soʻzlarning oʻzaro sintaktik aloqasi predikativ hamda nopredikativ bogʻlanish hosil qiladi. Moslashish predikativ bogʻlanish, tenglashish, ergashish, munosabatdorlashish, nopredikativ bogʻlanish hosil qiladi.

Soʻz birikmasi

Soʻz birimalari haqidagi bilim sintaktik taʼlimning tarkibiy qismlaridan biridir.

Soʻz birikmasi soʻzlarining maʼlum bir mantiqiy va grammatik qoidalar asosida birikishidan hosil boʻladigan erkin sintaktik butunlik hisoblanadi. Biror soʻz turkumiga oid birdan ortiq soʻzlarning sistemantik va grammatik jihatdan oʻzaro birikuvchi soʻz birikmalarini yuzaga keltiradi: tong shabodasi, chiroyli shahar, astoydil oʻqish kabi.

Soʻz birikmasida ayrim tushunchalarni ifoda qiluvchi soʻzlar oʻzaro sintaktik munosabatga kirishi, murakkab tushunchani anglatadi.

Demak, soʻzlarning sintaktik munosabatiga kirishuvi uchun ichki maʼno mosligi hamda tashqi grammatik moslik va ularning uygʻunligi talab qilinadi: qorning sovuqligi, vatanni sevmok, piyoda yurmoq kabi.

Soʻz birikmasining maʼnosi uning tashkil etgan komponentlar maʼnosidan kelib chiqadi: katta bino, bizning vazifamiz, yaxshi odam.

Soʻz birikmasining tuzish uchun soʻzlar zarur boʻlsa gap hosil qilish uchun soʻz birikmalari shunchalik zarurdir.

Soʻz birikmasi tuzish uchun soʻzlar zarur boʻlsa gap hosil qilish uchun soʻz birikmalari shunchalik zarurdir. Soʻz birikmasi tuzish uchun soʻzlar qanchalik zarur boʻlsa gap hosil qilish uchun soʻz birikmalari shunchalik Shartdir. Soʻz birikmalari strukturasi faqat soʻzlar miqdori bilangina belgilab boʻlmaydi albatta. Soʻz birikmasida soʻzlar miqdoridan tashqari komponentlar oʻrtasida sintaktik aloqa boʻlishi Shart shuning uchun ham yoza boshlamoq oʻtiz besh mana shu kabilar soʻz birikmasi hisoblanmay qoʻshma soʻzlar bobida oʻrganiladi. Chunki ular oʻrtasida sintaktik aloqalar yoʻq boʻlib bitta leksik maʼno tushunchani anglatadilar. Soʻz birikmasi ikki komponent (qism)dan tashkil topadi: hokim komponent va tobe komponent. Soʻz birikmasi tarkibida maʼnosi ravshanlashgan qism (soʻz) hokim komponent uning maʼnosini

aniqlab, to'ldirib kelgan qism (so'z) tobe komponent hisoblanadi. So'roq hamma vaqt hokim komponentidan tobe komponentiga berish Shart.

Tobe komponenti hokim so'zidan berilgan So'roqqa javob bo'ladi: rangli televideniya (qanada televediniya?-rangli televideniya)

Sintaktik funksiyasi va sintaktik aloqalarining darajasiga ko'ra so'z birikmalari, erkin va sintaktik funksiyasi jihatidan ajralmas bo'ladi. Erkin so'z birikmasi tarkibiga kirishish hamda ma'lum bmr gap bo'lgan vazifasini bajarish mumkin: o'tmas pichoq qo'l kesar, chin do'st yurakdan gapiradi. Bu sintaktik konstruksiyalarida «o'tmas pichoq qo'l kesar», «CHin do'st yurakdan gapiradi» birikmalar tarkibidagi har bir so'z gapning alohida mustaqil bo'laklari vazifasida kela oladi. Biroq ayrim gaplarda so'zlar birikmasi ajralmas bo'lak funksiyasida ham kelish mumkin. Sintaktik funksiya jihatida ajralmas so'z birikmasi bir tomonlama qaraganda frazeologik birikmalarga o'xshab ketadi. Frazeologik birikmalar ham gapda bir bo'lak funksiyasini bajaradi. Ammo bu hollarda frazeologik birikma bilan ajralmas gap bo'lga funksiyasida keluvchi so'z birikmalarini bir hodisa deb qarash to'g'ri bo'lmaydi. Chunki frazeologik birikmalari leksik holda, ya'ni u til birligidir u tilda tayyor holda mavjud so'z birikmasi esa sintaktik hodisa bo'lib, u nutq birligidir: Otabek uyalib aralash Qutidorga qaradi (Qodiriy) U besh yil o'qidi. Konstruksiyalarda «uyalib aralash qaradi», «besh yil o'qidi» so'z birikmalari ajralmas holda bir bo'lak funksiyasini (Ravish holi va payt xoli) ajradi va shu o'rinda boshqa bir so'z birikmasining bir komponenti bo'lib qolishi mumkin. «Uyalib aralash qaradi» yoki «besh yil o'qidi» kabi. Bunday paytlarda bir butun so'z birikmasi tobe komponent hisoblanadi. Demak, so'z birikmasi sintaktik so'z birikmasi jihatidan gap bo'lagiga teng bo'lishi yoki teng kelmasligi mumkin.

So'z birikmasi, qo'shma so'z, turg'un birikmalar hamda gapdan g'ir qator belgilari bilan farq qiladi. So'z leksik hodisa bo'lib, u til birligi hisoblanadi, so'z birikmasi esa sintaktik hodisa bo'lib, nutq birliklaridan biriga kiradi.

So'z predmet, belgi ish-harakatining o'zigina ifodalash uchun xizmat qilsa, so'z birikmasi ana shu predmet, belgi harakatining boshqalardan ajratib ko'rsatadi. Unga qo'shimcha ma'no beradi.

So'z abstrakt ma'noli bo'lib, u birgina yoki gap tarkibiga kirgandagina konkretlashtiradi.

So'z birikmasi qo'shma so'zlardan ham keskin farq qiladi

Qo'shma so'zlarning komponentlari o'rtasida ham grammatik munosabati yo'q (tarixan bo'lgan bo'lish mumkin.) Lekin hozir bu aloqa yo'qolgan. qo'shimcha so'z komponentlari o'z leksik semantik mustaqilliklarini yo'qotib, bir bosh urg'u bilan aytiladi. Leksik jihatidan bir so'z hisoblanadi va gapda bir sintaktik funksiyani bajaradi.

So'z birikmasini komponentlari mustaqil leksemaga ega ular o'rtasida sintaktik munosabat mavzud bo'lib, har bir komponent gap bo'lagi funksiyasini bajaradi.

Birinci gapda «Kattaqo'rg'on»—qo'shimcha so'z (ot) bo'lib, bir bosh urg'u bilan aytiladi va gapda bir funksiya o'rin holi vazifasini bajaradi. Ikkinchi gapda esa «Kattaqo'rg'on» - ikki urg'u bilan aytiladi. Ular o'rtasidagi grammatik aloqa mavjud, gapda ikki bo'lak vazifasida aniqlovchi va hol funksiyasida kelgan. Frazeologik birikmalar butunligicha yaxlit holda qo'llanib, til birligi sanalsa, so'z birikmasi nutq prosessidagina shakllandi.

So'z birikmasi tarkibidagi so'zlar o'z leksik ma'nosini saqlaydi. Turg'un birikma tarkibiga kiruvchi so'zlar esa butunicha o'z ma'nosidan ko'chgan yoki komponentlarning bir o'z ma'nosini o'zgartirgan bo'ladi:

1. Tarvuzi qo'ltig'idan tushdi – ko'chma ma'noda turg'un birikma.
2. Kitobi qo'ltig'dan tushdi. – gapida esa qo'ltig'idan tushdi so'z birikmasi.

Soʻz birikmasi hosil qilish uchun hamda ikkita mustaqil maʼnoli soʻz (yordamchi soʻzlar oʻzi belgilagan mustaqil soʻz bilan birga soʻz birikmasining bitta komponenti hisoblanadi) boʻlishi, shu soʻzlar semantik-grammatik jihatdan erkin munosabatga kirisha oishi: hosil boʻlgan qoʻshilma ochiq konstruksiyani tashkil etish, nominativ funksiya ifodalash lozim. Soʻz birikmasining nominativ haraktidagi ochiq konstruksiyasidan iborat boʻlish uni gapdan farqlashda ahamiyatlidir.

Gap ham mustaqil soʻzlarning grammatik-semantik munosabatidan tashkil topadi. Lekin gap predikativ xarakterdagi qoʻshilmadan iborat boʻlib, kommunikativ funksiyasini bajaradi, boshqacha qilib aytganda, uning mazmunidan biron bir predmet, voqea-hodisa haqidagi habar anglashiladi.

Demak, soʻz birikmasining gapida soʻz birikmasi sintaktikasidan, ulardagi ichki munosabatlarini bir-biridan farqlashga toʻgʻri keladi. Soʻz birikmasi gap ichida oʻrganilayotgan paytda ham gap sintaktikasi nazarda tutiladi. Chunki soʻz birikmasi gap sintaktikasi talablari bilan emas, soʻz birikmasi sintaktikasi talablari bilan tuziladi. Soʻzlar soʻz birikmasidan tashqari oʻrganilganini kabi soʻz birikmasini ham gapdan tashqarida alohida oʻrganilishi lozim. Bu oʻrinda shuni ham aytib oʻtish joizki, soʻz –gap, nominativ, vokativ, infinitiv kabi gap turlari soʻz birikmalariga ajratilmaydi. Gapning bir soʻzdan iborat boʻlishi mumkinligi ham uning soʻz birikmasidan farq qilish tahminlovchi bir belgidir.

Soʻz birikmalarining strukturasi koʻra turlari

Soʻz birikmasi tarkibi jihatidan oddiy (sodda) va murakkab boʻladi: oddiy soʻz birikmasi faqat ikki mustaqil soʻzdan tashkil topadi: Oltin soat-tez gapirmoq, institut binosi, shoir Muqimiy, oʻsha soʻzlarning birikuvidan iborat boʻladi; SHirin soʻzli yigit, oq koʻylakli qiz, Bir yoz ellik soʻmlik mato, ikki kilogramli tosh, Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligi ilgʻorlarining yigʻilishi kabilar. Predikativ xarakterdagi konstruksiyalar ham murakkab soʻz birikmalarining bir komponenti funksiyasini bajaradi. Raʼno oʻqigan kitob hammamizni qiziqtiradi. Sochi uzun, koʻzlari qop-qora Xafizani koʻrganda Umid oʻzini yoʻqotib qoʻyar edi.

Soʻz birikmasining tahlil qilish tartibi:

Sintaktik aloqa turiga koʻra teng yoki tobe aloqa.

Tobe aloqa turiga koʻra moslashuvli, bitishuvli, boshqaruvli.

Sintaktik aloqaning yuzaga chiqaruvchi vositalarga koʻra: soʻz formasi (qoʻshimchalar, koʻmakchilar), soʻz tartibi intonasiya.

Hokim soʻzning morfologik tabiatiga koʻra.

Tobe soʻzning sintaktik tuzilishiga koʻra.

Semantik munosabat turi.

Tuzilishiga koʻra turi.

Nazorat savollari:

1. «Sintaksis» atamasining maʼnosini izohlab bering.
2. Sintaksis kursining vazifalari nimalardan iborat?
3. Sintaksisning boshqa til boʻlimlari bilan aloqasi.
4. Sintaktik birliklar qaysilar?
5. Sintaktik munosabat deganda nimani tushunasiz?
6. «Sintaktik konstruksiya» atamasini izohlang.
7. Sintaktik qurilish va ularning koʻrinishlari.

8. Sintaktik aloqa haqida gapiring.
9. Sintaktik vositalarga nimalar kiradi?
10. Sintaktik stilistika nimani o`rganadi?
11. So`z birikmasi deb nimaga aytiladi?
12. So`z birikmasi, qo`shma so`z va gapdan qanday farq qiladi?
13. So`z birikmasi va ibora o`rtasida qanday farq bor?
14. So`z birikmasining turlarini sanab bering.
15. Bosh va ergash so`zlarga ta`rif bering.
16. Bitishuvli bog`lanishdagi bosh va ergash so`zlarning o`rni almashganda qanday hodisa ro`y beradi?
17. Otli birikmadan fe`lli birikmaning farqi nima?
18. Aniqlovchili birikmaning xususiyatlari.
19. To`ldiruvchili birikmani tushuntiring.
20. Holli birikmaga misollar keltiring.

Tayanch atamalar:

1. Sintaktik sath.Sintaktik birlik.
2. So`z birikmasi sintaksisi.
3. Gap sintaksisi.
4. Matn sintaksisi.
5. Sintaktik munosabat.
6. Sintaktik aloqa
7. So`z birikmasi.
8. Bosh so`z.
9. Ergash so`z.
10. Otli birikma.
11. Fe`lli birikma.
12. Aniqlovchili birikma.
13. To`ldiruvchili birikma.
14. Holli birikma.

Asosiy adabiyotlar:

1. G`ulomov A. O`zbek tili sintaksisining ba`zi masalari. «O`zbek tili va adabiyoti» jurnali. 1968. 2-son.
2. G`ulomov A. Asqarova M. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Toshkent, 1966. 1987.
3. O`zbek tilining akademgrammatikasi. Toshkent. 1976.
4. Abdullaev A. So`z birikmalari sintaksisining ayrim masalalari. «O`zbek tili va adabiyoti» jurn. 1969. 1-son.
5. Abdurahmonov Hozirgi o`zbek adabiy tili. Toshkent, 1979.
6. Komilova X. O`zbek tilida so`z birikmasi masalasiga oid.»O`zbek tili va adabiyoti» jurn. 1959 4-son.

2-MA'RUZA

GAP. GAPNING BOSH BO'LAKLARI.

REJA:

Gap bo'laklari haqida umumiy ma'lumot.

Gap bo'lagini belgilash prinsiplari.

Gap bo'lagini tahlil qilish tartibi.

Ega haqida ma'lumot.

Eganing ifodalanishi.

Eganing tuzilishiga ko'ra turlari.

Kesim haqida umumiy ma'lumot.

Kesimning ifoda materialiga ko'ra turlari: A) ot-kesim; V) fe'l-kesim.

Kesimning tuzilishiga ko'ra turlari.

Ega va kesim - gapning grammatik asosi.

Ega va kesimning shaxs-sonda moslashishi.

Gap bo'laklari gapning uzviy qism sifatida maydonga keluvchi sintaktik kategoriyalardir. So'zlar gapda semantik grammatik jihatdan mustaqil funktsiya ifodalab muayyan So'rog'ga javob bo'lib, kelgandagina gap bo'lagi sanaladi. So'zlarning biror bo'lak vazifasida kela olishi yoki kela olmasligini gapning o'urilishining sintaktik qoidalari belgilaydi. Gap bo'lagi gapning boshqa bo'laklari bilan o'zaro grammatik bog'langan, uzviy bog'langan munosabatga kirishgan organik qismidir. Gap bo'laklari mustaqil so'zlar yoki so'z birikmalari bilan ifodalanadi. Har qaysi turkumdagi so'zlar gapda mahum bir sintaktik funktsiyada qo'llanadi. Fe'lning kuproq kesim, sifatning aniqlovchi, ravishning hol, otning ega, to'ldiruvchi vazifasida kelishi ana shu holat bilan izohlanadi. Biroq undan so'z turkumlari bir xil xodisa ekan degan xulosa kelib chiqmaydi.

So'z va so'z birikmalarining mohiyati ularning gap tarkibida bajarganini vazifa belgilaydi

Gap bo'laklarining semantik aloqaga kirish usullari. Har bir gap bo'lagi gapda sintaktik aloqaning u yoki bu turi yordamida boshqa bo'laklar bilan aloqaga kirishadi. Ega fe'l kesim bilan shaxs-sonda moslashadi. To'ldiruvchi o'z komponentiga (to'ldirishiga) boshqaruv yo'li bilan bog'lanadi. Sifat aniqlovchidoim bitirish yo'li bilan aloqaga kirishadi. Gap bo'laklarining sintaktik aloqa usuli yordamida belgilashda ana shu jihatlarga e'tibor qaratililadi.

Gap bo'laklarini aloqaga kirituvchi vositalar. Ma'lumki, har bir gap bo'lagi ma'lum bir leksik-grammatik vosita yordamida boshqa bo'laklar bilan doimo tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari formalari yoki ko'makchilar yordamida aloqaga kirishadi. Bunday vositalar boshqa bo'laklarga ham hosdir. Bunda gap bo'lagini belgilashda ana shunga e'tibor qilamiz.

Gap bo'laklarining bir-biriga nisbati (munosabat). Bunda biror bir bo'lakning asosan qaysi bo'laklarga bog'lanish kesimiga oladi. Masalan, sifat ko'proq egaga to'ldiruvchiga, hol asosan fe'l kesimga bog'lanadi. Mazkur prinsip gap bo'laklarini belgilashda bo'laklarning ana shu jihatlari e'tiborga olinadi. Bo'laklar gapda vazifa jihatdan bir hil emas. Ba'zi bo'laklar gapning umumiy mazmuniga aniqlik kiritish, to'ldirish kabi vazifalarni bajaradi.

1. Bo'lakning nomi; ifodalanishi; grammatik formasi; so'rog'i; qaysi bo'lakka bog'langanligi: a) sintaktik aloqasi, b) semantik aloqasi; tuzilishi.

Ega gapning bosh bo'lagi

Ega ikki sostavli gapning bosh bo'laklaridan biridir: u hokim sostavining grammatik markazi, shu sostavlardagi bo'laklarga, shuningdek, tobe sostavidagi bosh bo'lakka-kesimga ham hokimdir. Ega absalyut hokim holatidagi bo'lakdir. U gapdagi fikr, hukm o'ziga qaratilgan-predmetning nutq predmetning nomidir. Ega haraktni bajaruvchi yo o'abul qiluvchi shaxsdir, yoki kesim ifodlangan holat yo belgi qarashli predmet. Ega Ba'zan turni anglatadi. Umumiyqilib aytganda, gapda hukm o'ziga qaratilgan, fikr o'zi haqida borayotgan, belgisi

kesim tomonidan aniqlanadigan bosh kelishiik formasidagi hokim bo`lak-ega deyiladi. Kesim ifodalagan belgi egaga tegishli bo`ladi. Demak, ega fikr subhektini, nutq predmetini bildiradi. Egalar kim, nima, qayer So`roqlariga javob bo`ladi. Ba`zan ega gapda qo`llanmasligi ham mumkin. Eganing qo`llanmasligi gapning to`liqsizligi, uning biror bo`lagining tushib qolganligini, etishmasligini ko`rsatmaydi, aksincha, eganing qo`llanmasligi har-xil stilistik, poetik talablar natijasida sodir bo`ladi va gapning mehyoriy shakllanganligini ko`rsatadi.

Kesim va uning ifodalanishi

Eganing belgisini,harakatini,holatini yoki boshqabiror belgisini xukm yo`li bilan ifodalaydigan bo`lak kesim deyiladi.Kesim eganing aktiv ish-harakati va passiv)sifat-holat)belgilarini ifoda etadi..

Fe`ldan boshqaturkumlarga oid so`zlar bilan ifodalangan kesim ot-kesim deyiladi, Ot-kesimlar egalik sifati, mio`dori, jinsi, xususiyati kabi passiv belgilarni ifodalaydi. Ular kim? nima? qanday? qancha? Nechta? Kabi So`roqlariga javob bo`ladi.

Fe`l bilan ifodalanib, eganing harakatini, holatini anglatadigan kesim fe`l-kesim deyiladi.

Kesim vazifasida kelgan fe`lning anglatgan ma`nosiga ko`ra holat bildiruvchi fe`l-kesim va harakat bildiruvchi fe`l-kesimga ajratilishi mumkin

Harakat bildiruvchi fe`l-kesim predmetning fizik harakatini anglatadi.Bu harakat 3 zamon tengltgtda sodir bo`ladi:

Kesimlar tuzilishiga ko`ra sodda,sostavli,murakkab bo`ladi.

Sintaktik formadagi birgina so`z bilan ifodalangan kesimlar sodda kesimlar deyiladi. M: SHehriyatning onasi- til.

Mustaqil so`z bilan turli grammatik ma`nolarini ifodolovchi yordamchi so`zning birikishidan xosil bo`lgan sostavli kesimlar deyiladi. Sostavli kesimning etakchi komponenti eganing biror bir belgisini anglatadi. YOrdamchi komponent esa etakchi komponentning grammatik formasini shakllantiradi, to`ldiradi. Kelgan 2 kishi professor ekan.

Ikki yoki undan ortiq mustaqil ma`noli so`zlarning grammatik-semantik munosabatidan tashkil topgan bir butun xolda kesim sifatida ajratilgan morfologik-sintaksis xodisalar murakkab kesim deyiladi.

Ega va kesimning moslashuvi. ular o`rtasida tirening ishlatilishi

Ma`lumki ega va kesimning grammatik asosi sanaladi. Gapni-gapqilib to`ldiruvchi ana shu ikki bo`lak o`zaro shaxs-sonda moslashadi moslashuv aloqasi yordamida ikki xil sintaktik konstruksiya-so`z birikmasi va gap hosil qiladi. Gap hosil qilishda,ya`ni ega va kesimning bir-biriga moslashuvida asosan shaxs-son qo`shimchalari va fe`lning birgalik nisbati vositasida keladi.Ega va kesim ham logik jixatdan,xam grammatik jixatdan bir-biriga moslashadi.Bunda ikki holat:

1. Ega va kesim faqatlogik jixatdan moslashishi mumkin: Hamma to`plandi. Bu erda hamma so`zi ko`plik ma`nosini ifoda etadi, kesim birlik ma`nosida turibdi.

2. Grammatik jihatdan moslashuv. Ega va kesimning farmal jihatdan quyidagicha xususiyatlarga ega:

a) gapning kesimi fe`l – kesim bo`lganda:

Ega birinchi va II shaxs olmlshlari bilan ifodalanganda kesim bilan shaxs-sonda moslashadi.Men o`qidim,Siz o`qidingiz.

Ega III shaxsni ko`rsatuvchi olmoshda ifodalanganda kesim bilan shaxs – sonda moslashadi. Lekin kesim tarkibida shaxs –son qo`shimchalari qo`llanmasligi mumkin: Sanobar o`qidi. Talabalar musobao`ada G`olib CHIqlilar.

b) kesim ot –kesim bo`lganda : Men talabaman – men talaba

v) uyushiq egalarning kesimi bilan moslashuvi:

Karima, Salima va Halima birga dars tayorlashdi.

Ega bilan kesimning sonda mosligi

I. Fe'l – kesim I va II shaxsda ega bilan hamma vaqt sonda mos bo`ladi: Men fakulptativ mashG`ulotlarga qatnashyapman. Biz paxta yig`im-terimida dehqonlarga yordam berdik.

II. Fe'l – kesim III shaxsda ega bilan hamma vaqt sonda moslavermaydi:

1. Kimsani bildirgan III shaxsdagi ega bilan fe'l-kesim sonda mos bo`ladi: Sidio`jon kimningdir qattio` kulgusidan uyG`onib ketdi.

2. Ko`plikdagi ega kimsani emas, balki narsa - buyumlarni bildirsa, fe'l –kesim, odatda ega bilan sonda moslashmay, birlikda ishlatiladi: O`t – o`lanlar bahor kelishi bilan ko`karadi.

Eslatma. Jonivorlarni anglatgan ko`plikdagi ega fe'l kesim bilan sonda mos bo`lishi ham mumkin: Q`o`ngizlar kuzda uyalariga yashirinadilar.

3. Birgalik nisbatdagi fe'l bilan ifodalangan kesimning ega bilan sonda moslashishi o`ziga xos bo`ladi: bunday fe`llardan ko`plik ma`nosini anglashilib turadi: O`qituvchilar va o`quvchilar mehnat fahriylarini kutib olishdi.

4. Ot-kesim ko`plikdagi ega bilan ko`pincha moslashmaydi, birlikda qo`llanadi: Stol atrofida Isoy bobo, Alixon aka va cho`ponlar bor edi.

Eslatma. Ba`zan. Ega birlikda, kesim esa ko`plikda bo`ladi. Bunda xurmat yoki yorni bilan kesatish va boshqa ma`nolar anglashiladi: O`rtoq Ibrohimov juda yaxshi hosilot exanlar.

5. Gapda eganing aniqlovchisi miqdorson bilan ifodalansa, ega birlik shaklida bo`ladi, kesim ham birlikda qo`llanadi: O`n besh o`spirin sayrga ketdi.

Fe'l -kesimning ega bilan moslashuvi

Fe'l kesimning ega bilan moslashuv yo`li bilan ro`yobga chiqadi. Bu shakliy munosabat kesimning morfologik shakli orqali amalga oshadi. Fe'l kesimning morfologik shakli orqali amalga oshadi. Fe'l kesimning morfologik shakli fe'l bo`lgani uchun u kesim shakllantirish hamda kesimning ega bilan sintagmatik munosabatini ko`rsatish vazifasini bajaradi.

I va II shaxsdagi fe'l kesimlar ega bilan ham shaxsda, ham sonda moslashadi

Kesim ega bilan doimo shaxsda moslashadi. Lekin sonda doimo mos bo`lavermaydi. quyidagiholatlarda ega bilan kesim o`rtasida qisman moslik (faqatshaxs jihatidan) mavjud bo`ladi:

a) ko`plik shakldagi ega vaziyatida shaxs bildiruvchi ot morfologik shakli bo`lganda kesim birlikda ham, ko`plikda ham kela oladi:)

b) ko`plik shakldagi ega vaziyatda jonsiz predmetlarni hayvon, parandalarni bildiruvchi ot morfologik shakli bo`lganda kesim doimo birlik shaklda qo`llanadi: Itlar hurdi.

Ot-kesimning ega bilan moslashuvi

Ot kesim vaziyatida sintaktik shaklning fe`ldan boshqamorfologik shakllari kelganligi sababli ular kesim bo`lib shakllanishi va ega bilan bog`lanishi uchun mahsus vositalarni oladi. Ana shunday vositalar bog`lama hisoblanadi.

Bog`lamalar ot kesimlarni kesim qilib shakllantirish va ega bilan sintagmatik munosabatini yuzaga CHiqarish uchun xizmat qiladi Bog`lamalar ot kesimga o`o`shilishiga ko`ra ikkiga ajratiladi:

- a) sintetik shakl (-man, -san, -dir kabi).
- b) analitik shakl (bo`lmoq, hisoblanmoq, sanalmoq va bosho`alar).

Sodda va tarkibli kesimlar

Kesimla tuzilishiga ko`ra sodda va tarkibli kesimlarga bo`linadi. Kesim vaziyatidagi sintetik - morfologik shakldan tashkil topgan sintaktik (morfologik) shakl sodda kesim sanaladi. qandaysintetik - morfologik shakldan tashkil topishiga ko`ra sodda kesim ikki xil nom bilan yuritiladi:

a) sodda ot kesim: b) sodda fe`l kesim: Kesim vaziyatidagi analitik morfologik shakllardan, frazeologizmlardan yoki birikmalardan tashkil topgan sintaktik shakl tarkibli kesim hisoblanadi.

arkibli kesim ham qanaday morfologik shaklning etakchiligiga ko`ra ikki turga bo`linadi:

- a) tarkibli fe`l kesim.
- b) tarkibli ot kesim.

Tarkibli fe`l kesim quyidagi modelli morfologik shakllardan tashkil topadi.

a) ravishdosh Q ko`makchi fe`l: -ib boshla(yot, tur, o`tir, kel, bor, yur, Chiq, tashla, tush, ko`r va bosho`alar)

b) sifatdosh Qto`liqsiz fe`l: edi (ekan, emish).

v) fe`l Q fe`l: aytdi-qo`ydi, CHiqdi-ketdi va bosho`alar.

g) otQfe`l tipidagi frazeologizmlardan: ko`ngli to`ldi, boshi o`otdi kabi.

Tarkibli ot kesim quyidagimodelli morfologik shakllardan tashkil topadi:

a) otQto`liqsiz fe`l: Xona issiq ekan (edi).

b) otQbog`lama: (hisoblanmoq, sanamoq, tuyulmoq, bo`lmoq kabi): O`zbekistonning mustaqil bo`lishi katta voqea hisoblanadi («O`zbekiston ovozi»).

v) ot (Qdan) Qiborat: Uyimiz besh xonadan iborat.

g) harakat nomi (Qegalik shakli)Qkerak (zarur, lozim, mumkin, Shart kabi so`zlar): Men o`qishim kerak.

d) sifatdosh (Qegalik shakli) Q yo`q: Xalqo`a ayting: men aslo o`lganim yo`q (H.O.)

Nazorat savollari:

1. Gap bo`lagi deb qanday birlikka aytiladi?
2. Ma`lum bir so`z qanday holatlarda gap bo`lagi vazifasida kela oladi?
3. Gap bo`lagi necha turga bo`linadi?
4. Gapning bosh bo`laklari qaysilar?
5. Gapning grammatik asosini qaysi bo`laklar tashkil etadi?
6. Ega va kesim qaysi so`z turkumlari bilan ifodalanadi?
7. To`ldiruvchi, aniqlovchi, hol qaysi so`z turkumlaridan ifodalandi?
8. So`zlashuv nutqida gap bo`laklari tartibi qandaybo`ladi?
9. Gapni tashkil etishda eganing roli qandaybo`ladi?
10. Eganing grammatik belgilari.
11. Egani aniqlashda logik va grammatik aspektlar.
12. Ega qandayifodalanadi?
13. Tuzilishiga ko`ra ega necha xil bo`ladi?

14. Ega kesim bilan qanday grammatik aloqaga kiradi?
15. Predikativ aloqa deganda nimani tushunasiz?
16. Logik va grammatik egani qanday izohlaysiz?
17. Gapda egaga qaysi bo`laklar tobelanadi?
18. Otlashgan so`zlardan ifodalangan ega ishtirokida uchta gap tuzing.
19. Kesim deb nimaga aytiladi?
20. Kesim ifodalanishiga ko`ra nechaga bo`linadi?
21. Ot-kesim deb nimaga aytiladi?
22. Fe'l –kesim qanday ifodalanadi?
23. Kesim tuzilishiga ko`ra qanday ko`rinishlariga ega bo`ladi?
24. Sodda kesim qanday bo`ladi? Murakkab kesim-chi?
25. Bog`lama deb nimaga aytiladi?
26. Predikat tushunchasiga tavsif bering.
27. Ot-kesim va uning ifodalanishi haqida gapiring.
28. Fe'l-kesimlarni qanday guruhlash mumkin.
29. Moslashuv aloqasi haqida ma'lumot bering.
30. Ega va kesim qanday moslashadi?
31. Ega va kesimning moslashuvida qanday vositalar muhim vazifa bajaradi?
32. Qanday hollarda ega va kesim orasiga tire qo`yiladi?
33. Moslashuv aloqasi deganda nima tushuniladi?
34. Ega va kesim moslashuvi.
35. Ega va kesimning shaxs-sonda mosligi.
36. Ega va kesimning shaxsda mosligi.

Tayanch atamalar

1. Bosh bo`laklar.
2. Ikkinchi darajali bo`laklar
3. Ega.
4. Eganing ifodalanishi.
5. Eganing tuzilishiga ko`ra turlari.
6. Sodda ega murakkab ega.
7. Predikativ tushunchasi.
8. Predikativ va subyekt.
9. Kesimning ifoda asoslari.
10. Ot-kesim.
11. Fe'l-kesim
12. Sostavli kesim.
13. Sodda kesim.
14. Bog`lamali kesim.
15. Murakkab kesim.
16. Moslashuv aloqasi
17. Shaxsda moslik
18. Sonda moslik
19. Ot-kesimning moslashuvi
20. Fe'l-kesimning moslashuvi
21. Bog`lama

Asosiy adabiyotlar

1. «Hozirgi o`zbek adabiy tili» Kollektiv. T. 1980 y.
2. «O`zbek tilining nazariy grammatikasi» N.Mahmudov, A.Nurmonov, T.,1995 y.
3. «Ona-tili» 8-9 sinflar. T. 1995 y.
4. G`ulomov A. Asqarova M. Hozirgi o`zbek adabiy tili.T, 1966, 1987
5. G`ulomov A., Asqarova M., Hozirgi o`zbek adabiy tili. T, 1987 yil.
6. Hojiev A., Maxmudov N. Semantika va sintaksis pozisiya. «O`zbek tili va adabiyoti»
jurn, 1983 y. 2-son.
7. Hozirgi o`zbek adabiy tili.Sintaksis.Toshkent.1996.
8. Muhammadiev M. YOyiq aniqllovchilar haqida «O`zbek tili va adabiyoti» Journ. 1975.
4-son.
9. Mahmudov N.Funksional va nofunktsional to`ldiruvchilar haqida. «O`zbek tili va
adabiyoti» xur.1981.1-son.
10. Nurmonov A. va bosholalar. O`zbek tilining mazmuniy sintaksisi. T, 1992 yil.
11. O`rinboev B. So`zlashuv nutqida gap bo`laklari tartibi. «O`zbek tili va adabiyoti» journ.
1976 yil 6-son.
12. O`zbek tili grammatikasi II tom Sintaksis. T., 1976.
13. Shoazizov SH. Ega haqida ba`zi mulohazalar. T., DPI ilmiy asarlari 87 tom. 1972 yil
14. Saydullaev A. Ajratilgan bosh bo`laklar «Sovet maktabi» va jurnali 1969. 1-son.
15. Sayfullaev A. Semantiko-grammaticheskie osobennosti chlenov predlojeniya v
sovremennom uzbekiskom yazike. T., 1984.
16. G`ulomov A. Asqarova M. Hozirgi o`zbek tili. Sintaksis. Toshkent, 1966, 1987.
17. Abdurahmonov va bosholalar. Hozirgi o`zbek adabiy tili. T, 1979 yili.
18. Abdurahmonov A. Ajratilgan ikkinchi darajali bo`laklar. T.1960.
19. Ashurov D. Ubaeva F. Boltaboeva X. Gapning uyushgan va ajratilgan bo`laklari.
Toshkent 1962.
20. Akramov T. Birikmali ot-kesimlar, N,1967.
21. Kesimning strukturasi ga ko`ra klassifikatsiyasi. «O`zbek tili va adabiyoti» journ. 1965.
4-son.

3-MA`RUZA

IKKINCHI DARAJALI BO`LAKLAR

REJA:

To`ldiruvchi haqida ma`lumot

To`ldiruvchining ma`no turlari.

Aniqllovchi haqida ma`lumot

Aniqllovchilarning ma`no turlari: a) sifatlovchi, uning ifodalanishi; b) qaratuvchi, uning ifodalanishi; v) izohlovchi va uning ma`nolari.

Aniqllovchining tuzilishiga ko`ra turlari.

Hol haqida umumiy ma`lumot.

Holning ma`no turlari va ifodalanishi.

Holning tuzilishiga ko`ra turlari.

Ikkinchi darajali bo`laklar. to`ldiruvchi uning ifodalanishi va grammatik xususiyatlari

O`z hokim komponentiga tobelanish yo`li bilan bog`lanib, shu hokim komponent orqali otlashilgan harakat tahsiriga berilgan, sha zaruratni o`z ustiga olgan ob`ektt yoki predmet ma`nosini bildiruvchi so`z to`ldiruvchi deyiladi. To`ldiruvchi vositali kelishiklar (-ni,-ga, -da, -dan) yoki ko`makchilar bilan birga kelib, o`zi ergashib kelgan gap bo`lagiga boshqaruv yo`li bilan bog`lanadi. To`ldiruvchilar vositali kelishiklar va ko`makchili so`zlar So`roqlariga javob bo`ladi. To`ldiruvchi gapda kesimga harakat, holat, belgi anglatuvchi so`z bilan

ifodalangan bo`laklarga tobelanib, o`rtasidagi munosabat xarakteriga ko`ra to`ldiruvchilar vositasiz to`ldiruvchi va vositali to`ldiruvchiga ajraladi.

Hokim bo`laklar ifoda qilingan harakatning tahsiri bevosita o`ziga o`tgan predmetni bildiruvchi to`ldiruvchilar vositasiz to`ldiruvchilar deyiladi. Vositasiz tshldiruvchilar o`timli fe'llarga, shuningdek, o`timli fe'l o`zagidan hosil qilingan sifatdosh, ravishdosh yoki harakat nomiga bog`lanib, tushim kelishigi formasida keladi. Kimni, nimani, qayerni, So`roqlariga javob bo`ladi. Hokim bo`lak ifodalangan harakat konkret ob`ektga emas umuman, shu turdagi ob`ektlarga o`tish tushunchasini bildirsa, vositasiz to`ldiruvchi belgisiz qo`llaniladi.

Botirlari kanal qazadi, shoirlari g`azal yozadi.

O`z xokim bo`lagiga tobelanish yo`li bilan bog`lanib, shu hokim bo`lak orqali ifodalangan harakatning yuzaga kelish qurol vosita vazifasini bajaradigan to`ldiruvchi vositali to`ldiruvchi deyiladi.

Vositali to`ldiruvchi vositali kelishiklar So`roqlariga va ko`makchili konstruksiyalar so`roG`lariga javob bo`ladi. Ular o`timsiz fe'llarga, shuningdek, bosh turkum so`zlarga bog`lana oladi:

To`ldiruvchi tuzulishiga ko`ra sodda va murakkab bo`ladi. Sintaksis formadagi birgina so`z bilan ifodalangan to`ldiruvchilar deyiladi:

Aniqlovchi va uning ifodalanishi

Predmetning áelgisini, qarashlilikini ifoda qiluvchi gap bo`lagi aniqlovchi deyiladi. Bu o`rinda belgi tushunchasi keng ma`noda qo`llanib sifat rang tuz xususiyat maza, shakl-hajm, miqdor-daraja ma`nolarini ifoda qiladi

Aniqlovchi ot va otlashgan so`zlar bilan ifodalangan bo`laklarga bog`lanadi.

Aniqlovchi bog`lanib kelgan aniqlanmish deyiladi. Aniqlanmish deyilganda belgisi aniqlanadigan predmet yoki shaxs tushiniladi.

Aniqlovchilar anglatgan ma`nolarga ko`ra: sifatlovchi, qaratuvchi izohlovchilarga bo`linadi.

Sifatlovchi aniqlovchilar aniqlanmishga bitishuv yo`li bilan bog`lanadi va predmetning turi belgilarini ifoda etadi. Ular qanday?, qaysi?, qanaqa?, nechanchi?, qancha kabi so`roqlarga javob bo`ladi.

Qaratuvchi aniqlovchi biror predmetning yoki nimaga qarshi ekanligini btildiruvchi aniqlovchidir. qaratuvchi aloqaga kirishgan bo`lak qaralmish sanaladi. YAratuvchi va qaralmish moslashuv yo`li bilan aloqaga kirishadi: Engil taqlid bizning kishilarga xos sifat emas.

Qaratuvchi belgi yoki belgisiz qo`llanishi mumkin. Bu, albatta ma`no xarakteriga ko`radilar. qiyoslang: zhlovchi ham aniqlovchining bir turidir. Predmetga boshqanom berish, uni boshqacha atash yo`li bilan aniqlaydigan bo`laklar izohlovchi deyiladi. Izohlovchi aniqlab kelgan bo`lak izohlanmish sanaladi. Izohlovchilik birikmada ikki predmetning munosabati ifodalanadi. Izohlovchi va izohlanmish bo`laklar ot, otlashgan sifat, son yoki sifatdosh bilan ifodalanadi.

Sintaktik formadagi so`zlar bilan ifodalanib, bir sodda tushunchani anglatadigan sodda aniqlovchi deyiladi. Sodda aniqlovchi quyidagicha ifodalanishi mumkin

Ikki va undan ortiq so`zlarning tobelanish munosabatidan tashkil topgan bir murakkab tushuncha anglatadigan gapda bir butun holda aniqlovchi vazifasida qo`llanadigan birikmalar murakkab aniqlovchi deyiladi. Umuman, aniqlovchilar belgi anglatishi nuqtai nazardan hol va kesimga o`xshaG` ketadi. Lekain kesim eganing belgisini xukm yo`li bilan ifoda etadi, hol esa harakatning turli belgilarini aniqlaydi. Aniqlovchining ulardan farqi shundaki, ular ot yoki otlashgan so`zlar belgisini atributiv yo`l bilan izohlab keladi.

Hol va uning ma'no turlari

Harakat yoki holatning bajarilishi o'rnini, payti maqsadi, sababi, tarzi va boshqalarni ko'rsatib ish-harakat bildiruvchi bo'lakka tobelashgan bo'lak – hol deyiladi.

Hol fe'l kesimga, shuningdek, harakat nomi, sifat-dosh, ravishdosh yoki ravish bilan ifodalangan bo'laklarga bog'lanib ularni biror jihatdan izohlab keladi. Safarov bilan Samandarov o'tib-o'tib kulishdi. Oysulton hayol surib ayvonga CHiqib qolganini bilmay qoldi. Ravon o'qishni otamdan o'rgandim.

Hol ravish, ravishdosh, vositali kelishikdagi yoki ko'machili otlar, harakt nomi, sifat, shuningdek, ravish xarakteriga ega bo'lgan ajralmas birikmalar bilan ifodalanadi. Ifodalangan mazmunga ko'ra hollar quyidagi turlarga ajraladi:

1.Ravish holi 2.Miqdordaraja holi. 3.O`rin holi .5.Payt holi .6Sabab holi. 7.Maqsad holi.8 . Shart holi.

9.To`siqsizlik holi.

Ravish holi

Ish harakatning yoki holatning qay tarzda, qay vaziyatda sodir bo'lishini ko'rsatadigan hollar ravish holidir. Ular qanday?, qay tarzda?, qay holda? so'roqlariga javob bo'ladi.

Miqdor-daraja holi

Ish-harakat, holat, vaqt kabilarning qay darajada ekanini miqdor jihatdan chegaralab, darajalab ko'rsatuvchi hollar daraja-miqdor holi deyiladi. Ular qancha? So'roqlariga javob bo'ladi

O`rin holi

Ish-harakat yoki holatning bajarish o'rnini bildiruvchi o'aerda?, o'aerga?, o'aerdan? So'roqlariga javob bo'luvchi bo'laklar o`rin holi deyiladi..

Payt holi

Ish-harakat yoki holatni bajarilish paytini bildirib, o`achon? O`achongacha? O`achondan buyon? So'roqlariga javob bo'ladi.

Sabab holi

Ishharakatning bajarilish sababini bildirib necha? Nima uchun so'rog`iga javob bo'lgan so`zlar sabab holi deyiladi. Sabab holi quyidagicha ifodalanadi:

Ravishdosh bilan: qiz etib keldi, sevgilisining o'amchilanishiga chidolmay maydonga otildi.

Ot bilan: Men hijolatdan labimni tishladim.

Harakt nomi bilan: oila otaning kelishidan quvondi.

Sifatdosh bilan: Bashorat oyisini tanimay qolganiga kuldi.

Ibora bilan: Akasini yuzidan o'tolmay u o`rimga CHiqdi.

Maqsad holi

Ish-harakatning kuzatilgan maqsadni bildiruvchi hollar maqsad holidir. Ular nima maqsadda? Nega? So'roqlariga javob bo'ladi.

To'siqsiz hol.

Ma'lum bir haraktning bajarilishini to'siqlik, zidlik bo'lishiga qarama, shu haraktning bajarilishini anglatgan hollar to'siqsiz holi deyiladi.

Shart holi

Shart holi harakat ifodalangan bo'lakka bog'lanib, shu bo'lak orqali anglatilgan haraktning sodir bo'lishidan sharni ko'rsatadi va asosan fe'ning Shart formasi bilan ifodalanadi. O'z hokim bo'lagiga—sa afiksi yordamida bog'lanadi

Shart holi Ba'zan payt ma'nosini ham anglatadi. Hol tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab bo'ladi. Sintaktik formadagi so'z bilan ifodalanib bir sodda tushunchani anglatadigan hollar sodda hollar deyiladi

Ikki va undan ortiq so'zlarning birikishidan tashkil topib bir murakkab tushuncha anglatadigan butunligicha hol vazifasida qo'shimchadagi morfemik sintaktik birliklar murakkab hol deyiladi. Ular asosan ravishdosh va sifatdosh, frazeologik yaxlit qo'shimchadagi ajralmas bo'laklar bilan ifodalanadi..

Nazorat savollari:

1. Ikkinchi darajali bo'laklarni sanang.
2. To'ldiruvchi, aniqlovchi, hol qaysi so'z turkumlaridan ifodalandi?
3. Ikkinchi darajali bo'laklar haqida ma'lumot bering.
4. To'ldiruvchi deb nimaga aytiladi?
5. To'ldiruvchilar necha turga bo'linadi?
6. Vositali to'ldiruvchi haqida ma'lumot bering?.
7. Vositasiz to'ldiruvchiga misollar keltiring.
8. To'ldiruvchi qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanishi mumkin?
9. To'ldiruvchilar belgisiz kela oladimi?
10. Sodda to'ldiruvchilarning xususiyatlari nimada
11. Murakkab to'ldiruvchilarning misollar orqali tushuntiring.
12. Atributiv aloqa haqida nimalar bilasiz?
13. Aniqlovchideb nimaga aytiladi?
14. Aniqlovchining ma'no turlarini sanab bering.
15. Sifatlovchi qanday ma'nolarini anglatadi?
16. Izohlovchining ma'nolarini sanang.
17. Sifatlovchi va izohlovchilar so'zlarga qaysi yo'l bilan bog'lanadi?
18. Qaratqich aniqlovchi qandayshakllanadi?
19. Qaralmish qandayusul bilan so'zga bog'lanadi?
20. Sodda aniqlovchining xususiyatlari nimada?
21. Murakkab aniqlovchiga misollar keltiring.
22. Hol deb nimaga aytiladi?
23. Holning ma'noturlarini sanang.
24. Tars holining tahrifini ayting.
25. Sabab hollari qandayifodalanadi?
26. Maqsad hollari qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
27. To'siqsizlik holi haqida ma'lumot bering.
28. Shart holi qandayshaklda ifodalanadi?
29. Relyativ aloqani tushuntiring.
30. Daraja-miqdorholi qanday ifodalanadi?
31. O'rin holi qaysi so'z turkumlaridan ifodalanishi mumkin.

32. Payt holi qanday So`roqlarga javob beradi?
33. Payt holi qanday so`zlar yordamida ifodalanadi?
34. Maktab darsligida hol necha turga bo`lib o`rganiladi?
35. Oliy maktab darsliklarida-chi?
36. «Hol» mavzui bo`yicha qanday qo`shimcha adabiyotlarni bilasiz?
37. Polesemantik bo`laklar qaysi gap bo`lagi doirasida kuzatiladi?
38. Gapda holning o`mi qanday?
39. Hol va hol ergash gaplar orasidagi sinonimik munosabatni tushuntirib bering.

Tayanch atamalar

1. To`ldiruvchi.
2. Vositasiz to`ldiruvchi.
3. Vositali to`ldiruvchi.
4. To`ldiruvchining ifodalanishi.
5. Sodda to`ldiruvchilar.
6. Murakkab to`ldiruvchilar.
7. Atributiv aloqa.
8. Aniqlovchi.
9. Sifatlovchi aniqlovchi.
10. Qaratqich aniqlovchi.
11. Izohlovchi.
12. Sodda aniqlovchi.
13. Murakkab aniqlovchi.
14. Relyativ aloqa.
15. Hol.
16. Holning ma`no turlari.
17. Ravish holi.
18. O`rin holi.
19. Payt holi.
20. Maqsad holi.
21. Sabab holi.
22. Daraja miqdor holi.
23. Shart holi.
24. To`siqsizlik holi.

Asosiy adabiyotlar

22. «Hozirgi o`zbek adabiy tili» Kollektiv. T. 1980 y.
23. «O`zbek tilining nazariy grammatikasi» N.Mahmudov, A.Nurmonov, T.,1995 y.
24. «Ona-tili» 8-9 sinflar. T. 1995 y.
25. G`ulomov A. Asqarova M. Hozirgi o`zbek adabiy tili.T, 1966, 1987
26. G`ulomov A., Asqarova M., Hozirgi o`zbek adabiy tili. T, 1987 yil.
27. Hojiev A., Maxmudov N. Semantika va sintaksis pozisiya. «O`zbek tili va adabiyoti»
jurn, 1983 y. 2-son.
28. Hozirgi o`zbek adabiy tili.Sintaksis.Toshkent.1996.
29. Muhammadiev M. YOyiq aniqlovchilar haqida «O`zbek tili va adabiyoti» Journ. 1975.
4-son.
30. Mahmudov N.Funksional va nofunkcional to`ldiruvchilar haqida. «O`zbek tili va
adabiyoti» xur.1981.1-son.

31. Nurmonov A. va bosholalar. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. T, 1992 yil.
32. O'rinboev B. So'zlashuv nutqida gap bo'laklari tartibi. «O'zbek tili va adabiyoti» jurn. 1976 yil 6-son.
33. O'zbek tili grammatikasi II tom Sintaksis. T., 1976.
34. Shoazizov SH. Ega haqida ba'zi mulohazalar. T., DPI ilmiy asarlari 87 tom. 1972 yil
35. Saydullaev A. Ajratilgan bosh bo'laklar «Sovet maktabi» va jurnali 1969. 1-son.
36. Sayfullaev A. Semantiko-grammaticheskie osobennosti chlenov predlozheniya v sovremennom uzbekiskom yazike. T., 1984.
37. Gulomov A. Asqarova M. Hozirgi o'zbek tili. Sintaksis. Toshkent, 1966, 1987.
38. Abdurahmonov va bosholalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T, 1979 yili.
39. Abdurahmonov A. Ajratilgan ikkinchi darajali bo'laklar. T.1960.
40. Ashurov D. Ubaeva F. Boltaboeva X. Gapning uyushgan va ajratilgan bo'laklari. Toshkent 1962.
41. Akramov T. Birikmali ot-kesimlar, N,1967.
42. Kesimning strukturasi ga klassifikatsiyasi. «O'zbek tili va adabiyoti» jurn. 1965. 4-son.

4-MA'RUZA

AJRATILGAN BO`LAKLAR

REJA:

Uyushiq bo`laklar

Ajratilgan bo`laklar

Undalma

Ajratilgan bo`laklar

1. Intonasion hamda fikran ajratilib gapda ma'lum bir mustaqillikka ega bo`lgan bo`laklar ajratilgan bo`laklar deyiladi.

Ajratilgan bo`laklar nutqda biror bo`lakni ajratib bo`rttirib ta'kidlab ko`rsatish uchun xizmat qilib, tinglovchi diqqatini shu bo`lakka jalb qiladi Bunday bo`laklar og`zaki nutqda alohida intonasiya bilan aytilib, muhim stilistik vosita ham hisoblanadilar.

Intonasiya gap bo`laklarini ajratuvchi grammatik vositadir: ajratilgan bo`laklar oldidan ohang ko`tariladi. Ajratilgan bo`laklar odatda pauza bilan ajratilib, logik urg`uoladilar:

2.Gap bo`laklarining ajratilishi turli sintaktik holat bilan bog`liq. Bularning eng muhimlari quyidagilar:

1)Izohlash zaruriyati gap bo`laklarini ajratish uchun sharoit yaratadi i2) Inversiya. Bu sifatlovchi va izohlovchilarning ajratilishi uchun imkoniyat yaratadi. .

3). Gap bo`laklarining YOyiq holda kelishi. Bunda ravishdosh, -dey, -dek affikslari bilan yasalgan ravish o`ziga oid so`zlar bilan kengayib, ajratilgan bo`lak hosil qiladilar: Uchinchi va to`rtini holat bilan bog`liq bo`lgan ajratilgan bo`laklar yarim predikativlik ifoda qilish bilan ergash gaplarga o`xshab ketadi. Lekin ular to`liq predikativlik ifoda qilmasligi, gap uchun zarur bo`lgan manimal forma-struktura asosi (grammatik markaz) bo`lmasligi bilan ergash gaplardan farq qiladi

3.Bosh bo`laklarning ajratilishi izohlash zaruriyati bilan bog`liq. Ajratilgan bosh bo`lak o`zidan oldin kelgan ega yoki kesimi izohlaydi.

a) Ajratilgan egalar: b) Ajratilgan kesim:

4.Ikkinchi darajali bo`laklarning ajratilishi izohlash, inversiya, gap bo`laklarining kengayib kelishi bilan bog`liq.

a) Aniqlovchi ajralishi quyidagicha: Sifatlovchilarning ajratilishi inversiya hodisasi bilan bog`liq: belgi ta'kidlab, bo`rttirib ifoda qilinganda, u o`z sifatlanmishidan keyin keltiriladi:

b)Izohlovchilarning ajratilishi inversiya hodisasi bilan bog`liq: kasb, xunar, amal, unvon kabilarni ifoda qiluvchi izohlovchilar o`z izohlanmishidan keyin keltiriladi:

v) To`ldiruvchilarning ajratilishi quyidagicha: Izoh bilan bog`liq: Bunda vositasiz va vositali to`ldiruvchilar o`zlaridan oldin kelgan shu tipdagi to`ldiruvchilarni izohlaydi:

YOyiq holda kelgan ko`makchili konstruksiyalar bilan ifodalangan to`ldiruvchilar ajratiladi. Konstruksiya tarkibida qaraganda, tashqari, ko`ra kabi ko`makchilar keladi:

G. Hollarning ajratilishi quyidagicha:

Izoh bilan bog`liq: bunda hol o`zidan oldin kelgan shu tipdagi holni izoxlaydiYOyiq xolda kelgan ko`makchili konstruksiyalar bilan ifodalangan ko`makchilar bo`ladi: Ravishdosh bilan ifodalangan hollar o`zlariga oid so`zlar bilan kengayib kelib, ajratiladi:

U n d a l m a

Soʻzlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmetni ifoda qiluvchi mustaqil soʻz yoki soʻz birikmasi undalma deyiladi. Undalma gapning umumiy mazmuni bilan bogʻliq boʻlib, gap boʻlaklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydi. Undalma bosh kelishik formasida keladi. Bu jihatdan u egaga oʻxshaydi. Lekin undalma undosh intonasiyasi, pauza bilan ajratilishiga koʻra hamda kesim bilan bogʻlanmasligi jihatdan egadan farqqiladi. Undalma koʻproq soʻzlovchi nutqi qaratilgan shaxsni ifoda qiladi:

5. Undalma gap orasida keladi. Bu vaqtda tinglovchiga tegishli boʻlgan fikr aytilib, unga murojaat qilinadi. Keyin fikr yana davom ettiriladi. Bunday undalmalar, odatda logik, urgʻu olmaydi: Siz baxtlisiz. Olimjon aka, siz xalq uchun koʻp xizmat qildingiz.

6. Undalmalarda intonasiya, gap xarakteriga koʻra, turlicha boʻladi: darak gaplarda past ohang bilan aytiladi: Soʻroq gaplarda alohida urgʻu olgan undalmadan keyin choʻziq pauza boʻladi: buyruq gaplarda gap mazmuniga qarab, past hamda kuchliroq ohang bilan aytiladi.

Nazorat savollari:

1. Ajratilgan hollarga misollar keltiring.
2. Ajratilgan hollarda qaysi tinish belgilari ishlatiladi?
3. Ajratilgan boʻlaklar deb qanday boʻlaklarga aytiladi?
4. Ajratilgan boʻlaklar gapda qanday vazifa bajaradi?
5. Izoh tipida ajratilgan boʻlaklarga misollar keltiring.
6. qaysi boʻlak inversiyaga uchraydi?
7. Ajratilgan boʻlakning asosiy xususiyatlari.
8. Ajratilgan egaga tavsif bering.
9. Ajratilgan kesimga misol keltiring.
10. Ajratilgan toʻldiruvchi bilan uyushgan toʻldiruvchilarni farqi nimada?
11. Ajratilgan aniqlovchini misollar orqali tushuntiring.

Tayanch atamalar

1. Ajratilgan boʻlak.
2. Ajratilgan ega.
3. Ajratilgan kesim.
4. Ajratilgan toʻldiruvchi.
5. Ajratilgan aniqlovchi.
6. Ajratilgan hol.

Asosiy adabiyotlar

1. «Hozirgi oʻzbek adabiy tili» Kollektiv. T. 1980 y.
2. «Oʻzbek tilining nazariy grammatikasi» N.Mahmudov, A.Nurmonov, T.,1995 y.
3. «Ona-tili» 8-9 sinflar. T. 1995 y.
4. Gʻulomov A. Asqarova M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili.T, 1966, 1987
5. Gʻulomov A., Asqarova M., Hozirgi oʻzbek adabiy tili. T, 1987 yil.

6. Hojiev A., Maxmudov N. Semantika va sintaksis pozisiya. «O`zbek tili va adabiyoti» jurn, 1983 y. 2-son.
7. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Sintaksis. Toshkent. 1996.
8. Muhammadiev M. YOyiq aniqlovchilar haqida «O`zbek tili va adabiyoti» Journ. 1975. 4-son.
9. Mahmudov N. Funktsional va nofunktsional to`ldiruvchilar haqida. «O`zbek tili va adabiyoti» xur. 1981. 1-son.
10. Nurmonov A. va bosholalar. O`zbek tilining mazmuniy sintaksisi. T, 1992 yil.
11. O`rinboev B. So`zlashuv nutqida gap bo`laklari tartibi. «O`zbek tili va adabiyoti» jurn. 1976 yil 6-son.
12. O`zbek tili grammatikasi II tom Sintaksis. T., 1976.
13. Shoazizov SH. Ega haqida ba`zi mulohazalar. T., DPI ilmiy asarlari 87 tom. 1972 yil
14. Saydullaev A. Ajratilgan bosh bo`laklar «Sovet maktabi» va jurnali 1969. 1-son.
15. Sayfullaev A. Semantiko-grammaticheskie osobennosti chlenov predlojeniya v sovremennom uzbekiskom yazike. T., 1984.
16. Gulomov A. Asqarova M. Hozirgi o`zbek tili. Sintaksis. Toshkent, 1966, 1987.
17. Abdurahmonov va bosholalar. Hozirgi o`zbek adabiy tili. T, 1979 yili.
18. Abdurahmonov A. Ajratilgan ikkinchi darajali bo`laklar. T. 1960.
19. Ashurov D. Ubaeva F. Boltaboeva X. Gapning uyushgan va ajratilgan bo`laklari. Toshkent 1962.
20. Akramov T. Birikmali ot-kesimlar, N, 1967.
21. Kesimning strukturasi ga ko`ra klassifikatsiyasi. «O`zbek tili va adabiyoti» jurn. 1965. 4-son.

5-MA'RUZA

QO`SHMA GAP VA UNING SODDA GAPDAN FARQI. QO`SHMA GAP TURLARI

REJA:

Qo`shma gap haqida tushuncha.

Qo`shma gapning sodda gapdan farqi

Qo`shma gapga doir tahlil namunasi.

Qo`shma gap tasnifi.

Qo`shma gap komponentlarini birlashtiruvchi vositalar

Bog`langan qo`shma gap qismlari (komponentlari)ning o`zaro mazmuniy munosabatlari: a) birlashtirish munosabati; b) ayiruv munosabati; v) zidlash (qiyoslash) munosabati; g) izohlash munosabati; d) sabab – natija munosabati; e) inkor munosabati.

Tilda qo`shma gap modelining mavjudligi ham sodda gap kabi nutqning tabiiy talabidir. Fikr ifodalash, nutq tuzish uchun gapning sodda shakli qanday zarur bo`lsa, qo`shma gap shakli ham shunday zarurdir. Biroq bu nutqiy birliklarning har ikkalasi kommunikativ funktsiya ifodalashdan qat`iy nazar, mazmun va tuzilishi jihatidan farqli hodisalardir.

Qo`shma gap tuzish uchun, birinchidan, kamida ikkita sodda gap bo`lishi, ikkinchidan, bu sodda gaplar mazmunan munosabatga kirishgan bo`lishi kerak.

Demak, qo`shma gaplar mazmunan mos kelmaydigan har qanday gaplarning yonma-yon qo`yilishidan yuzaga kelmaydi. Uchinchidan, qo`shma gaplar birdan ortiq sodda gaplarning ma`lum grammatik aloqaga kirishidan tuziladi. Bunday qo`shma gapning bog`langan, bog`lovchisiz, ergash gapli, turlari shakllanadi

To`rtinchidan, yonma-yon kelgan birdan ortiq sodda gaplar mazmunan bir-biriga bog`langan taqdirda ham, yaxlit, umumiy birlashtiruvchi intonasiyaga ega bo`lmasa, qo`shma gap shakllanmagan bo`ladi. qiyoslaylik:

Keyingi holatda gaplar orasida nisbiy tugallangan intonasiya bo`lib, birinchi gapning mazmunini ikkinchi gapning mazmuni orqali tasdiqlash bor.

Demak, qo`shma gapning shakllanishidagi yana bir muhim belgi birlashtiruvchi intonasiyadir.

Yuqoridagilardan qo`shma gapning quyidagicha ta`rifi kelib chiqadi: ikki va undan ortiq sodda gaplarning (yoki komponentlarning) mazmun va grammatik munosabatidan tashkil topgan, bir butun birlashtiruvchi, yakunlovchi intonasiyaga ega bo`lgan sintaktik konstruksiyalar qo`shma gap deyiladi.

Qo`shma gap tarkibi qanchalik yoyiq – murakkab bo`lmasin, unda komponentlarning tugallanganligini ko`rsatadigan yakunlovchi intonasiya mavjud bo`ladi:

Urug` er ostida yotsa, hech kim u bilan qiziqmaydi, u qachon tuproqni yorib, erni zumrad kabi bezasa, uning nima ekanligi ma`lum bo`ladi, so`ngra parvarish qilib, uni o`stiradilar. (q.D)

Qo`shma gap sodda gap bilan tashqi – gaplik formasi, ichki kommunikativ funktsiya ifodalash, tugallangan intonasiyaga egaligi kabi umumlashtiruvchi xususiyatlarga ega bo`lishiga qaramay, unda quyidagi farqlovchi belgilar ham mavjud:

Struktural belgi. qo`shma gap birdan ortiq predikativ qo`shilmalardan (sodda gaplardan) tuziladi. Sodda apda bitta grammatik markaz mavjud – u bitta predikativ qo`shilmadan tashkil topadi. Qo`shma gapning materiali – uni tashkil etuvchi komponentlar – gaplar; sodda gapning materiali – uni tashkil etuvchi komponentlar gap bo`laklaridir.

Mazmuniy belgi. qo'shma gapda birdan ortiq voqelik – hukm, xabar ifodalanadi, ya'ni qo'shma gapning mazmuni murakkab bo'ladi. Sodda gapda bitta voqelik ifodalanadi yoki bir sub'ektning belgi – xususiyatlariga doir xukm beriladi..

Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar: a) o'zida ega va kesim munosabatini aks ettirish; b) nisbiy tugallangan fikr ifodalashi; v) intonasiya jihatidan yarim mustaqillikka egaligi bilan gapga teng hisoblansa-da, ular alohida olingan sodda gaplar emas. qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar shuning uchun ham alohida olingan sodda gaplarday mustaqil emaski, ular qo'shma gap doirasida boshqa gaplar bilan bog'langan holda harakat qiladi. Bunda bir gap mazmunning reallashishi boshqa gapdagi voqelikning yuzaga kelishini taqozo qiladi. Demak, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning mazmuni, grammatik hamda intonasion xususiyatlarini shu butunlikning umumiy mazmuni belgilayd.

Qo'shma gaplar mazmun va grammatik jihatdan, komponentlarning sintaktik aloqaga kirishishi nuqtai nazaridan, uch yirik turga ajraladi. Bular: 1) bog'langan qo'shma gap, 2) ergash gapli qo'shma gap, 3) bog'lovchisiz qo'shma gap.

Bog'langan qo'shma gaplar

Komponentlar o'zaro teng bog'lovchilar yoki teng bog'lovchi funksiyasini bajaruvchi yuklamalar yordamida birikib, mazmuniy hamda grammatik jihatdan bir butunlikni tashkil etuvchi qo'shma gap turi, bog'langan qo'shma gap deyiladi.

Bog'langan qo'shma gaplar hosil qilishda teng bog'lovchilarning roli, aynisa, katta. Bog'langan qo'shma gaplar shaklan, grammatik jihatdan mustaqil komponentlar – sodda gaplardan tashkil topadi. Bunday qo'shma gaplarda sodda gaplarning o'zaro bog'liqligi ularning strukturasi, kesimlarining semantik, grammatik munosabatida ko'zga tashlanib turadi. Bog'langan qo'shma gaplar iki qismdan tashkil topadi, bu qismlar o'zaro teng bog'lovchilar yoki yuklamalar yordamida birikadi. Bog'langan qo'shma gaplar yopiq konstruksiyani tashkil etadi. Ya'ni uni istagancha davom ettirib bo'lmaydi. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar esa ochiq konstruksiyani tashkil etadi. Uning qismlari avtor ixtiyori va umumiy mazmun talabi bilan yana orttirilishi mumkin:

I. Biriktirish munosabati

Bog'langan qo'shma gap qismlari biriktiruvchi bog'lovchilar yoki ularning funksiyasini bajaruvchi yuklamalar yordamida a'loqaga kirganda, ma'lum bir paytda yoki ketma-ket yuzaga chiqadigan harakat-holatlar birlashtiriladi va bu bilan uyushgan qismlar hosil qilinadi.

1. Qo'shma gap komponentlarida harakat-holat bir paytda yuzaga chiqadi:
2. Harakat-holat ketma-ket yuzaga chiqadi.

II. Ayiruv munosabati.

Bog'langan qo'shma gaplarning ayrim turlarida qismlaridan anglashilgan voqea-hodisa yoki xarakat-holatlarining biri ro'y berib, ikkinchisi ro'y bermaydi va ular galma-gal ro'y beradi. Bunday qo'shma gaplar ayiruv munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplar deyiladi. qo'shma gap qismlari umumiy bir fikrni, niyatni ifodalash uchun xizmat qiladi, shu umumiy bu fikrning elementlari hisoblanadi. Ayiruv munosabatini ifodalagan bog'langan qo'shma gaplarning komponentlari o'zaro ayiruvchi bog'lovchilar yordamida birikadi.

III. Sabab – natija munosabati.

Bog'langan qo'shma gap qismlarining birdan anglashilgan mazmun ikkinchisining ro'y berishiga sabab bo'ladi:

IV . Zidlash (qiyoslash munosabati)

Qo`shma gap qismlaridan anglashilgan harakat-holat bir-biriga zid qo`yilishi, qiyoslanishi mumkin. Bundan maqsab shuki, qismlardan anglashilgan belgi xususiyatlarini bir-biriga zid qo`yish, ular orasidagi farqni ko`rsatish, bir-biriga nomuvofiq ekanini o`rsatishdir. qo`shma gap komponentlari o`zaro zidlovchi bog`lovchilar yordamida bog`lanadi:

V. Izohlash munosabati.

Bog`langan qo`shma gaplarning ba`zilarida komponentlarning biri ikkinchisining mazmuniga izoh bo`ladi, uni to`ldiradi. Komponentlar biri ikkinchisiga umumiy izoh bo`lishi, yoki biror bo`lakning ma`nosini aniqlashi, to`ldirishi mumkin:

Mavzu bo`yicha nazorat savollari:

1. Qo`shma gapning sodda gapdan farqini tushuntiring.
2. Qo`shma gapning asosiy belgilari nimadan iborat.
3. Qo`shma gaplarga umumiy ta`rif bering.
4. Qo`shma gaplar tasnifi haqida tushuntiring.
5. Qo`shma gap qismlarini biriktiruvchi vositalar qaysilar?
6. Qo`shma gaplarni tahlil qilishda nimaga e`tibor berish kerak?
7. Qo`shma gap turlari haqida tushuncha bering.
8. Bog`lovchisiz qo`shma gaplarda biriktiruvchi vosita nima?
9. Bog`langan qo`shma gaplarda qaysi bog`lovchilar ishlatiladi?
10. Ergashtiruvchi bog`lovchilar qo`shma gaplarning qaysi turida ishtirok etadi?

Mavzu bo`yicha tayanch so`z va iboralar:

1. Qo`shma gapning asosiy belgilari.
2. Qo`shma gapning sodda gapdan farqi.
3. Qo`shma gap qismlarini biriktiruvchi vositalar.
4. Qo`shma gap turlari.

Asosiy adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G`. Qo`shma gap sintaksisi asoslari.T., Fan, 1958 y.
2. Mirzaev M. Hozirgi zamon o`zbek tili. Mashqlar to`plami.T, 1965 y.
3. Hozirgi o`zbek adabiy tili. 2-kitob.Sintaksis.T., 1966 y.
4. Abdurahmonov G`.,Sulaymonov H, Holiyorov H., Omonturdiyev J. Hozirgi o`zbek adabiy tili.Sintaksis.1979 y.
5. G`ulomlov A.G`...,Asqarova M. Hozirgi o`zbek adabiy tili.T., 1987 yil.
6. Mamajonov A. Qo`shma gap stilistikasi.T., Fan, 1990 yil.
7. Nurmonov A., Mahmudov N. O`zbek tilining nazariy grammatikasi. T., 1995 yil

6-MA'RUZA

ERGASH GAPLI QO`SHMA GAPLAR

REJA:

Ergash gapli qo`shma gaplar haqida umumiy ma'lumot.

Ergash va bosh gaplarni o`zaro biriktiruvchi grammatik vositalar: A)Ergashtiruvchi bog`lovchilar va ularning funksiyasida qo`llanuvchi yordamchi so`zlar; B)Fe'ning funksional shakllari yordamida birikish; V)Fe'l mayllari yordamida birikish.

Ergash gapning mazmuniy va grammatik xususiyati

Ergash gapning sintaktik vazifasi.

Ega ergash gaplarning ta'rifi.

Kesim ergash gapning ta'rifi.

Aniqlovchi ergash gapning ta'rifi

Ravish ergash gapli qo`shma gapning ta'rifi.

Sabab ergash gapli qo`shma gapning ta'rifi.

Payt ergash gapli qo`shma gapning ta'rifi.

O`rin ergash gapning ta'rifi.

Shart ergash gapning ta'rifi.

Ergash gapli qo`shma gaplar

Birdan ortiq predikativ birliklarning intonasion hamda grammatik jihatdan o`zaro tobelanishi va biri ikkinchisining mazmunini izohlashi natijasida hosil bo`luvchi qo`shma gap turi ergash gapli qo`shma gaplar deb yuritiladi. Ergash gapli qo`shma gap ikki qismdan tashkil topadi: hokim-komponent va tobe komponent. Hokim komponent odatda bosh gapdan iborat bo`ladi. Ergash gapli qo`shma gap komponentlari o`zaro ergashtiruvchi bog`lovchilar nisbiy so`zlar, so`z formalari, tobelanish intonasiyasi kabi sintaksis vositalar yordamida bog`lanadi. Bog`lovchi vositalarning ko`pchiligi, asosan, ergash gap tarkibida kelib, uning tobe ekanligining ko`rsatib turadi. Ergash gap yubosh gapga nisbatan ma'lum bir sintaktik funktsiyani bajaradi. Bosh gapdagi biror bo`lakning ma'nosini ochadi yoki bosh gapning umumiy mazmunini ma'lum bir tomondan izohlaydi, konkretlashtiradi. SHuning uchun ham ergan gaplar fueksiyasi jihatidan bir-biriga yaqin bo`lib, ularning ayrimlariyoyiq gap bo`lakl0ariga va oborotlarga sinonim hisoblanadi.

Ergash gaplarning turlarini belgilashda faqat bog`lovchi vositalarnigina emas, ergash gapning bosh gapga nisbatan qanday funktsiyani bajarishini (u bosh gapga nisbatan qanday bog`lovchi yordamida bog`langan bo`lishidan qat'iy nazar) xisobga olamiz.

Ergash gaplar shaklan hamda mazmun jihatdan tobe hisoblansa-da, unda predikativ xususiyati mavjudligi bilan ma'lum bir mazmunni ifodalay oladi.

Ergash gapli qo`shma gaplardagi har bir komponent mazmunan nisbiy mustaqildir. Ular bosh va ergash gaplardan iborat bo`lishidan qat'iy nazar, bir-biriga umumiy mazmun talabi bilan bog`lanadi. Ergash gap bosh gapga ergashadi, bosh gapni aniqlab, to`ldirib, turadi. Ergash gapli qo`shma gaplarning har ikkisi komponenti o`zida predikativlik munosabatini ifodalagan bo`lishi kerak: ulada gapni tashkil etuvchi asosiy sintaktik markaz – ega va kesim bo`lishi Shart. Lekin shuni aytish kerakki, ba'zan ergash gapli qo`shma gap komponentlarida ega yashiringan bo`lishi ham mumkin:

Birikmali bo`laklar ko`proq sifat va sifatdoshlarga o`xshab, predmetning aktiv av passiv belgisini bildiradi va gapda aniqlovchi, otlashganda esa, to`ldiruvchi, hol funktsiyalarini bajaradi:

1. Ergash gapli qo`shma gaplarda tobe komponent hokim komponent – bosh gapga quyidagi sintaksik vositalar yordamidabirikadi:

O'zbek tilida ergash gapli qo'shma gap qismlarini birlashtirishda bog'lovchi vazifasini bajaruvchi ayrim so'zlar muhim rol o'ynaydi. Bunday so'zlardan biri «demoq» fe'lidir. Bu so'z deb, deguncha, degan kabi formalarda qo'llanib, ergash va bosh gaplarni bir-biriga bog'laydi:

a) maqsad ergash gap+bosh gap:

b) to'ldiruvchi ergash gap+bosh gap

v) payt ergash gap +bosh gap

g) aniqlovchi ergash gap +bosh gap:

B) Fe'ning sifatdosh, ravishdosh, harakt nomishakllari ergash gapni bosh gapga bog'lovchi asosiy grammatik vositalardan hisoblanadi. Fe'ning funksional formalari ergash gapning kesimi ergash gapning kesimi vazifasida keladi.

1. Sifatdosh ning –gan, -r,(ar) affiksini olgan shakllari ergash gaplarning kesimi bo'lib, keladi va egalik, kelishik qo'shimchalari, ko'makchilar bilan birga qo'llanadi:

2. Ravishdosh orqali birlashtirish. Ravishdoshning hamma shakli qo'shma gapda ergash gap kesimi tarkibida kelib, uni bosh gapga bog'laydi.

3. Harakt nomi yordamida ergash gaplar bosh gapga birlashtirilib, ergash gap kesimining tarkibida ko'makchilar ham qo'shib keladi. Harakt nomining -sh) –ish), -v (-uv) formalari «bilan» ko'makchisi yordamida qo'llanib, payt ergash gaplarni bosh gapga bog'laydi:

4. Shart fe'li yordamida birlashtirish.

Fe'ning Shart shakli sodda gapda, ko'pincha, Shart holi funksiyasida keladi.

Qo'shma gapda esa Shart fe'li quyidagi ergash gaplarning kesimi vazifasida keladi:

a) Shart ergash gapning kesimi :b) payt ergash gapning kesimi: v) sabab ergash gapning kesimi:

Shart fe'li ba'zan istak mazmunini bildiruvchi sodda gaplarning kesimi bo'lib keladi va ergash gap sanalmaydi.

Tarkibida nisbiy olmoshlar ishtirok etadigan quyidagi ergash gaplarning kesimi Shart fe'lidan iborat bo'ladi:

g) ega ergash gapning kesimi: d) aniqlovchi ergash gapning kesimi: E) to'ldiruvchi ergash gapning kesimi j) qiyoslash-chog'ishtirish ergash gaplarning kesimi:

a) o'rin ma'nosidagi ergash gaplarning kesimi:

i) payt ergash gaplarning kesimi:

Ergash gaplarni tasnif qilish asos (mezon)lari

Ergash gap ham, xuddi sodda gap kabi, nisbiy tugal fikr bildiradi, o'zida predikativlikni ko'rsatadi va maxsus ohangga ega bo'ladi. Ergash gap eng muhim stilistik kategoriya sifatida, bosh gapdagi biror bo'lakni yoki butun bir bosh gapni izohlaydi, mazmunni to'ldiradi va shu orqali bosh gapga biror tomondan aniqlik kiritadi. Ayniqsa, Biz bilamizki, Odam borki,...tarzida bosh gaplarda struktura uchun juda zarur bo'lgan, lekin uslub tomonidan uni ifodalashga u qadar ehtiyoj sezilmagan bo'laklar tushib qolgan bo'lib, natijada to'liqsiz shakllangan konstuksiyalar vujudga keladi. Bu vaqtda o'sha tushib qolgan bo'lak o'rnida ergash gapdan foydalaniladi, shu bilan gap mazmuni to'ladi:

Ergash gapdan, dastavval, bosh gapdagi ana shu «kemtik» o'rinni to'ldirish, fikrni aniqroq, ochiqroq berish maqsadida foydalaniladi. Har ikki gapda ham bosh gapdagimazmunga

qaraganda , ergash gap orqali muhimroq, voqea-hodisa haqida habar berilgan. Ergash gaplar bosh gapga nisbatan xiyla «mustaqillik» vaziyatga ega. «Lekin bunday ergash gaplar bosh gap uchun xizmat qiladi; undagi biror o`rinni to`ldiradi, ochadi, biror bo`lakni izohlaydi va funksiyasiga ko`ra har doim tobe bo`lib qoladi. Va ergash gap sanaladi».

Bosh va ergash gaplarni ta`riflashda ham mana shu o`rinlar nazarda tutilishi kerak. Mavjud darslikda bosh gapda shunday ta`rif berilgan: «O`ziga mustaqil bo`lib, boshqa gapga ergashmagan gap bosh gap deyiladi».

Chunki shu gap o`zicha mustaqil qo`llanish xususiyatiga ega; fikriy tugallik ham shu gapda ustunroq, vaholanki, bu gap ergash gapdir va u qaydarajada «mustaqillik» holatiga ega bo`lmasin, bosh gap uchun, uning birgina bo`lagi uchun xizmat qiladi. Buni isbotlash uchun har ikki sodda gapni birgina sodda gapga aylantirsak, yulduzlar qa`riga uchirsa» gapi yoyiq, ikkinchi darajali bo`lakka, demak, tobe bo`lakka aylanadi; «shunday bir qanot topsak» gapi esa shaklini o`zgartirmay, bosh gaplik holatini saqlaydi: Yulduzlar qa`riga uchiradigan bir qanot topsam...

Ayrim hollarda ergash gaplarni ajratishda bog`lovchilarga qarash lozim bo`ladi. «Ona bor, shuning uchun baxting barqaror» gapini tahlil eta borib, baxting barqaror gapini ergash gapga kiritib yuborish ham mumkin. Chunki ergashtiruvchi bog`lovchi anu shu gap tarkibidan joy olgan. Darsliklarda ham sabab ergash gap bosh gapga shuning uchun, chunki, shu sababli bog`lovchilari orqali bog`lanadi, deyiladi. Aslida esa ana shulardan ikkitasi tarkibida (shuning uchun, shu sababli) ko`rsatish olmoshlari bo`lib, ko`makchili sabab holi vazifasini bajarayotir. Ergash gap esa ana shu sabab holiga ekvivalent sanaladi, demak, onang bor gapi sabab ergash gapdir.

Demak, bir xil ergash gaplar turini aniqlash uchun bog`lovchi yoki o`rin bosh mezon bo`lmaydi, balki bosh gapdagi ko`rsatish olmoshi asosiy mezon sanaladi.

A: Ergash gap bosh gapga nisbatin undagi ko`rsatish olmoshini izohlash uchun xizmat qiladi. Agar ko`rsatish olmoshi ifodalangan bo`lsa, ergash gap o`sha olmosh bajarishi lozim bo`lgan vazifasida kelib, bosh gapga to`ldiradi, izohlaydi yoki aniqlaydi.

Bosh va ergash gaplarga savollar berish orqali ham ular orasidagi munosabat aniqlanishi mumkin. Savol har ikki gapga berilib, javob ergash gap vositasida yuzaga keladi. Ergash gap umumiylik bildiruvchi hol vazifasini o`taydi.

Biror uslub talabi bilan, logik rg`u yoki predikativlikning o`ziga xos tomonlari tufayli, bosh gapdagi yashiringan bo`lak o`rniga biror so`zni tiklash mumkin. Lekin bu bo`lak ko`rsatish olmoshi orqaligina ifodalanadi va o`rta mavhum ma`no bildiradi.

Bunday hollarda ergash gapning asosiy ma`nosini ochish, uni izohlash bo`lib, unga teng hisoblanadi. Tenglikni isbotlash uchun ana shu ergashgaplarni bosh gapdagi ko`rsatish olmoshi o`rniga olib kirish kifoya (bu vaqtda sodda gap paydo bo`ladi).

Hozirgi zamon o`zbek adabiy tilida ko`rsatish olmoshining, asosan, uch shakli ko`proq qo`llanadi: SHu, u, bu. Lekin bu olmoshlar sintaktik vazifa bajarganda, kelishik qo`shimchalarini olib (shunga, unga, uning) yoki ko`makchilar bilan kelib, shaklan ancha ko`payib ketadi: o`qituvchilik kasbi shu bilan ahamiyatliki, u avvalo, odamning o`zini tarbiyalaydi

Bosh gapdagi ko`rsatish olmoshi qanday vazifa bajarsa, ergash gap ham shu nom bilan yuritiladi. Bunda ergash gapning bog`lovchilari, nisbiy olmoshning formasi hamda savoli, ularning o`rni mutloqo nazarda tutilmaydi, balki gapdagi olmoshning vazifasi asosida ergash gap tasnif etiladi; ergash gapning turi aniqlanadi. Agar olmosh bosh gapda ega vazifasi qo`llansa, ergash gap ega ergash gap sanaladi:.

2. Bosh gapdagi olmosh kesim vazifasida kelsa, ergash gap ham kesim ergash gap sanaladi:
3. To`ldiruvchi ergash gap: 4. Aniqlovchi ergash gap :

5. Hol ergash gaplar:

Demak, birinchi tip ergash gaplarni guruhlash va tasnif etish uchun bosh gapdagi ko`rsatish olmoshi asos bo`ladi. Qolgan bog`lovchi vositalar esa bosh va gergash gaplarni o`zaro bog`lashdar tashqari, gapning umumiy mazmuniga qo`shimcha ma`no ottenkalarini qo`shadi.

Ergash gaplarning ikkichi bir tipi butun bir bosh gapga qarashli bo`ladi: bosh gapdagi fikrni mazmuninni ochadi; undagi harakat yo`holat belgisini bildiradi. Bunday konstuksiylar azalda ikki sodda gapdan , (bog`lovchisiz yo bog`langan qo`shma gap ko`rinishidan) yuzaga kelgan. Bu vaqtda qo`shma gap tarkibidagi sodda gaplardan biribiror ergashtiruvchi bog`lovchi yoki fe`l formalari yordamida bosh gapga bog`lanadi va ergash gap shaklida turib, bosh gapning belgisining ko`rsatish uchun xizmat qiladi (xuddi ikkinchi darajali bo`laklar kabi). Ergash gap o`zi tugal fikr-xukm bildiradi, predikativlik va intonasion tugallikka ham ega bo`ladi. Ayni bir vaqtda qo`shimcha stilistik vazifa bajaradi: bosh gapda etishmagan , lekin mazmun va uslub talabiga ko`ra juda zarur bo`lgan ikkinchi darajali bo`lak o`rnida qo`llanadi, uning o`rnini qoplpaydi, o`sha bo`lakning vazifasini bajaradi:

Agar ikkinchi gap uchun biror payt holi zarur bo`lib qolsa, xuddi shu funksiyani birinchi gap bajaradi. Kesa bir etak yulduzni to`kdi koinot, deyish o`rniga Odam odamlikni egallab olgach, bir etak yulduzni to`kdi koinot, tarzidagi strukturadan foydalaniladi. Demak, payt mazmunini so`z yoki so`z brikmasidan tashqari, butun bir gap vositasida ham berish mumkin. Gapdagi istalgan ikinchi darajali bo`lak (hol) o`rnida bir butun gaplardan foydalansa bo`ladi. Bunday hollar ergash gap nomi bilan yuritiladi. Hol ergash gaplar birinchi tipdagi ergash gaplarga shu tomondan o`xshash bo`ladiki, mazkur konchtuksiylalarda ham bosh gap to`liqsiz shakllanib, biror ikkinchi darajali bo`lakka ehtiyoj seziladi. O`sha bo`lak ifodalanmasa, mazmun ma`lum bir tommondan «kemtik» bo`ladi. Ifoda uchun juda zarur bo`lag hol o`rnida bir butun (yaxlit) sodda gap olinadi. So`zlovchining niyatiga qarab, sodda gap ergash gapning u yoki bu turi o`rnida qo`llanadi:

Agar bosh gapdagi ish -harakat boshqa bir narsaga o`xshatilsa, o`xshatish ergash gapdan, bosh gapdagi ish-harakatning qay tarzda bajarilganligini qayd etish zarur bo`lsa, ravish ergash gapdan (Arafa kechasi quvonchlar chulg`ab, minutlar sanayman, yurak talpinib g`g`.).

Bosh gapga taalluqli bo`lgan ergash gaplar birinchi tip konstruksiyalardan shu bilan farq qiladiki, bular yolg`iz bir bo`lak bilan bog`liq bo`lmagani uchun, har ikki gapdan bir sodda gapni olib bo`lmaydi: ergash gap yoyiq gap bo`lagiga aylanmaydi. Bunday gaplar, odatda, bog`langan qo`shma gaplarga yaqinlashadi: zarur topilsa, ulardan bog`langan qo`shma gaplarga sinonim bo`lgan konstruksiyalar hosil etish mumkin:

Bog`langan va ergash gapli qo`shma gaplar orasidagi bunday sinonimik holatni aniqlash stilistika uchun, ayniqsa zarur: bular so`zlovchining uslub madaniyatini yaxshilaydi, boyitadi.

Bosh gapga taalluqli bo`lgan ergash gaplarning turini va savolini aniqlashda bog`lovchilar etakchi o`lchov bo`lib qoladi. Masalan, go`yo bog`lovchisi, asosan, o`xshatish ergash gapni bosh gapga bog`laydi. (kabi, singari, -day, -dek, xuddi bog`lovchilari g o` yo ning sinonimlari sanaladi).

Ana shunday ko`p ma`noli hamda vazifali bog`lovchi vositalardan biri ch-sa formasidir. Kuzatilgan va to`plangan faktlar shuni tasdiqlaydiki, bu forma xatto bog`langan qo`shma gap qismlari orasida qo`llanib, qiyoslash mazmunini ifodalash uchun xizmat qiladi: Vatanimiz bir osmon bo`lsa, Biz uni bezagan yulduzlarimiz.

-sa payt ergash gaplarda ham keladi (to`g`ri bunday gaplarda va ergash tarkibida payt bildiruvchi so`z-bo`lak ham bo`ladi):

To`siqsiz ergash gaplar ham ba`zan bosh gapga birgina – sa orqali bog`lanadi: So`zlaguvchi nodon bo`lsa, tinglaguvchi dono bo`lsin.

Demak, ayrim hollarda bosh va ergash gaplar nisbatni ochishda forma va mazmun birligini e'tiborga olish zarur bo'ladi. Mana shu nuqtai nazardan qaraganda, tilimizda bir turli konstruksiyalar uchraydiki, uni u yoki bu ergash tipiga kiritib yuborishdan oldin jiddiy mulohaza qilishga to'g'ri keladi.

O'zbek tili qo'shma gap sintaksisi bilan shug'ullanuvchi olimlar oldida, demak, ana shunday murakkab nuqtalar bo'yicha o'qituvchi va talabalarga amaliy yordam berish vazifasi turadi. Buni to'g'ri hal etish uchun punktuasiya uchun ham zarur.

Ergash gap bosh gapni yoki uning biror bo'lagini izohlaydi va , eng avval, stilistik kategoriya sifatida, bir umumiy fikrning biror tomonidan tafsilotini chizish uchun xizmat qiladi.

1. Ergash gap bilan bosh gap yahlit olinadi va shundagina ular orasidagi mazmun hamda grammatik munosabat to'g'ri aniqlanadi.

Ergash gaplarning bog'lovchilari o'z sinonimik qatorlariga ega bo'lib ular yordamida xilma-xil ekspressiv va modallik ma'nolarini ham ifodalash imkoni yuzaga keladi. Mana shu zaruriyatdan yuqoridagi bir ergash gapning bog'lovchisini o'rni bilan boshqa ergash gap uchun, uni bosh gapga bog'lash uchun ham xizmat qilish mumkin. Bu vaqtda gaplarni tasnif qilish bosh va ergash gap sirasidagi mazmuniy munosabatni to'g'ri tayin etish asosida bo'ladi.

Demak, ayrim bog'lovchilar bir necha ergash gap tarkibida kela oladi. Bunday xolda bosh va ergash gaplarning o'zaro mazmuniy munosabati nazarda tutiladi.

2. Ergash gap bosh gapning tarkibidagi ko'rsatish olmoshiga taalluqli bo'lsa, uning turini aniqlashda ana shu olmoshning sintaktik vazifasi asos-e'tiborga olinadi. Ergash gap butun bir bosh gapga, undagi fikrni ish-xarakat belgisini biror tomondan ko'rsatsa, ko'proq ergashtiruvchi bog'lovchilarga qarab, ergash gap turi aniqlanadi.

3. Bosh va ergash gaplar tasnifida har ikki qism orasidagi forma va mazmun birligiga amal qilinadi. SHunga ko'rab hozirgi zamon o'zbek tilida ergash gaplarni 14 xilga bo'lib o'rganiladi.

- 1) Ega ergash gap.
- 2) Kesim ergash gap.
- 3) To'ldiruvchi ergash gap.
- 4) Aniqlovchi ergash gap.
- 5) Ravish ergash gap.
- 6) Daraja- miqdor ergash gap.
- 7) Chog'ishtirish –o'xshatish ergash gap.
- 8) Sabab ergash gap.
- 9) Maqsad ergash gap.
- 10) Payt ergash gap.
- 11) O'rin ergash gap.
- 12) Shart ergash gap.
- 13) To'siqsiz ergash gap.
- 14) Natija ergash gap.

Ega ergash gapli qo'shma gap

I. Bosh gapda olmosh bilan ifodalangan eganing yoki qo'llanilmagan eganing mazmunini izohlab, to'ldirib, konkretlashtirib keladigan ergash gap ega ergash gap deyiladi.

II. Ega ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gap sostavida uning egasi sifatida kim, kimda-kim, har-kim, har kimki, nima, nimaiki, nimaki, qaysi, qaysi kishi, shunisi, shunarsa kabi nisbiy so'zlar; bosh gap sostavida, uni egasi sifatida –o'sha, shu, o'zi, o'sha narsa, hamma, hammasi, barcha, barchasi kabi nisbiy so'zlar bir-biriga muvofiqlashib qo'llaniladi:

III. Ega ergash gap bosh gapga quyidagi vositalar (ergashtiruvchi vositalar) bilan tutashadi:

1. Fe'ning Shart mayli formasi – sa elementi bilan:
2. -r-arqekan, - masqekan shakl orqali. Bunda ergash gaging kesimi sifatdoshning -r ar, -mas shakliqekan yordamida yasalgan formada kelib, bosh gapga bog`lanadi va bosh gapdagi olmosh egani izohlaydi:
3. -ki orqali. Bunda -ki bosh gapning kesimi bilan shakllanadi.
4. -mi. Ega ergash gap bosh gapga so`roq yuklamasi – mi orqali birikadi. Bosh gap so`roq gap tarzida shakllangan bo`lsa ham, ergash gapdagi voqeani eslatish, yodga tushirish mazmunini bildiradi:
5. – ku. Bu yuklama bilan birikkan qo`shma gaplarda bosh gap mazmunan kirish gapga yaqin bo`ladi:

Ega ergash gaplar bosh gap bilan qaysi grammatik vositalar orqali bog`lanishga qarab, turlicha o`rinlashadi. Fe'ning Shart mayli (-sa), sifatdoshning to`liqsiz fe'l bilan birikishidan hosil bo`lgan formalari (-r,-arqekan, -masqekan) orqali birikkanda, biriktiruvchi vositalar ergash gap tarkibida bo`ladi. Ergash gap bosh gapga -ki, -mi, -ku bog`lovchilari orqali brikkanda, ergash gap ikkinchi, bosh gapga birinchi o`rinda keladi. Tutashtiruvchi vositalar bosh gapga tarkibida bo`ladi.

Kesim ergash gapli qo`shma gap

I. Bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan kesimning mazmuni izohlab, konkretlashtirib keluvchi, ergash gaplar kesim ergash deyiladi.

II. .Kesim ergash gapli qo`shma gaplarda bosh gap tarkibida – kesim funksiyasida shuki, shu erdaki, shundaki, shundan iboratki, shu bo`ldiki, shu ediki, shu midiki, kimsanki, nimasanki kabi so`zlar qo`llaniladi va ularning mazmuni ergash gap tomonidan konkretlashtiriladi.:

III. Kesim ergash gap, asosan, -ki bog`lovchisi bilan bosh gapga birikadi. –Ki bosh gap tarkibida,

To`ldiruvchi ergash gapli qo`shma gap

Bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan to`ldiruvchini yoki qo`llanilmagan to`ldiruvchining mazmunini izohlab, konkretlashtirib keluvchi gaplar to`ldiruvchi ergash gap deyiladi.

To`ldiruvchi ergash gapli qo`shma gaplarda nisbiy so`zlarning qo`llanilishida o`ziga xoslik bor.

Bosh gap birinchi o`rinda kelganda, uning tarkibida shuni, shu narsani, bir narsani, shunga, shu narsaga kabi olmoshlar qo`llaniladi va bu izohlanadi: Bu olmoshlar ergash komponentda biror formada tokrorlanib qo`llanmaydi:

Ergash komponent birinchi o`rinda kelganda, ergash gap tarkibida nimaga, kimni, nimani, kimga, nima, nimani, kim bilan, nima bilan bosh gap tarkibida uni, shuni, o`shani, hammasini, barchasini, barini, o`sha bilan, shu bilan, u bilan kabi nisbiy so`zlar bir-biriga muvofiqlashib keladi.

To`ldiruvchi ergash gaplarni ana shu izohlanishi kerak bo`lgan nisbiy so`zlarning (ob`ektinning) xususiyatiga ko`ra ikkiga ajratish mumkin. Bosh gapdagi vositasiz to`ldiruvchini izohlaydigan ergash gap bosh gapdagi vositali to`ldiruvchini izohlaydigan ergash gap.

Vositasiz to`ldiruvchisi izohlanayotgan qo`shma gaplarda bosh gapning kesimi o`timli fe'lar orqali ifodalanadi:

1) Ko`p hollarda ergash gap tomonidan izohlanishi kerak bo`lgan bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan to`ldiruvchi qo`llanmaydi – «tushib qoladi». Biroq qo`llanilmagan bu ob`ekt

uning vositali yoki vositasiz to'ldiruvchi ekanligi, boshqaruvchi bo'lak – kesimdan anglashilib turadi. Ergash gaplar mana shu ifodalanmagan –elipsisga uchragan bo'lakning funksiyasini ham konkretlashtiradi – o'rnini qoplaydi (kompensasiya qiladi).

–sa:

Ergash gap –ki, -ku, -mi,-chi yordamchilari orqali bosh gapga biriksa, bosh gap birinchi (bog'lovchi vositalar bosh gap tarkibida), ergash gap ikkinchi; -sa, deb yordamchilari bilan biriksa, ergash gap birinchi (bog'lovchi vositalar ergash gap tarkibida) , bosh gap ikkinchi o'rinda keladi.

Ba'zan bosh gap har xil sabab bilan ergash gapning o'rtasiga tushib qoladi. Bunda bosh gap kirish gap xarakteriga ega bo'ladi.

Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap

I. Bosh gapdagi olmosh bilan, ifodalangan aniqlovchini yoki qo'llanmagan aniqlovchini izohlab, to'ldirib keluvchi, oydinlashtiruvchi ergash gaplar aniqlovchi ergash gap deyiladi.

II. osh gap birinchi o'rinda kelganda, uning aniqlovchisi sifatida shunday, ba'zi, bir xil, ayrim, bir, ba'zi bir, hech bir, shunday bir kabi nisbiy olmoshlari qo'llaniladi va bular ergash gap tomonidan konkretlashtiriladi.

III. Aniqlovchi ergash gap bosh gapga quyidagi vositalar bilan birikadi:

1. –ki: Shunday odam haqida habar keltirdimki, uning har bir so'zi gavhardir. (O.)

2. –sa,:Kimning ko'ngli to'g'ri bo'lsa, uning yo'li ham to'g'ri bo'ladi. (Maqol)

Ergash gap –ki yordamida bosh gap bilan biriksa, bosh gap birinchi, ergash gap ikkinchi o'rinda keladi va bog'lovchi bosh gap tarkibida bo'ladi. Agar ergash gap –sa elementi bilan bosh gap biriksa, ergash gap birinchi, bosh gap ikkinchi o'rinda keladi, bog'lovchi ergash gapni kesimi tarkibida bo'ladi.

IV. Bu shunday ajib diyorki, uning zo'r ko'zgusi oydir. (H.O.)

1) Ikki gapdan tuzilgan.

2) Birinchisi bosh gap, ikkinchisi ergash gap.

3) Ikkinchi komponentdagi aniqlovchi (shunday olmoshni) izohlagan – aniqlovchi ergash gap.

4) Komponentlar –ki bog'lovchisi orqali birikkan; bosh gap birinchi, ergash gap ikkinchi o'rinda, bog'lovchi bosh gap tarkibida.

5) Chizmasi:

Ravish ergash gapli qo'shma gap

1. Bosh gapdagi ish-harakatning yoki voqelikning qay tarzda, qanday vaziyatda yuz berishini anglatadigan ergash gap ravish ergash gap deyiladi. Masalan:

II. Ravish ergash gap bosh gapga ravishdoshning quyidagi shakllari bilan tutshadi:

1. –b, (-b): qorni ochib, kuchi qochib, keladi bo'ri.

2. Ravish ergash gap ko'pincha bosh gapdan oldin keladi, bog'lovchi vosita ravish ergash gap tarkibida bo'ladi. Bosh gap ergash gapning kesimi bilan aloqaga kirishadi. Ba'zan turli xil sabablar natijasida bosh gapdan keyin yoki uning o'rtasida ham keladi:

III. Ravishdosh oborot grammatik shakllanishi, intonasiyadagi nisbiy mustaqilligi eihatidan ravish ergash gaplarga o'xshaydi. Biroq ravishdosh oborot o'zining mustaqil ega va kesimiga ega emasligi ya'ni predikativ qo'shilma emasligi bilan ravish ergash gapdan farqlanib turadi

1. Ucha sodda gapdan tuzilgan .

2. Birinchi va ikkinchi gaplar ravish ergash gap bo'lib, bosh gapning o'rtasida kelgan..

3. Kesimlari –ib formali ravishdosh bilan shakllanib, bosh gapga bog'langan.

Sabab ergash gapli qo'shma gap

1. Bosh gapdagi voqea hodisa yoki harakatning yuzaga kelish sabablarini anglatadigan ergash gap sabab ergash gap deyiladi.

A) kesim formasi orqali bosh gapga bog'lanadigan ergash gaplar;

B) bog'lovchilar orqali bosh gapga bog'lanadigan ergash gaplar.

II. Kesim formasi orqali bosh gapga bog'lanadigan sabab ergash gaplar bosh gapga quyidagi vositalar bilan birikadi:

Bevosita kesim yoki uning formasi orqali emas, bog'lovchilar orqali bosh gapga birikadigan sabab ergash gaplarning bosh gapga quyidagi vositalar biriktiradi;

1. Chunki:

2. Negaki:

3. Sababki : 4. SHuning uchun, shu sababli, shu boisdan, shu vajdan :

5. -ki: Sabab ergash gap bosh gapga -gach, -ganidan, -ganligidan, -may, -masdan formalari, uchun, deb, sababli, tufayli ko'makchilar, -mi, shekilli, chog'i kabi modal so'z va yuklamalar bilan biriksa, birinchi o'rinda , bosh gap ikkinchi o'rinda keladi; biriktiruvchi formalar ergash gapning kesimi tarkibida bo'ladi.

B) Sabab ergash gap bosh gapga chunki, negaki, sababki bog'lovchilari bilan biriksa, bosh gap birinchi, ergash gap ikkinchi o'rinda bo'ladi, bog'lovchilar ergash gaplarni boshida qo'llaniladi.

V) Sabab ergash gap bosh gapga shuning uchun, shu sababli, shu boisdan, shu vajdan, shu sababdan bog'lovchilari bilan biriksa, ergash gap birinchi o'rinda, bosh gap ikkinchi o'rinda keladi, bog'lovchilar bosh gap tarkibida qo'llaniladi.

G) -ki bog'lovchisi orqali bosh gapga bog'langan sabab ergash gaplar bosh komponent oldin ham, keyin ham keladi, ham ergash gap, ham bosh gap tarkibida qo'llaniladi. qiyoslaylik:

D) Agar bosh gapdagi ega tarkibiga ahamiyat berib aytilsa, shu qism ergash gapdan oldin qo'llaniladi:

Payt ergash gapli qo'shma gap

I. Bosh gapdagi voqea-xodisa yoki harakatning yuzaga kelishi vaqtini bajarilish paytini anglatadigan ergash gap payt ergash gap deyiladi. Payt ergash gapli qo'shma gapda voqea-xodisa yoki harakatning bir vaqtda yoki ketma-ket sodir bo'lishi ifodalanadi:

II. Ergash gap bosh gapga quyidagi vositalar bilan birikadi:

Tong yorisha boshlagan paytda, birdan zil-zila sodir bo'lgan edi. -ganda, -ganqvaqtda (paytda, chog'da...) kabi formalar bilan birikkan ergash gaplarni komponentlardagi voqelik bir vaqtda yuz beradi.

3. -ganqamon(on, hamon,zahoti kabilar) bilan birikkan payt ergash gaplarda komponentlardagi voqelik tez almashganligi anglashiladi:

Ko'cha eshik bo'sag'asida Otash –dukchi paydo bo'lgan on, qizlar uchun avzoyi buzuqligini payqab, darrov uy-uylariga tarqalishdi.

4. -gan qdanqkeyin (so'ng). Bu formalar orqali birikan payt ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gapdagi voqelik bosh gapdagi voqelikdan oldin yuzaga kelgan bo'ladi:

5. -gandan beri (buyon, boshlab) formalari orqali bosh gapga birikkan ergash gaplar harakatning boshlanish paytini, qachondan beri davom etayotganini anglatadi:

6. –guncha, -gan (-gun) qga dovur (qadar) formalari bilan bosh gapga birikkan ergash gapli qo`shma gaplarda bosh gapdagi harakat boshlanishidan oldin yuzaga kelganligi ifodalanadi.

7. –gan edi, -gan ham ediki, -gan ediki, -ganicha yo`q ediki, -ganicha ham yo`q formalari bilan bosh gapga birikadigan ergash gapli qo`shma gaplarda voqelarning odatigidan tez yuzaga kelganligi, biridan ikkinchisiga tez ko`chishi kabi mazmun ifodalanadi:

8. -r (-ar) qekan (kan). Bu forma bilan birikkan qo`shma gaplarda ergash gap va bosh gapning mazmuni bir vaqtda yuzaga keladi:

9. –sa. Bog`lovchi orqali birikkan ergash gap ham payt, ham Shart ma`nosini ifodalashi mumkin. : Agar payt ma`nosi ifodalansa, erga o` gap mazmuni bosh gapning mazmuni bilan bir vaqtda yuzaga kelgan bo`ladi; Bir vaqtning o`zida ham payt , ham Shart mazmunini ifodalanganda, ergash gapdagi harakat bosh gapdagi harakattan oldin yuzaga keladi; payt mazmunini ifodalagan ergash gaplardagina -sa o`rnida -ganda, -gan vaqtda kabi formalarni qo`llash mumkin bo`ladi:

10. –may, -masdan, -masdan burun (avval, oldin, ilgari). Bu formalar bilan birikkan qo`shmagaplarda bosh gapdagi voqea ergash gapdagi voqeadan oldin yuzaga kelgan bo`ladi:

11. –r (-ar) –mas. Kelasi zamon sifatdoshining bo`lishli va bo`lishsiz formasi (juftlashib) orqali bog`langan bunday qo`shma gaplarda ergash gapdagi harakat to`la bajarilib bo`lmasdan, bosh gapdagi harakat boshlanadi:

12. –b (-ib), -gach: yanvarp oyi boshlanib sovuq tushdi. Ular supaga o`tirishgach, suhbat o`z-o`zidan boshlanib ketdi.

O`rin ergash gapli qo`shma gap

Bosh gapdagi harakatning yuzaga kelish, boshlanish, yo`nalish o`rnini, makonini anglatadigan ergash gap o`rin ergash gap deyiladi

I. O`rin ergash gapli qo`shma gapning o`ziga hos xususiyatlaridan biri shuki, ergash gap tarkibida qaerda, (qayda), qay tomonda, qay tarafda; qaerga (qayga), qayoqqa, qaysi tomondan, qay tarafdan, bosh gap tarkibida ko`pincha shularga mos holga shunda, u erda, o`sha erda, o`sha tomonga, o`sha tarafga; shu (u, o`sha) erdan, shu yoqdan, shu tarafdan, shu tomondan kabi so`zlar qo`llaniladi.

Bosh gap tarkibida qo`llanilgan mavhum ma`noli so`zlar ergash gap tomonidan konkretlashtiriladi. Mana shu nisbiy so`zlar mavjud konstruksiyaning o`rni ergash gap sifatida shakllanishda asos bo`lib xizmat qiladi. Nisbiy so`zlar qo`llanilmas ekan, o`rin ergash gap, boshqa sintaktik konstruksiyaga, masalan, Shart ergash gapga aylanadi.

qiyoslaylik:

Qaerda intizom yaxshi bo`lsa, u erda o`qish sifati ham yaxshi bo`ladi. – Intizom yaxshi bo`lsa, o`qish sifati yaxshi bo`ladi.

O`rin ergash gapning mazmuni bosh gapdagi ma`nosi izohlanayotgan ravishga qarab hukm etiladi: agar ravishlar o`rin kelishigida bo`lsa, harakat, xususiyatning o`rni; jo`nalish kelishigida bo`lsa, harakatning yo`nalish o`rni; chiqish kelishigida bo`lsa, harakat yoki belgining boshlanish o`rni anglashiladi: qiyoslang: qaerda jamoa ahil bo`lsa, u erda mehnat unumdor bo`ladi. – qaerda jamoa ahil bo`lsa, u erda hech kim ketgisi kelmaydi. – qaerda jamoa axl bo`lsa, u erga hamma intiladi.

Ba`zan ergash gap bosh gapdagi ega vazifasida qo`llanilgano`rin ko`rsatuvchi so`zning ma`nosini izohlaydi. Biroq bunday ergsha gaplar o`rin ergsha gap emas, aniqlovchi ergash gap sanaladi:

O`rin ergash gap bo`lish uchun ergash gap bosh gapdagi o`ringa munosabat ko`rsatuvchi o`rin kelishiklarining biror bir shakli qo`llanilgan bo`lishi kerak. Biroq ba`o`i

stilistik talab bilan nisbiy olmosh – o`rin ravish bosh gap tarkibida qo`llanilmasligi umumiy holatdan, ergash gap tarkibidagi nisbiy so`zdan anglashilib turadi:

Shart ergash gapli qo`shma gap

O`g`it solinsa, er unumdor bo`ladi. Gapida bosh gapdagi mazmun voqelikning yuzaga kelishi, kelmaslikka asoslangan.

Shart erga gaplar uch zamonda real ravishda yuzaga keladigan harakatning yoki tahmin qilingan voqelikni ifodalaydi. SHunga ko`ra, Shart ergash gaplar ikki turga ajratiladi: 1) real – voqea-hodisani ifodalaydigan Shart ergash gaplar; 2) mo`ljallangan, tahmin qilingan (irreal) voqea-hodisani ifodalovchi Shart ergash gaplar.

Shart erga gaplar real voqeani ifodalaganda, ergash gapdagi Shart («A») bosh gapdagi natija («B») ni keltirib chiqaradi, agar ergash gapdagi «A» bo`lmasa, bosh gapdagi «B» ham bo`lmaydi: Agar erga o`g`it solinsa, hosil mo`l bo`ladi. – «A» bo`lsa, «B» bo`ladi. Erga o`g`it solinmasa, hosil mo`l bo`lmaydi. «A» bo`lmasa, «B» bo`lmaydi.

Ergash gapdagi Shart irreal voqea ifodalanganda, ergash gapdagi voqeaning yuzaga kelmaganligini, uning faqatgina mo`ljallanganligini tahmin qilganligini anglatadi:

Qalandarov bir oz sabr qilsa, ortiqcha so`zga o`rin ham qolmas edi. (A.q.)

Shart ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalar:

1. –sa (Shart mayli qo`shimchasi) yordamida:
2. –saqchi,
3. Bo`lmasa, yo`qsa:

–saqedi:–ganqda (-ganqdaqedi). Bu forma bilan shakllangan ergash gaplar shaklan payt ergash gaplarga o`xshasa-da, mazmunan Shart ergash gapdir. Bosh gapdagi fe`l kesimning zamoni (tugallanmagan o`tgan zamon)uning Shart ergash gapekanligini ko`rsatib turadi. Ergash gapning tarkibida agar, mabodo, bordi-yu kabi so`zlar kelganda, Shart ma`nosini ham yanada aniq ko`rinadi: –r (-r) q ekan, -gan q ekan, emas q ekan, -moqchi ekan: –mi:– –ki. Bu forma bilan birikkan qo`shma gapda ahd qilish, qasam ichish, va`da berish ma`nolari ifodalanadi: –may:– –gan q dan q keyin: qo`l kalta bo`lgandan keyin, qayoqqa uzatasan.

Shart ergash gap ehtimol, ajab emas, mayli, balli, qani (endi), bas, bo`ldi, bo`lgani kabi so`z-gaplarni io`zohlab keladi:

Ba`zan bosh gap pozitsiyasidagi bas, bo`ldi kabi so`zlardan so`ng shu so`zlarni izohlovchi to`liq ikki sostavli gap keltiriladi:

Bosh gap –sa, -sa q edi, -sa q chi, -gan q da (edi), -r (-or) ekan, -gan q dan q keyin, bo`lmasa, yo`qsa, -mi, -sa q bormi, -may kabi yordamchilar orqali birikkan Shart ergash gap, ko`pincha, bosh gapdan oldin, biriktiruvchi, formalar ergash gap tarkibida, -ki bilan birikkan ergash gap bosh gapdan keyin, -ki bosh gap tarkibida qo`llaniladi.

Mavzu bo`yicha nazorat savollari:

1. Ergash gapli qo`shma gaplarning asosiy belgilarini aniqlang.
2. Ergash va bosh gapning farqlari qanday?
3. Ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalarga qaysilar kiradi?
4. Ergash gapli qo`shma gaplarda qanday munosabat yuzaga chiqadi?
5. Ergash gapli qo`shma gaplarda fe`l vazifadoshlarining o`rni haqida gapiring.
6. Ergash gapli qo`shma gaplarda fe`l mayllari va bog`lovchi vazifasidagi ayrim so`zlar ham ishtirok etadimi?.
7. Ergash gaplarning asosiy belgilari nimalardan iborat?
8. Bosh gapga ta`rif bering.
9. Ergash gapli qo`shma gapga ko`makchilar qanday vazifa bajaradi?
10. Fe`l mayllari qatnashgan ergash gapli qo`shma gap tuzing.

11. Ergash gaplarning tasnif etish asoslari nimadan iborat.
12. Ergash gaplarni ajratishning grammatik asosi deganda nimani tushunasiz?
13. Semantik prinsip haqida gapiring.
14. Ergash gaplarni aeratishning stilistik (uslubiy) asoslariga nimalar kiradi?
15. Bosh gap tarkibidagi biror bo`lakni izohlovchi ergash gaplar haqida nimalarni bilasiz?
16. Bosh gap mazmuniga ma'lumot ifodalaydigan ergash gaplar haqida-chi?
17. Hol ergash gaplarning ko`rinishlarini sanab bering.
18. Ergash gaplar umuman necha turga bo`lib o`rganiladi.
19. Ergash gaplarni ajratishda ososiy omil bo`lib nima xizmat qiladi?
20. Ergash gapli qo`shma gaplarni tahlil etish tartibi qanday amalga oshiriladi?
21. Ergash gapning qanday turi ega ergash gap hisoblanadi?
22. Ergash gapni bosh gapga birlashtiruvchi vositalarga nimalar kiradi?
23. Ega ergash gap qanday o`rinlashadi?
24. Ega ergash gap tahlilida nimalar asosga oladi?
25. Kesim ergash gapga ta'rif bering.
26. Kesim ergash gapli qo`shma gaplarda bosh gap tarkibida qanday so`zlar izohlanib kelishi mumkin?
27. Kesim ergash gap qaysi so`roqlarga javob bo`ladi?
28. Kesim ergash gapni bosh gapga bog`lovchi vositalar qaysilar?
29. Kesim ergash gaplar bosh gapga nisbatan qanday joylashadi?
30. Kesim ergash gapli qo`shma gapga misol keltiring.
31. Aniqlovchi ergash gapning ta'rifini ayting
32. Aniqlovchi ergash gapli qo`shma gapni shakllantiruvchi vositalar qaysilar.
33. Ergash gapni joylashish tartibi qanaqa?
34. Bosh gapning o`rnini misollar yordamida tushuntiring.
35. Aniqlovchi ergash gapli qo`shma gaplarda grammatik vositalar o`rni qanday?
36. Ravish ergash gapga ta'rif bering.
37. Ravish ergash gap bosh gapga qanday grammatik vositalar yordamida birlashtiradi?
38. Ravish ergash gapning ravishdosh oborotdan farqi nimada?
39. Ravish ergash gap qanday o`rinlashadi?
40. Ravish ergash gapli qo`shma gapning sinonimi bormi?
41. Ergash gapga qanday ta'rif beriladi?
42. Ravish ergash gapni bosh gapga tobelantiruvchi grammatik vositalarga misollar bering.
43. Ergash gapning bu turida nisbiy so`zlar qanday rol o`ynaydi?
44. Ergash gapning o`rni haqida nimalarni bilasiz?
45. Ravish ergash gapli qo`shma gapga ikkita misol toping?
46. Sabab ergash gapning ta'rifini ayting.
47. Sabab ergash gapni bosh gapga birlashtiruvchi vositalarni sanab ko`rsating.
48. Maqsad ergash gap qanday belgilarga ega bo`ladi?
49. Maqsad ergash gapda bog`lovchi vazifasini qanday vositalar bajaradi?
50. Sabab va maqsad ergash gaplarning o`rinlashuvini misollar yordamida tushuntiring.
51. Ergash gapning qaysi turi payt ergash gap deyiladi.
52. Payt ergash gap bosh gapga qanday vositalar yordamida bog`lanadi.?
53. Payt ergash gap qanday so`roqlarga javob bo`ladi?
54. Payt ergash gapli qo`shma gap qaysi qo`shma gapga sinonim bo`ladi?
55. Buni misollar yordamida tushuntirib bering.
- 56. Shart ergash gap qanday mazmunni anglatish uchun xizmat qiladi?**
57. Bu turdagi ergash gapning kesimi qanday shaklga ega bo`ladi?
58. Shart ergash gap qaysi bog`lovchilar yordamida bosh gapga bog`lanishi mumkin?
59. Ergash gapning bu ko`rinishi nutqda qanday o`rinda joylashadi? Misollar yordamida izohlang.
60. Shart ergash gapli qo`shma gaplarga maqollardan iborat bo`lgan misollar keltiring.

Tayanch soʻz va iboralar:

1. Ergash gapli qoʻshma gap.
2. Hokim qism bosh gap, tobe qism ergash gap.
3. Ergashtiruvchi bogʻlovchilar.
4. Feʼning sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi shakllari.
5. Buyruq Shart mayillari.
6. Tobe va hokim komponent. Ergash gap, bosh gap.
7. Ergash gapni shakllantiruvchi – bosh gapga tobelantiruvchi vositalar: ergashtiruvchi bogʻlovchilar, yuklamalar, feʼning funksional shakllari, feʼl mayllari, bogʻlovchi vazifasidagi soʻzlar.
8. Gap boʻlagiga izoh yoki boʻlak izohini bildiruvchi ergash gaplar.
9. Bosh gapga umumiy izoh boʻladigan ergash gaplar.
10. Ergash gaplarni ajratish asos – prinsiplari.
11. Ergash gaplarni turlari.
12. Ergash gaplarni oʻrni .
13. Kesim ergash gap tarkibi.
14. Ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vosita.
15. Ot kesimning izohlanishi.
16. Kesim ergash gapning oʻrni.
17. Ravish ergash gapli qoʻshma gap.
18. Ravish ergash gapning grammatik belgisi. (bogʻlovchi vositalar.)
19. Ravish ergash gapning oʻrni.
20. Oʻlchov-daraja (daraja-miqdor)ergash gap.
21. Miqdor maʼnosini bildiruvchi nisbiy olmoshlar.
22. Feʼning Shart mayli-ergash gap kesimi.
23. Oʻlchov-daraja ergash gapning oʻrni masalasi.
24. Sabab ergash gap – sabab mazmun.
25. Bosh gap –natija mazmun.
26. Sabab bogʻlovchilari, ularning sinonimlari.
27. Ergash gapli qoʻshmagap tahlili.
28. Ega ergash gapning asosiy belgilari nimalardan iborat?
29. Ega ergash gapli qoʻshma gaplarda ergash va bosh gap tarkibida koʻproq qaysi soʻzlar qoʻllanadi?
30. Ega ergash gapni bosh gapga bogʻlovchi vositalarga misollar keltiring.
31. Ega ergash gapli qoʻshma gaplarda bosh gap tarkibidagi ega qanday soʻzlar bilan ifoda etiladi?
32. Ega ergash gap bosh gapga nisbatan qanday joylashishi mumkin.
33. Ega ergash gapli qoʻshma gaplar koʻproq qaysi uslubga tegishli boʻladi?
34. Aniqlovchi ergash gap.
35. Boʻlak izohni bildiruvchi ergash gap.
36. Aniqlovchi yuklamasi.
37. Nisbiy olmoshlar.
38. Payt ergash gap.
39. Payt maʼnosini bildiruvchi nisbiy olmoshlar.
40. Feʼning ravishdosh sifatdosh shakllari.
41. Payt ergash gap tahlil qilish tartibi.
42. Ergash gapning qanday turi oʻrin mazmunini ifodalashga xizmat qiladi?
43. Oʻrin maʼnosini bildirgan nisbiy olmoshlarga qaysi soʻzlarni kiritish mumkin?
44. Oʻrin ergash gapning kesimi qanday ifodalanadi?

45. O`rin ergash gap tahlilida nimalarga e`tibor beriladi?
46. O`rin ergash gapli qo`shma gaplarga maqollardan misol keltiring.
47. O`rin ergash gapli qo`shma gap.
48. O`rin ma`nlsidagi nisbiy olmoshlar (qaer, qaerga, qaerda, qaerdan) va ularning ekvalentlari (shu er, shu erga, shu erda, shu erdan)
49. Shart fe`li.
50. Shart ergash gap.
51. Shart-payt mazmuni.
52. Shart fehli. (-sa shakli)
53. Shart bog`lovchiari (agar, mabodo, baSharti).
54. Ergash gapning o`rni.

Asosiy adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G`. O`zbek tili grammatikasi. T. O`qituvchi, 1996 yil.
2. Abdurahmonov G`. Qo`shma gap sintaksisi asoslari. T, Fan, 1958 yil
3. Abdurahmonov G`. Qo`shma gaplar bilan sodda gaplarning o`zaro farqlanishiga doir ba`zi mulohazalar. O`zbek tili va adabiyoti masalalari, 1958, 3-son.
4. Abdurahmonov G`. Sulaymonov X. Holyorov H. Omonturdiyev J.Hozirgi o`zbek adabiy tili. Sintaksis. 1979 yil.
5. Abdurahmornov G`. Ergash gapli qo`shma gaplar masalasi o`zbek tili va adabiyoti masalalari, 1960, 4-son.
6. Asqarova M. Hozirgi zamon o`zbek tilida qo`shma gaplar. Toshkent, fan nashriyati, 1960 yil.
7. Asqarova M. O`zbek tilida ergashish formalari va ergash gaplar. T., fan nashriyoti, 1966 yil.
8. Akademiya nashri Hozirgi o`zbek adabiy tili, 2- kitob, Sintaksis, Toshkent, Fan nashriyoti, 1966 yil.
9. Akademiya nashri O`zbek tili grammatikasi. T., 1975 yil, II qism.
10. Berdaliev A. Ergash gapli qo`shma gap konstuksiyalarida semantik – signifikativ paradigmatika. T. , Fan nashriyoti, 1989 yil.
11. G`ulomov A, Asqarova M.Hozirgi o`zbek adabiy tili. T., 1987 yil.
12. Hozirgi o`zbek adabiy tili. 2-kitob. Sintaksis. T.1966 yil.
13. Mahmudov N., Nurmonov A. O`zbek tilining nazariy grammatikasi. T., 1995 yil.
14. Mamajonov A. .Qo`shma gap stilistikasi. T., Fan 1990 yil.
15. N.Mahmudov, A.Nurmaonov. O`zbek tilining nazariy grammatikasi. T.1995 yil.
16. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixo`jaeva S. O`zbek tilining mazmuniy sintaksisi. , T., Fan 1992 yil.
17. Nurmonov A., O`zbek tilining mazmuniy sintaksisi. T., 1992 yil
18. O`zbek tili grammatikasi II tom Sintaksis T,1976.
19. Rustamov H Ergash gaplarning tasnifiga ba`zi masalalar. O`zbek tili va adabiyoti masalalari, 1959, 3-son
20. Sayfullaeva R. Uyushuvchi birliklar va ularning uyushtiruvchi elementlar T, Fan, 1990

7-MA`RUZA

BOG`LOVCHISIZ QO`SHMA GAPLAR

REJA:

Bog`lovchisiz qo`shma gap haqida ma`lumot.

Bog`lovchisiz qo`shma gaplarda tinish belgilari.

Bog`lovchisiz qo`shma gaplarni tahlil etish tartibi.

Ikki va undan ortiq sodda gaplarning grammatik bog`lovchilarsiz birikuvchida tuzilgan qo`shma gap tiplari bog`lovchisiz birikuvchida tuzilgan qo`shma gap tiplari bog`lovchisiz qo`shma gaplar deyiladi:

Bog`lovchisiz qo`shma gaplarning tuzilishida eng asosiy vosita intonasiyadir. Intonasiya bog`lovchisiz qo`shma gaplarda turli ma`nootenkalarining ifodalanishida asosiy faktor hisoblanadi.

Bog`lovchisiz qo`shma gaplar bog`langan yoki ergash gapli qo`shma gaplarning bog`lovchisiz varianti emas, balki qo`shma gapning alohida tipidir. Bog`lovchisiz qo`shma gap qismlari orasiga teng yoki ergashtiruvchi bog`lovchilarni majburan kiritib bo`lmaydi. Aks holda, gap konstruksiyasi o`zgaradi; yopiq konstruksiya hosil bo`ladi. Bog`lovchisiz qo`shma gaplar esa ochiq konstruksiya hisoblanib, mazmunan o`zaro birikkan bir necha tipli sodda gaplardan tashkil topadi.

Qo`shma gapda komponentlarni biriktiruvchi ega yoki ergashtiruvchi bog`lovchilar qo`llanmagan o`rinlarda leksik va intonasion vositalarning roli ortadi.

Shu sababdan ham bog`lovchisiz qo`shma gap qismlarini biriktirishda ayrim leksik elementlarning, olmosh va mavhum ma`noli so`zlarning qo`llanishi, umumiy va ikkinchi darajali bo`laklarning takrorlanib kelishi kabilar bog`lovchisiz qo`shma gap turini shakllanishi hamda mazmun munosabatlarini yuzaga chiqishi uchun vosita funksiyasini bajaradi.

Shuni aytib o`tish kerakki, biz yuqorida sanab o`tgan vositalar keng ma`noda sintaksis bobida bog`lovchilar hisoblanganni uchun ham, shu vositalar yordamida tuzilgan qo`shma gap turiga nisbatan qo`llangan « bog`lovchisiz» atamasi Shartli ishlatiladi. (bu o`rinda eslatib o`tish kerakki, ba`zi darsliklarda bog`lovchisiz qo`shma gaplarning «bog`lovchisiz bog`langan qo`shma gap» atamasi ostida yuritilishi ham bejiz emas.)

Bog`lovchisiz qo`shma gaplarning strukturasi.

Bog`lovchisiz qo`shma gaplarni tashkil etgan komponentlar turli xil tiplardan iborat bo`lishi mumkin. Bog`lovchisiz qo`shma gaplarni tashkil etgan sodda gaplar, ko`pincha, darak gap shaklida bo`ladi:

Ba`zi bog`lovchisiz qo`shma gapning bir komponenti ritorik so`roq gaplardan iborat bo`lishi ham mumkin.

Qo`shma gapning bir komponenti yoki har ikkisi bosh bo`lakli gapdan iborat bo`lishi mumkin:

Bog`lovchisiz qo`shma gaplarni tashkil etgan gaplarning har qaysisi, agar ular ikki sostavli gap bo`lsa, egasi bo`lishi Shart. Umumiy egasi bo`lgan konstruksiyalar, ular qanchalik kengaymasin, qo`shma gap hisoblanmay, uyushiq bo`lakli yoki oborotli sodda gap sanaladi.

Bog`lovchisiz qo`shma gaplar ifodadaga mazmuniy munosabatiga ko`ra, etti turga ajratiladi:

1. Payt munosabatini ifodalagan qo`shma gaplar.
2. qiyoslash munosabatini ifodalagan qo`shma gaplar.
3. Shart-paytini ifodalagan qo`shma gaplar.
4. Sabab-natija ifodalagan qo`shma gaplar.
5. Zidlik munosabatini ifodalagan qo`shma gaplar.
6. O`xshatish munosabatini ifodalagan qo`shma gaplar.
7. Izohlash munosabatini ifodalagan qo`shma gaplar.

Bog`lovchisiz qo`shma gaplarning katta gruppasini ma`lum bir paytda ro`y bergan yoki mavjud hodisa, voqea, hususiyat, holatni ifodalovchi bog`lovchisiz qo`shma gaplar komponentlaridan anglashilgan voqea yoki hodisaning ro`y berish tartibiga ko`ra, ikki guruhga bo`linadi:

A) bir paytda bajariladigan harakat-holatni ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplar.

B) ketma-ket ro'y beradigan harakat-holatni ko'ratuvchi bog'lovchisiz qo'shma gaplar.

Yuqoridagi konstruksiyani tashkil etuvchi har ikki predikativ birlik-komponentning kesimi bir xil zamon shakli va mazmunida, ya'ni hozirgi zamon fe'li orqali ifodalangan. O'zbek tilida hozirgi zamon mazmuni sifatdoshlar yoki ot kesimlari yordamida ham yuzaga chiqishi mumkin:

Intozom tarbiya natijasidir, rejim tarbiya vositasidir. (Rshznomadan)

Qo'shma gaplardagi ish-harakatning bir paytda ro'y berishini yanada takidlash uchun sintaktik konstruksiyaning ikkinchi qismida shu payt, shu paytda, shu vaqt, shu vaqtda, shu zamon, shu zahoti kabi leksik elementlar qo'llanishi mumkin.

II. Ketma-ket ro'y beradigan harakat holatni ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplar. Bunday qo'shma gaplarning komponentlaridan anglashilgan harakat-holat galma-gal ro'y bradi:

Qo'shma gap komponentlaridan anglashilgan ketma-ketlik mazmunini yanada kuchaytirish maqsadida, ikkinchi komponentning boshlanishida bir ozdan, so'ng, keyin, undan keyin kabi so'zlar ishlatiladi:

Qiyoslash munosabatini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplar.

Bog'lovchisiz qo'shma gapning bu turida komponentlaridan anglashilgan harakat-holat, belgi-hususiyyat bir-biriga qiyoslanadi, solishtiriladi. Bundan maqsad ularning farqini ochish, bir-biriga mos yoki mos emasligini ko'rsatishdir.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda tinish belgilari.

Tinish belgilarining ko'p turi ishtirok etadigan qo'shma gap turi – bu, bog'lovchisiz qo'shma gaplardir. Bog'langan va ergash gapli qo'shma gaplarda, asosan, vergul ishlatildi. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda esa vergul bilan bir qatorda ikki nuqta, nuqtali vergul, tire kabi tinish belgilari ham ko'p qullaniladi.

1. Bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlari bir paytda yoki ketma-ket bajariladigan ish-harakatini bildirsa, bir-biridan vergul bilan ajratiladi:

2. Qiyoslash munosabatini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlari ham vergul bilan ajratiladi:

Bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlari o'rtasida o'xshatish munosabati yuzaga chiqqan o'rinlarda qismlar bir-biridan tire bilan ajratiladi:

Shart-payt, ziddik munosabatlarni ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlari ham o'zaro tire bilan ajratiladi:

3. Qismlari biri ikkinchisini yoki uning tarkibidagi biror bo'lakni izohlab keluvchi bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlari orasiga ikki nuqta qo'yiladi:

Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibida sodda gaplar bir necha bo'lsa, mazmuni bir-biriga yaqin bo'lgan holda guruhlansa, ular o'rtasida nuqtali vergul ishlatiladi va bunday konstruksiyalar murakkab qo'shma gaplarni yuzaga chiqaradi.

Yuqoridagilardan shu narsa ma'gum bo'ladiki, bog'lovchisiz qo'shma gaplar tinish belgilariga boy bo'lganligi bilan ham qo'shma gapning boshqa ko'rinishlaridan farq qiladi. Bog'lovchisiz qo'shma gap strukturasi Chizma shaklida quyidagicha ifodalash mumkin:

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar haqida umumiy tushuncha bering.
2. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar strukturasi jihatidan qanday tuziladi?
3. Qo'shma gapning bu turini shakllantiruvchi asosiy vosita nima.

4. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlarini biriktirishda yana qanday vositalar ishtirok etadi?
5. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni mazmunan necha turga bo'lib o'rganish mumkin?
6. Payt munosabatini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplarni misollar bilan tushuntirib bering.
7. Zidlik munosabatini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplarning harakterli xususiyati nimalardan iborat?
8. O'xshatish munosabati qanday yuzaga chiqariladi?
9. Izohlash munosabatidagi bog'lvchisiz qo'shma gaplar necha turga bo'lish mumkin.
10. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda Shart-payt mazmuni qanday ifoda etiladi.
11. Qiyoslash munosabatni ifodalagan bog'lovchisiz qo'shma gaplarda qiyoslash ob'ekti nimalardan iborat bo'ladi?
12. Sabab-natija munosabatini ifodalagan bog'lovchisiz qo'shma gaplarni misollar yordamida izohlab bering.
13. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar mazmunan qo'shma gaplarning qaysi turiga sinonim bo'la oladi?
14. Leksik takror yordamida shakllangan bog'lovchisiz qo'shma gaplarga misollar bering.
15. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar ko'proq qaysi nutq uslubiga hoslangan bo'ladi?
16. Badiiy nutqda bog'lovchisiz qo'shma gapning qaysi turlari kengroq qo'llanadi?
17. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar xarakteriga ko'ra qanday konstruksiya hisoblanadi?
18. YOpiq konstruksiya deganda nimani tushunasiz?
19. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning qaysi turini sodda gaplarga aylantirish mumkin. (misollar bilan tushuntiring)
20. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda qaysi tinish belgilari qo'llanadi?

Tayanch so'z va iboralar:

1. Bog'lovchisiz qo'shma gap.
2. Intonasiya.
3. Payt munosabati.
4. Qiyoslash munosabati.
5. Shart-payt munsabati.
6. Sabab-naija munosabati.
7. O'xshatish munosabati.
8. Zidlik munosabati.
9. Izohlash munosabati.
10. Qo'shma gaplarda sinonimiya.

Asosiy adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G`. O'zbek tili grammatikasi. T. O'qituvchi, 1996 yil.
2. Abdurahmonov G`. Qo'shma gap sintaksisi asoslari. T, Fan, 1958 yil
3. Abdurahmonov G`. Qo'shma gaplar bilan sodda gaplarning o'zaro farqlanishiga doir ba'zi mulohazalar. O'zbek tili va adabiyoti masalalari, 1958, 3-son.
4. Abdurahmonov G`. Sulaymonov X. Holyorov H. Omonturdiev J. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. 1979 yil.
5. Abdurahmornov G`. Ergash gapli qo'shma gaplar masalasi o'zbek tili va adabiyoti masalalari, 1960, 4-son.

6. Asqarova M. Hozirgi zamon o`zbek tilida qo`shma gaplar. Toshkent, fan nashriyati, 1960 yil.
7. Asqarova M. O`zbek tilida ergashish formalari va ergash gaplar. T., fan nashriyoti, 1966 yil.
8. Akademiya nashri Hozirgi o`zbek adabiy tili, 2- kitob, Sintaksis, Toshkent, Fan nashriyoti, 1966 yil.
9. Akademiya nashri O`zbek tili grammatikasi. T., 1975 yil, II qism.
10. Berdaliev A. Ergash gapli qo`shma gap konstuksiyalarida semantik – signifikativ paradigmatika. T. , Fan nashriyoti, 1989 yil.
11. G`ulomov A, Asqarova M.Hozirgi o`zbek adabiy tili. T., 1987 yil.
12. Hozirgi o`zbek adabiy tili. 2-kitob. Sintaksis. T.1966 yil.
13. Mahmudov N., Nurmonov A. O`zbek tilining nazariy grammatikasi. T., 1995 yil.
14. Mamajonov A. .Qo`shma gap stilistikasi. T., Fan 1990 yil.
15. N.Mahmudov, A.Nurmaonov. O`zbek tilining nazariy grammatikasi. T.1995 yil.
16. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixo`jaeva S. O`zbek tilining mazmuniy sintaksisi. , T., Fan 1992 yil.
17. Nurmonov A., O`zbek tilining mazmuniy sintaksisi. T., 1992 yil
18. O`zbek tili grammatikasi II tom Sintaksis T,1976.
19. Rustamov H Ergash gaplarning tasnifiga ba`zi masalalar. O`zbek tili va adabiyoti masalalari, 1959, 3-son
20. Sayfullaeva R. Uyushuvchi birliklar va ularning uyushtiruvchi elementlar T, Fan, 1990

8-MA`RUZA

MURAKKAB QO`SHMA GAPLAR

REJA:

Murakkab qo`shma gaplar

Murakkab qo`shma gap turlariga oid tahlil namunasi.

I. Uch va undan ortiq sodda gaplarning mazmun va grammatik jihatdan birikishidan tashkil topgan, umumiy bir yaxlit tugallanuvchi intonasiyaga ega bo`lgan sintaktik konstruksiyalar murakkab qo`shma gap deyiladi.

Qo`shma agapning murakkab shakli uning sodda (ikki komponentli) formasida: 1) komponent miqdorining ko`pligi. 2) unda birdan ortiq bog`lanish usulining mavjudligi bilan ajoralib turadi.

Misolalar shuni ko`rsatadiki, komponentlarning o`zaro grammatik munosabatiga ko`ra murakkab qo`shma agaplar uch guruhga ajraladi:

Bog`lanish (tenglanish) yo`li bilan tuzilgan murakkab qo`shma agap, ergashish (tobelanish) yo`li bilan tuzilgan murakkab qo`shma gap, aralash aloqali murakkab qo`shma gap.

II. Uch va undan ortiq sodda gaplarning mazmun va grammatik jihatdan teng munosabatga kirishishdan tashkil topgan sintaktik konstruksiyalar bog`lanish yo`li bilan tuzilgan murakkab qo`shma agap deyiladi. Bu turdagi qo`shma gap komponentlarining birikishida ikki xil usul bor: 1) komponentlarning faqat intonasiya bilan birikadi: bunda bog`lovchi yoki bog`lovchi funksiyasidagi grammatik formalar qatnashadi: 2) komponentlar ham teng bog`lovchilar, ham teng intonasiya (aralash usul) bilan birikadi; bunda teng bog`lovchilarning o`rni har xil: biriktiruv va zidlov bog`lovchilari ikkita komponentni juftlab bog`lash uchun gap o`rtasida, ikki komponentlarni tugatganligini ko`rsatish uchun oxirgi komponentning oldida qo`llaniladi.

Komponentlarning ham tenglanish, ham tobelanish munosabatidan tashqil topgan sintaktik konstruksiyalar aralash aloqali murakkab qo'shma gap deyiladi. qo'shma gaplarning bu turi bog'langan va ergash gapli qo'shma gaplarni o'z ichiga olganligi uchun aralash qo'shma gap deb ham yuritiladi.

Aralash aloqali murakkab qo'shma gaplarning quyidagi modellarini ko'rsatamiz:

1. Birinchi ergash gap o'zidan keyingi ikkita teng aloqali bosh gaplarning har qaysisiga alohida-alohida tobelanadi: Bu sifatlarning birisi bir odamda mujassam bo'lsa, dunyodagi eng buyuk saodat ham uni gangitib qo'ya olmaydi, eng katta baxtsizlik ham uni sarosimaga sola bilmaydi. («K.D.»)

2. Ikkita ergash gapli qo'shma gap teng aloqaga kirishadi:

3. Ikkitadan ortiq ergash gapli qo'shma gaplar teng aloqaga kirishadi:

4. Quyidagi gapda olta ergash gap o'zlaridan keyingi teng aloqali ikkita bosh gapning har qaysisiga alohida ergashib so'ngra bir butun holda birinchi o'rinda kelgan bitta bosh gapga tobelangan.

Olimlar deb durlarki, kimning qosh oralig'i uzoq bo'lsa, o'ng ko'zi chap ko'zidan kichikroq bo'lsa va tez-tez yumib ochsa, burni chap tomonga bir oz qiyshaygan bo'lsa va uchida uchta tuk bo'lsa, o'zi xamisha erga qarasa, undan odamga fisqi-fasot hamroh, hiyla va makr yo'doshdir.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Murakkab qo'shma gap deganda qanday sintaktik konstruksiyalar nazarda tutiladi?
2. Murakkab qo'shma gaplarni necha turga bo'lib o'rganiladi?
3. Tenglashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gapning belgilarini aytib bering.
4. Ergashish yo'li bilan tuziladigan murakkab qo'shma gaplar qanday xususiyatga ega bo'ladi?
5. Aralash (ergashish va tenglashish) tipidagi murakkab qo'shma gaplar qanday shakllanadi?
6. Murakkab qo'shma gaplar necha butunliklardan iborat bo'lishi mumkin?
7. Murakkab qo'shma gap butunliklari orasida qanday mazmuniy munosabatlar yuzaga chiqadi?
8. Murakkab qo'shma gap tarkibidagi predikativ birliklarning miqdori haqida nima deyish mumkin?
9. Qo'shma gaplarning murakkab tiplari ko'proq qaysi nutq uslubiga xos bo'ladi?
10. Murakkab qo'shma gapda qo'llanuvchi tinish belgilar qaysilar?

Tayanch so'z va iboralar:

1. Murakkab qo'shma gap
2. Bir necha ergash gapli qo'shma gap.
3. Bir necha bosh gapli qo'shma gap.
4. Aralash aloqali murakkab qo'shma gap.

Asosiy adabiyotlar:

21. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. T. O'qituvchi, 1996 yil.
22. Abdurahmonov G'. Qo'shma gap sintaksisi asoslari. T, Fan, 1958 yil
23. Abdurahmonov G'. Qo'shma gaplar bilan sodda gaplarning o'zaro farqlanishiga doir ba'zi mulohazalar. O'zbek tili va adabiyoti masalalari, 1958, 3-son.
24. Abdurahmonov G'. Sulaymonov X. Holyorov H. Omonturdiev J. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. 1979 yil.

25. Abdurahmornov G`. Ergash gapli qo`shma gaplar masalasi o`zbek tili va adabiyoti masalalari, 1960, 4-son.
26. Asqarova M. Hozirgi zamon o`zbek tilida qo`shma gaplar. Toshkent, fan nashriyati, 1960 yil.
27. Asqarova M. O`zbek tilida ergashish formalari va ergash gaplar. T., fan nashriyoti, 1966 yil.
28. Akademiya nashri Hozirgi o`zbek adabiy tili, 2- kitob, Sintaksis, Toshkent, Fan nashriyoti, 1966 yil.
29. Akademiya nashri O`zbek tili grammatikasi. T., 1975 yil, II qism.
30. Berdaliev A. Ergash gapli qo`shma gap konstuksiyalarida semantik – signifikativ paradigmatika. T. , Fan nashriyoti, 1989 yil.
31. G`ulomov A, Asqarova M.Hozirgi o`zbek adabiy tili. T., 1987 yil.
32. Hozirgi o`zbek adabiy tili. 2-kitob. Sintaksis. T.1966 yil.
33. Mahmudov N., Nurmonov A. O`zbek tilining nazariy grammatikasi. T., 1995 yil.
34. Mamajonov A. .Qo`shma gap stilistikasi. T., Fan 1990 yil.
35. N.Mahmudov, A.Nurmaonov. O`zbek tilining nazariy grammatikasi. T.1995 yil.
36. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixo`jaeva S. O`zbek tilining mazmuniy sintaksisi. , T., Fan 1992 yil.
37. Nurmonov A., O`zbek tilining mazmuniy sintaksisi. T., 1992 yil
38. O`zbek tili grammatikasi II tom Sintaksis T,1976.
39. Rustamov H Ergash gaplarning tasnifiga ba`zi masalalar. O`zbek tili va adabiyoti masalalari, 1959, 3-son
40. Sayfullaeva R. Uyushuvchi birliklar va ularning uyushtiruvchi elementlar T, Fan, 1990

9-MA'RUZA

MATN SINTAKSISI

REJA:

matn sintaksisi tushunchasi

matn tarkibida partsellyatsiya hodisasi va qwshiluv aloqasi

sodda gap - ifoda sathidagi partsellyatsiya hodisasi

undalmali gaplarda partsellyatsiya hodisasi

jwshma gap sathida partsellyatsiya hodisasi

murakkab sintaktik butunlik sathida partsellyatsiya hodisasi

boqlovchi vositlarsiz tuzilgan murakkab sintaktik butunlikning ham bir yoki bir

necha qismi partsellyatsiyaga uchraydi:

mikromatn tizimida qwshiluv aloqasi

gaplardagi qwshiluv aloqasi

gap bwlaklaridagi qwshiluv aloqasi

Matn swzi lotincha tekst demakdir. Tekst (lotincha textus) swzidan olingan bwlib, matn, qwshiluv degan ma`nolarni bildiradi.

Matn muayyan til qoidalari asosida tuzilgan xabar, axborotni ifodalaydigan gaplarning yiQindisidir.

Matn qwshiluv tushunchasiga asoslangani uchun ham, unda ikki va undan ortiq qismlarning birikishi, boQlanishi kwzda tutiladi.

Matn (linvistikasi) til birliklari va ular orasidagi munosabatlarni namoyon qiladigan nutqiy yaxlitlik doirasining kengayishiga imkon (yordam) beradi.

Matn lingvistikasini wrganishning nazariy va amaliy ahamiyati bor. Nazariy ahamiyati tilni murakkab kwpsathli ierarxik tizim sifatida imkon boricha twliq tasavvur etishga qaratilgan bwlsa, amaliy ahamiyati matnlar tipologiyasini va ularni qismlarga ajratish usullarini ishlab chiqishda yangi imkoniyatlar ochilishidadir.

Matn deyilganda tugal mazmunga ega bwlgan bir yoki undan ortiq gaplardan tuzilgan ifoda tushunilishi bilan birga qissa, roman, gazeta yoki jurnal maqolasi, ilmiy monografiya, har xil turdagi hujjatlar va shu kabi nutqiy asarlar tushuniladi. Shunga kwra matn lingvistikasi predmetini ikki guruhga ajratish mumkin:

- 1) mikromatn (kichik matn);
- 2) makromatn (katta matn).

Mikromatn kichik matnni wz ichiga oladi va kichik darajadagi kommunikativ birlik hisoblanadi. Mikromatnda sarlavha bwlmaydi. U har xil qismlarga bwlinishi mumkin. Makromatn butun nutqiy asar sifatida wz mohiyatiga kwra grammatik jihatdan izohlanishi murakkab bwlgan eng yuqori darajadagi kommunikativ birlik hisoblanadi. Makromatn – birinchi navbatda ijtimoiy nutqiy hodisa. U bir necha sarlavhalar, turli hajmdagi qismlar (boblar, bwlimlar, paragraflar)dan tashkil topadi.

Makromatnning tarkibiy qismlari mikromatnning tarkibiy qismlaridan tubdan farq qiladi. Mikromatn sintaksis nazariyasining wrganish ob`ekti sanaladi.

Makromatn funktsional lingvistika, kommunikatsiya (aloqa) nazariyasi, psixolingvistika, sotsiolingvistika, funktsional uslubshunoslik kabi fan tarmoqlarining tekshirish ob`ekti hisoblanadi.

Tilshunoslikda mikromatn tushunchasi ostida kwpincha frazadan yirik birlik tushuniladi. Uning quyidagicha sinonimlari mavjud: murakkab sintaktik butunlik, matnning komponenti, period, sintaktik kompleks, monologik ifoda, kommunikativ blok kabi.

Birgina gap matnning eng quyi chegarasi, matnning eng kichik birligi hisoblanishi mumkin.

Abzats nutqning frazadan yirik bwlgan sintaktik birligidir. Abzats ikki yoki undan ortiq monopredikativ (bir predikatli) va polipredikativ (kwp predikatli) qismlardan tashkil topadi. Anglashiladiki, abzats, frazadan yirik bwlgan birlik mikrommatndir.

Matn kommunikatsiyaning asosiy birligi wlaroq wz tizimiga ega. Bular yaxlitlik, uzviylik, ierarxialik, tizim va muhitning wzaro aloqadorligi kabilardir.

Matn uch birlikdan tashkil topadi:

Sintagma, ifoda va kommunikativ.

Sintagma matnning eng kichik semantik-sintaktik birligi bwlir, u kishi ongida paydo bvladigan va voqelikning bir qismini (parchasini) aks ettiradigan, murakkab tushuncha anglatish uchun xizmat qiladigan matnni hosil qiluvchi birlikdir.

Ifoda gapning tuzilish sxemasi asosida shakllanadigan matn birligidir.

Kommunikativ mazmunan nisbiy tugallikka ega bvlgan matnning bir qismidir.

Mikromatnning qismlari wzaro zich boQlangan bvladi. Bu xildagi zich boQlanish matnning asosiy belgisi hisoblanadi.

Matnning lingvistik tuzilishini wrganishda asosan, uni tuzishda qatnashuvchi asosiy birliklar aniqlanishi kerak.

Barcha til birliklarida bvlgani kabi mikromatn ham wzining ifoda plani va mazmun planiga ega. Ya`ni mikromatn shakl va mazmun birligidan tashkil topadi. Ifoda va mazmun plani mikromatnning wziga xos tashkil qilinishi bilan belgilanadi.

Mikromatn qismlari orasida taqqoslash, zidlash, izohlash, tasvirlash, sharhlash, galma-gallik, ketma-ketlik kabi munosabatlar ifodalanadi.

Demak, mikromatn mazmunan bir-biri bilan boQlangan, biri ikkinchisiga ulangan gaplardan, ifodalardan tashkil topadi. Shunga kwra mikromatnga quyidagicha ta`rif berish mumkin: kishilar orasida aloqa-aralashuv (kommunikatsiya uchun) xizmat qiladigan mazmun va grammatik jihatdan shakllangan bir yoki bir necha ifodalar tizmasidan tashkil topgan sintaktik birlik mikromatn hisoblanadi.

Matn tarkibida partsellyatsiya hodisasi va qwshiluv aloqasi

OQzaki nutqda, matnda ba`zan kommunikativ talablarga kwra yaxlit bir qurilmada uzilish sodir bvladi. Bunda yaxlit tasavvur etiladigan sintaktik birlik (xoh u sodda gap shaklida bwlir, bwlir, xoh qwshma gap shaklida bwlir, xoh murakkab sintaktik butunlik shaklida bwlir) ikki va undan ortiq kommunikativ birliklarga – ifodalarga bwlirib ketadi. Masalan:

1. Endi har kuni kirib turaman ... redaktorning oldiga (F.Musajonov). 2. Hamma yoq jim-jit. Gwyo urush ham, minalarning portlashi-yu, wlayotgan odamlarning jon talvasida qichqirishi ham, samolyotlarning guvillashi ham, zambaraklarning wkirishi ham -- hech nima ywkdek (W.Hoshimov). 3. Hozir gilos qolmagan. Nok bwlirsa pishmagan. Tosh nok (W.Hoshimov).

Kwrinadiki, birinchi misolda asosiy gap «Endi har kuni redaktorning oldiga kirib turaman»dan keyin kelgan birlik («redaktorning oldiga» vositali twldiruvchi) alohida ta`kidlanib, kommunikativ yuk olib, gapdan ajralib, undan bwlirib chiqqan. Natijada sodda gap tarkibida bwlirinish hodisasi rwy berib, u ikki ifodaga ajratilgan.

Ikkinchi misolda asosiy gap («Gwyo urush ham,...samolyotlarning guvillashi ham... -- hech nima ywqdek, hamma yoq jimjmit »)dan, «gwyo... hech nima ywqdek» shaklidagi birlik (wxshatish ergash gapi) alohida ta`kidlanib, kommunikativ yuk olib, bosh gapdan ajralib chiqqan. Bunda bir butun ergashgan qwshma gap tarkibida uzilish hodisasi sodir bwlirishi tufayli u ikki ifodaga ajralgan.

Uchinchi misolda («Hozir gilos qolmagan, tosh nok bwlirsa pishmagan») murakkab sintaktik butunlikdan «tosh nok bwlirsa pishmagan» mustaqil gapi birinchisidan ajralib chiqib, wz navbatida undan wz aniqlovchisi bilan («tosh nok») ega uzilib, (bwlirib) gap tashqarisiga chiqqan, ya`ni uzilish hodisasi sodir bvlirgan.

Yuqorida keltirilgan misollardan kwrinadiki, partsellyatsiya (uzilish) hodisasi mikromatn bilan bevosita aloqador bvlirgan hodisa hisoblanib, u yaxlit bir qurilmani ikki yoki undan ortiq qismlarga, ifodalarga bwlirib yuboradi.

Tilshunoslik ilmida partsellyatsiya hodisasi haqida juda kam ma'lumotlarga egamiz. Bu masala chuqur wrganilishi kerak. Chunki bu masalani har tomonlama yoritish kwpgina grammatik hodisalarni, jumladan sintaktik hodisalarni twQri va aniq hal etishga yordam beradi.

Turkologiya sohasidagi ayrim manbalarda bu hodisa haqida ywl-ywlakay fikr bildirilgan.¹ Wzbek tilshunosligida esa bu hodisa deyarli wrganilmagan. Lingvistik terminlar luQatida partselyatsiyaga shunday izoh berilgan: «partsellyatsiya gapning shunday bwlinishiki, unda ifodaning mazmuni bitta emas, balki ikki va undan ortiq intonatsion-ma`noviy nutqiy birliklarda anglashiladi. Bunday birliklar biri ikkinchisidan swng ketma-ket keladi».² Shu manbada kwrsatilishicha, bu hodisa partsellyatsiya hodisasi rwy bergan (uziladigan, bwlinadigan) qismlarning asosiy gap tashqarisida bwlishi bilan qwshiluv hodidasidan farq qiladi, ammo qwshiluvchi qurilmalar asosiy gap doirasida ham, asosiy gap tashqarisida ham bwlishi mumkin.³ Rus tilida boQlovchisiz qwshma gaplar muammosi bwyicha izlanish olib borgan olim E.N. Shiryaev mazkur hodisa bilan ham ywl-ywlakay qiziqib, partsellyatsiya haqida shunday deydi: «Partsellyatsiyaning mohiyati shundaki, ekspressiv-stilistik jihatdan betaraf bwlgan bitta kommunikativ birlik ekspressiv-stilistik ta`sirchanlikka erishish uchun ikkita birlikka bwlinadi».¹ Tadqiqotchining fikricha, bu hodisa ekspressiv-stilistik ta`sirchanlikni oshirish maqsadida qwllanadi va natijada bitta kommunikativ birlik ikki qismga – asosiy qism va uziq qismga bwlinib ketadi.

Partsellyatsiya faqatgina boQliq tekst, matn sathida wz aksini topadi.

Agar partsellyatsiya kommunikativ nuqtai nazardan wrganilsa, unga faqat nutqiy qurilmani tashkil qiluvchi uzvlari bilan zich boQlangan matn birligi sifatida yondashish kerak. Partsellyatsiya faqat unga aloqador asosiy gap bilan emas, balki murakkab sintaktik butunlikning boshqa birliklari bilan ham leksik-semantik jihatdan zich boQlangan bwlishi ayrim manbalarda qayd etilgan².

Rus tili sintaksisi sohasida maxsus izlanishlar olib borgan V.A.Beloshapkova bu hodisani «qwshma gap»ga boQliq ravishda wrganib, shunday yozadi: «Partsellyatsiya qwshma gapning formal va kommunikativ jihatdan tashkil qilinishi orasidagi wzaro boQlanishdan funktsional jihatdan ahamiyatga ega bwlgan chekinish sifatida sodir bwlad, chunki qwshma gapning formal va kommunikativ tomonlari orasida sistem jihatdan moslik mavjud. Jwshma gap strukturasi ikki kommunikativ birlikka bwlinish imkoniyati shuni kwrsatadiki, unga (qwshma gapga) kommunikativ yaxlitlik sistem jihatdan xos»³.

Faqat matn sathida sodir bwladigan mazkur hodisa bir kommunikativ birlikni ikki yoki undan ortiq kommunikativ birliklarga bwlib tashlar ekan, bu jarayon ifodaning aktual bwlinishi bilan bevosita aloqador. Partsellyatsiya tufayli yaxlit kommunikativ birlik ikki qismga: tema va remaga ajratiladi. Bunda ifodaning nuqtagacha bwlgan qismi tema, nuqtadan keyin keladigan qismi rema sanaladi.

Ma`lumki, xabar predmetini wzida aks ettiradigan ifodaning dastlabki kommunikativ qismi, ma`lum, tanish xabarni bildiradigan qismi tema deyiladi. Tema haqida xabarni wzida aks ettiradigan ifodaning asosiy kommunikativ qismi, yangi xabarni bildiradigan qismi rema deb ataladi. Bu qismlar ichida eng muhimi remadir. Ifoda remasiz bwlolmaydi, chunki rema ifodaning kommunikativ markazini tashkil qiladi. Ammo temaning bwlishi shart emas.

Swzlovchi tinglovchiga wz fikrini etkazish uchun biror voqea-hodisa haqida xabar bermoqchi bwlganda, mana shu xabar ichidagi muhim sanalgan qismini nomuhim qismdan ekspressiv-stilistik ta`sirchanlikka erishish uchun alohida ta`kidlaydi. Alohida ta`kidlash oQzaki

¹ Грамматика современного башкирского языка. М., 1981, стр. 438-439.

² Д.Э.Розенталь, М.А.Теленкова. Словарь-справочник лингвистических терминов. М., 1976, стр. 272.

³ «ша ерда. 273-бет

¹ Е.Н.Ширяев. Бессоюзное сложное предложение в современном русском языке. М., 1986, стр.12

² И.А.Рычкова. О текстообразующих функциях парцелляции в сложном синтаксическом целом. «Синтаксис предложения и сверхразового единства» Ростов-Дону, 1977, стр. 103.

³ Современный русский язык. Под редакцией В.А.Белашанковой, 1981, стр. 515.

nutqda intonatsiya, pauza, logik urqu kabi prosodik vositalar yordamida amalga oshirilsa, yozma nutqda, matnda partsellyatsiya orqali rwyobga chiqadi. Bu hodisa swzlovchining wz kommunikativ maqsadiga erishishiga yordam beradi. Partsellyatsiya tufayli bitta kommunikativ birlik ikki va undan ortiq ifodalarga bwinganda, birinchi ifoda ikkinchi ifodaga nisbatan tema bwlil keladi, partsellyatsiya qilingan qism (ifoda) esa rema vazifasini bajaradi. Shu masala bwyicha ayrim tadqiqotchilar izlanish olib borib, turli mulohazalarni bildirishgan.¹

Shunday qilib, partsellyatsiya mikromatn tizimida muhim ahamiyatga ega bwlgan hodisa sanalib, u tufayli ekspressiv-stilistik jihatdan betaraf bwlgan bitta kommunikativ birlik ekspressiv-stilistik ta`sirchanlikka erishish maqsadida ikkita kommunikativ birlikka bwliladi. Bu hodisa sodda gap-ifoda sathida ham, qwshma gap- ifoda sathida ham, murakkab sintaktik butunlik sathida ham namoyon bwladi.

SODDA GAP - IFODA SATHIDAGI PARTSELLYATSIYA HODISASI

Sodda gapga teng ifoda stilistik-ekspressiv ta`sirchanlikka erishi maqsadida (kommunikativ talablarga kwra) ikki, ba`zan undan ortiq kommunikativ birlikka bwliladi. Bunda mana shu kommunikativ birliklarning biri gapga teng ifoda, ikkinchisi gap bwlagiga teng ifoda sifatida qatnashadi.

Partsellyatsiya tufayli kwpincha sodda gapga kiritilgan swz formalarning tenglanishli qatoridagi bir a`zosi yoki bir necha a`zosi yoki butun bir tenglanishli qator, shuningdek a`zolari orasida izohlash, sharhlash munosabati ifodalangan tenglanishli qatorning izohlovchi qismi, ba`zan esa yolqiz bir bwlak asosiy ifodadan ajralib chiqishi mumkin. Shuning uchun bunday gap- ifodalarda partsellyatsiya qilingan qism, partsellyat² kesimdan boshqa gap bwlaklari shaklida bwladi. Bunda partsellyatsiya qilingan qism, partsellyat rema vazifasida keladi, partsellyat uchun asos bwlgan qism tema sanaladi.

Partsellyat:

1) ega shaklida bwladi: Bu erda, shaharda mening ustozim bwladilar u kishi ... Jishloqda esa ... *bobom* (T.Pwlatov). (< Bu erda, shaharda u kishi, qishloqda esa *bobom* ustozim bwladilar.);

2) twldiruvchi shaklida bwladi: Chindan ham yosh bwldim! Kimsan akamga, orzu-umidlarimga, wzimga (W.Hoshimov).

(< Chindan ham Kimsan akamga, orzu-umidlarimga, wzimga yosh bwldim.); Sizdan iltimos, ... chaqiring. qulom akani, Saidjonni! (F.Musajonov)

(< Sizdan iltimos, qulom akani, Saidjonni chaqiring!);

3) aniqlovchi shaklida bwladi: Wzimning mana shu eshagimga ikki bidon paxta yoQi ortilgan edi. Oltmish kilo (P.Jodirov).

(< Wzimning mana shu eshagimga ikki bidon oltmish kiloli paxta yoQi ortilgan edi.);

4) hol shaklida bwladi: Jani, wrtoq Xajayipga kim bitta uyini bwshatib beradi? Doimgamas, vaqtincha (W.Hoshimov).

(< Jani, wrtoq Xajayinga kim bitta uyini doimgamas, vaqtincha bwshatib beradi?);

Jamoqqa tushgisi kelmasa ishga tushsin! Bugun, hozir! (W.Hoshimov)

(< Jamoqqa tushgisi kelmasa bugun, hozir ishga tushsin!);

Suyakni albatta boshliqqa uzatardim. Xushomadgwylikdan emas, hurmat qilganimdan (F.Musajonov).

(< Xushomadgwylikdan emas, hurmat qilganimdan suyakni boshliqqa uzatardim).

¹ В.Я.Плоткин. Семантика и синтаксис предложения и высказывания. «Синтаксическая и лексическая семантика» Новосибирск, 1986, стр. 37.

² Парцеллят терминини маъносида i`ладик.

Keltirilgan misollarda, asosan, sodda gapga kiritiladigan butun bir tenglanishli qator partsellyatsiya hodisasiga uchragan.

Ba`zan tenglanishli qatoridagi swzformalarning bir qismi partsellyatsiya uchun asos bwlgan gapda qoladi, qolgan qismi partsellyatsiya qilinadi. Masalan:

Dadam tumshuQiga tunuka ulangan choynakdan avval menga choy quyadi. Keyin wziga ... (W.Hoshimov).

(< Dadam tumshuQiga tunuka ulangan choynakdan avval menga, keyin wziga choy quyadi.)

Tish yuvgich chwtkasiz ham yashash mumkin. Hamyonsiz ham (T.Pwlatov).

(< Tish yuvgich chwtkasiz, hamyonsiz ham ham yashash mumkin.)

Xuddi shuningdek, sharhlash-izohlash munosabatidagi bwlaklardan tashkil topgan tenglanishli qatorning bir qismi, izohlanuvchi qismi partsellyatsiya uchun asos bwlgan gapda qoladi, qolgan qismi, izohlovchi qismi partsellyatsiyaga uchraydi. Masalan:

Ikki haftadan beri Yaltada dam olyapman. «Wzbekiston» sanatoriysida (W.Usmonov).

(< Ikki haftadan beri Yaltada, «Wzbekiston» sanatoriysida dam olyapman.)

...Mana shu qadahni men kwrmagan, sen juda sevadigan kelin uchun kwrtaraman. Wsha olijanob ayol uchun! (F.Musajonov)

(< Mana shu qadahni men kwrmagan, ... kelin uchun, wsha olijanob ayol uchun kwrtaraman.)

Izohlash-sharhlash munosabatlari aks etgan a`zoldan tashkil topgan tenglanishli qatorning izohlovchi qismi partsellyatsiyaga uchrab, turli gap bwlaklari shaklida asosiy gapdan ajralib chiqadi. Masalan: Bu erda xashak ustida qishu yoz bir devona yotadi. Soqollari wsgan, kiyimlari juldur bir keksa devona (Oybek).

(< Bu erda ... soqollari wsgan, kiyimlari juldur bir keksa devona yotadi.)

Bilasiz, ukam Avaz qaynim Xolbekning qalliQiga uylangan. Hulkarga (P.Jodirov).

(< ... Avaz qaynim Xolbekning qalliQiga, Hulkarga uylangan.)

Ukangiz uzoqda. ToQlar orasida (S.Ahmad).

(< Ukangiz uzoqda, toQlar orasida)

Keltirilgan misollarning birinchisida tenglanishli qatorning izohlovchi qismi ega shaklida, ikkichisida qatorning izohlovchi qismi twldiruvchi shaklida, uchinchisida qatorning izohlaydigan qismi izohlovchi shaklida partsellyatsiyaga uchragan.

Undalmali gaplarda partsellyatsiya hodisasi

Dalillar shuni kwrsatadiki, partsellyatsiya tufayli sodda gap sathida undalmalar, turli kiritmalar wzi aloqador gapdan ajralib chiqishi mumkin. Bunda undalmalar wzi daxldor gapdan alohida intonatsiya orqali, matnda undov belgisi yoki nuqta orqali ajratiladi.

Sodda gap sathida swzlovchining nutqi qaratilgan shaxsni, ba`zan predmetni anglatadigan undalmalar sintagma shaklida wziga tegishli gapdan ajralib chiqadi va mikromatnning tarkibiga kiruvchi alohida ifoda sifatida qullanadi, mikromatnning bir qismiga aylanadi.

Sodda gapda bitta undalma wzi yolQiz yoki aniqlovchisi bilan partsellyatsiyaga uchraydi:

Dwstim! Hayot mushkulsiz bwlmaydi (E.Voxidov). (< Dwstim, hayot mushkulsiz bwlmaydi.)

Hoy, muallimlar! Sizlar nega indamay wtiribsizlar? (W.Usmonov) (< Hoy, muallimlar, sizlar nega indamay wtiribsizlar?)

Aziz va muhtarama onalar! Sizning ezgu niyatlaringizni butun dunyo onalari tushunadi (E.Vohidov). (< Aziz va muhtarama onalar, sizning ezgu niyatlaringizni ...)

Ba`zan bir necha undalmalar tenglanishli qator a`zolari sifatida qullanib, wziga tegishli gapdan ajratilishi mumkin:

Ey ota-onalar, bobolar, momolar, barcha yoshi uluQlarimiz! Yosh avlod umri mazmunli bwlishi uchun qwlingizdan kelganicha ... kurashingiz! («Wz. ad.ti va san`ati» gazetasi). (< Ey ota-onalar, bobolar, momolar, ... yosh avlod umri mazmunli bwlishi uchun... kurashingiz!)

Partsellyatsiya qilingan undalma bitta abzatsni ham tashkil qilishi mumkin, unga aloqador gap esa boshqa bir abzatsni tashkil qiladi yoki boshqa bir abzats tarkibida keladi:

Mening tengdosh va zamondosh ijodkor dwstim!

Yurtimiz boshiga qora kunlar kelganda, sen bilan biz bola edik (E.Vohidov). (< Mening tengdosh va zamondosh ijodkor dwstim, yurtimiz boshiga qora kunlar tushganda, sen bilan biz bola edik).

Ba`zan tenglanishli qatorning hajmi kengligidan undalmalar bir necha guruhlariga birlashib, wzi aloqador gapdan ajratiladi. Bunday qurilmalarda ekspressivlik juda kuchli bwladi:

Ey siz, kwzlari shira bosgan boyvachchalar, takabbur zodagonlar, purviqor amaldorlar, sersavlat amakilar, xomsemiz pwkalaklar! Gumbazlar, xarilar, twnkalar! Ey siz baxtni pulda, molu dunyoda, mansabda deb tushunuvchi befahm kaltabinlar! Savolim bor sizlarga (F.Musajonov).

Kiritmalar partsellyatsiyasi

Swzlovchining aytilayotgan fikrga bwlgan turli sub`ektiv munosabatini bildiruvchi kiritmalar sodda gap sathida bwlinish qonuniyatining (partsellyatsiyaning) namoyon bwlishi tufayli alohida ajratilishi mumkin. Matnda bunday kiritmalar wziga tegishli gaplardan nuqta bilan ajratiladi. Masalan:

Yana kim biladi deysiz. Odam oyoQi etmagan, deb wylagan joylarimizda ham oldimizdan lop etib birontasi chiqib qolishi hech gap emas (T.Pwlatov). (< Yana kim biladi deysiz, odam oyoQi etmagan, deb wylagan joylarimizda ...).

Gapda kwpincha asosiy fikr ichida ywl-ywlakay fikrni anglatadigan kiritma gaplar ham partsellyatsiyaga uchrashi mumkin. Partsellyatsiya qilingan bunday qurilmalar sodda gap shaklida ham, qwshma gap, ergashgan qwshma gap shaklida ham, uyushgan gap shaklida ham, hatto murakkab sintaktik butunlik shaklida ham kelishi mumkin. Ayniqsa, matnda mazkur qurilmalarning turli shakllarda kelish imkoniyatlari juda keng bwladi.

Odatda partsellyatsiya qilingan kiritma gaplar wzi aloqador bwlgan gapdan swng kelib, undan nuqta bilan ajratilib, qavs ichiga olinadi :

U qizchasini nima deb yupatishni bilmay, sudragudek bwlib borardi. (Buni qarangki, mantiq kuchi oldida hatto gwddak boladan ham osongina engilish mumkin ekan!) (W.Usmonov).

Nima uchundir Ahmad yuragida ayriliq jafosi, achinish sezmadi. (Bu his keyin uning yuragini wrtaydi, juda kwpmarta wrtaydi.) (F.Musajonov). (< ... Ahmad yuragida ayriliq jafosi, achinish (bu his keyin uning yuragini wrtaydi ...) sezmadi).

Ha, Ahmadlarning gruppasi ayniqsa wyinqaroq, intizomsiz edi. (Kim biladi, balki har bir student wz gruppasini eng twpolonchi ... deb hisoblar yoinki shunday bwlishiga intilardi.) (F.Musajonov). (< Ha, Ahmadlarning gruppasi ayniqsa wyinqaroq, (kim biladi, balki har bir student wz gruppasini eng twpolonchi ... deb hisoblardi), intizomsiz edi).

Shovqin-suronimizni haytovur eshitgan shekilli – Lavang Maxsum kelib qoladi. (U juda lavang bwlganidan, biz uni shunday deb ataymiz.) (Oybek). (< Shovqin-suronimizni ... eshitgan shekilli – Lavang Maxsum (u juda lavang bwlganidan, biz uni shunday deb ataymiz) kelib qoladi.

Ertaga nikoh degan kuni daladan barvaqt qaytdim. (Hamma qatori ketmonchilik qilayotganimga 3 yil bwldi. Avval oyimga kwmaklashib yurdim. Keyin wzimga ham mehnat kuni yozadigan bwlishdi.) (W.Hoshimov).

(<Ertaga nikoh degan kuni (hamma qatori ketmonchilik qilayotganimga 3 yil bwldi; avval oyimga kwmaklashib yurdim, keyin wzimga ham mehnat kuni yozadigan bwlishdi) daladan barvaqt qaytdim.)

Ba`zan partsellyatsiya qilingan kiritma gap murakkab sintaktik butunlikka aloqador bwlib, shu butunlikni tashkil qiluvchi mustaqil gaplarning orasida joylashishi mumkin.

Bunda ham kiritma gap partsellyatsiyaga uchraydi, ham murakkab butunlikning, bir qismi partsellyatsiyaga uchraydi:

... Kimsan akam ikki yuzi qip-qizarib dam-badam yonimizga keladi. (Hali ulfatlari bilan uyga kirib bobomdan bekitiqcha Rashid abzining musallasidan ichishayotganini kwruvdim.) Nuqul hazil qilardi (W.Hoshimov). (< ... Kimsan akam ... dam-badam yonimizga keladi (hali ulfatlari bilan Rashid abzining musallasidan ichishayotganini kwruvdim), nuqul hazil qiladi).

Ota-ona taqdirga tan berib, raisni maslahatga chaqiribdi. (Wshanda oqsoqol rais ekan.) Oqsoqol indamay chiqib ketibdi-da, juma kuni falonchinikida twy deb hammaga xabar qilibdi (W.Hoshimov).

Shunday qilib gap sathida nafaqat gap bwlaklari, nafaqat izohlash-sharhlash munosabatidagi gap bwlaklari, hatto undalmalar, kiritmalar ham uning tarkibidan ajralib, partsellyatsiya qilinishi mumkin. KiziQi shundaki partsellyatsiya qilingan nutqiy birliklar, matniy birliklar oldingi ifodaga yana qwshiluv aloqasi orqali boQlanib turadi. Demak, undalmalar, turli kiritmalar, tenglanishli qatorlar singari, gapga qwshiluv aloqasi orqali kiritiladi. Bunda bir vaqtning wzida ikki xil hodisa rwy beradi: turli nutq birliklari, matniy birliklar wziga aloqador bwlgan boshqa bir nutqiy birliklar (odatda bu birlik gapga teng bwladi) qwshiluv aloqasi orqali kiritilgan bwladi va keyin turli kommunikativ talablarga kwra partselyatsiya tufayli undan ajratiladi. Ajratilgan, bwlingan qism kommunikativ jihatdan alohida ahamiyatli bwlub muhimlashadi. Bu erda kiritmalarning muhimlashishi haqida gapirish qiyin, chunki ular yangi xabar berish uchun qwllanmasdan, faqat qwshimcha sub`ektiv mazmun qwshish uchun gapga kiritiladi. Gapga qwshilish aloqasi orqali kiritilgan undalmalar esa swzlovchining wz fikr-mulohazalarini tinglovchiga etkazishda murojaat etilayotgan shaxsni, ya`ni tinglovchini alohida ta`kidlash uchun gapdan ajratiladi, ya`ni partsellyatsiyaga uchraydi.

Jwshma gap sathida partselyatsiya hodisasi

Jwshma gapga teng ifoda ham ekspressiv-stilistik ta`sirchanlikka erishish maqsadida ikki kommunikativ birliklarga bwlinib ketadi. Natijada biri bosh gapga teng ifoda, ikkinchisi ergash gapga teng ifodalar yuzaga keladi. Bunda kwpincha yaxlit bir ifodaning bwQini tufayli yuzaga kelgan bosh gapga teng ifoda tema, ergash gapga teng ifoda esa rema bwlub keladi. Negaki ekspressiv-stilistik ta`sirchanlikka erishish maqsadida ergash gap alohida ta`kidlanib, butun bir qwshma gap tarkibidan tashqariga ajralib chiqadi va shu qism partselyatsiya qilingan qism muhimlashadi.

Rema sifatida keladigan partsellyatsiya qilingan qism turli ergash gaplar shaklida keladi.

Partsellyat:

1) aniqlovchi ergash gap shaklida bwladi: Konkurs qatnashchilari orasida shunday qiz bor ediki, bunday qizlarga wnta she`r ham kamlik qiladi;

2) payt ergash gap shaklida bwladi: Avvalari ham shunga wxshagan ahvolga tushganman... YiQlab-yiQlab Kimsan akamga xat yozganimda...(W.H.)(< YiQlab-yiQlab Kimsan akamga xat yozganimda, shunga wxshagan ahvolga tushganman);

3) sabab ergash gap shaklida bwladi: Wozirgi bolalarimizning koinot sari intiluvchan uchqur xayollariga monand tarzda solingan shu muhtasham bino hamma vaqt zavqimga zavq qwshadi. Ywq, ywq, arxitektor bwlganim uchun emas! (U.Usmonov) (... arxitektor bwlganim uchun emas, ... shu muhtasham bino zavqimga zavq qwshadi);

4) Maqsad ergash gap shaklida bwladi: Masalani uzil-kesil hal qilib olish zarur. Keyin yana qiliq chiqarib yurmasin uchun (F.Musajonov) (Keyin yana qiliq chiqarib yurmasin uchun, masalani uzil-kesil hal qilib olish zarur) Joplombobdan wtadigan soyni quvurdan oqizish zarur. Toki soyga sellar har xil najosatni yuvib tushmasin (S.Ahmad.) (Joplombobdan wtadigan soyni quvurdan oqizish zarur, toki soyga sellar xar xil najosatlarni yuvib tushmasin);

5) *twsiqsiz ergash gap shaklida bwladi: ... shoirlarimiz, yozuvchilarimiz ma`lum bir yoshga etishgach, negadir tanqidni umuman kwtara olmaydigan bwlid qolishadi. Garchand bwsh narsalari kwpayib borayotgan bwlsa-da (E.V.) (Garchand bwsh narsalari kwpayib borayotgan bwlsa-da, shoirlarimiz... negadir tanqidni umuman kwtara olmaydigan bwlid qolishadi). Wsha ishning borligi yaxshi ekan. Garchi u azob bersa ham jonimni suQurib olsa ham. (W.W.)(Garchi u azob bersa ham, jonimni suQurib olsa ham, wsha ishning borligi yaxshi ekan);*

6) *wxshatish ergash gap shaklida bwladi: ToQning kungay tomonlari lolayu qizQaldoqlar bilan qoplangan. Gwyo toQning bir tomoniga qizil baxmal yopib qwyilgandek (S.A.) (Gwyo toQning bir tomoniga qip-qizil baxmal yopib qwyilgandek, toQning kungay tomonlari lolayu qizQaldoqlar bilan qoplangan). Atrofda qizQaldoqlar lovillab yotibdi. Xuddi birov yoqut parchalarini sochib tashlaganday (W.W.) (Xuddi birov yoqut parchalarini sochib tashlaganday, atrofda qizQaldoqlar lovillab yotibdi)*

7) *natiya ergash gap shaklida bwladi: Wsha kuni ona bechora qizining atrofida shu darajada girdikapalak bwldiki!... u wzini qwyishga joy topolmas, ... nuqul yiQlagisi kelardi. (W.U.)*

(Wsha kuni ona bechora qizining atrofida shu darajada girdikapalak bwldiki, ... u wzini qwyishga joy topolmas,... nuqul yiQlagisi kelardi).

Rossiya manzaralarini shunchalik zwr tasvirlaganki! Ularni wqiganimda, kwz wngimda beixtiyor FarQona kengliklari namoyon bwlardi(E.V.)

Kwrinib turibdiki, asosan, partsellyatsiya tufayli bitta ergash gap bosh gapdan ajralib chiqishi mumkin.

Ba`zan bir necha ergash gaplar, tenglanishli qatorni tuzgan holda partsellyatsiya qilinadi. Partsellyatsiya qilish uchun asos bwlgan bosh gapdan uzilib chiqadi. Masalan:

1. Bolaning luQatini boyitish, nutqini yaxshilash, wz holatini samimiy bayon qilishga wrгатish lozim. Toki u hayotning har bir holatiga mos keladigan swzni topa bilsin. Toki u ismsiz dardning ismini topsin. Toki u hayot bilan kitob wrtasida hech qanday farq sezmasin! (E.V.) Avvalari ham shunga wxshagan ahvolga tushganman. Xov, wshanda Kimsan akamni kuzatganimizdan keyin ikki oycha wtib Ochil akadan sovchilar kelganda yiQlab–yiQlab Kimsan akamga xat yozganimda ... Kimsan akamdan xat kelmay qwyganida... Umar zakunchi butun uy ichimizni qora er bilan bitta qilganida bobom wlganida... urush bitib, uyga yana sovchilar qatnab qolganida...(W.W.)

Shunday qilib qwshma gap sathida ergash gaplarning kwpgina turlari uning tarkibidan ajralib, bwlinib chiqishi mumkin. Partsellyatsiyaga uchragan ergash gaplar alohida ta`kidlanib, muhimlashgani uchun ifodaning remasi bwlid keladi.

Kwpincha ergash gaplar yakka holda partsellyatsiya qilinadi. Ba`zan esa bir necha teng aloqaga kirishgan ergash gaplar tenglanishli qator shaklida partsellyatsiyaga uchrashi mumkin.

Murakkab sintaktik butunlik sathida partsellyatsiya hodisasi

Ma`lumki, murakkab sintaktik butunlik ikki va undan ortiq gaplarning tenglanishi asosida yoki qwshilishi asosida hosil bwladi. Ba`zan uning yagona strukturasi, tizimida ma`lum kommunikativ talablarga kwra bwlinish, uzilish sodir bwlishi mumkin, boshqacha qilib aytganda, yagona murakkab butunlik ikki va undan ortiq kommunikativ birliklarga bwlinib ketishi, partsellyatsiyaga uchrashi mumkin.

Murakkab sintaktik butunlikni hosil qiluvchi gaplarning (ifodalarning) tenglanishi yoki qwshilishi boQlovchili yo boQlovchisiz bwladi. Bundan qat`i nazar ekspressiv-stilistik jihatdan betaraf bwlgan murakkab sintaktik butunlikda partsellyatsiya tufayli ekspressiv-stilistik ta`sirchanlikka erishi maqsadida ikkinchi va keyingi (agar shundaylar bwlsa!) ifodalar alohida ta`kidlanib, muhimlashadi, boshqacha aytganda, murakkab sintaktik butunlikning bwlingan qismi rema bwlilib keladi, bwlinishiga asos bwlgan qismi esa tema vazifasida keladi.

Teng boQlovchilar yordamida tuzilgan murakkab sintaktik butunlikning bir yoki bir necha qismi uning oldingi qismidan bwlinib chiqadi va partsellyatsiya tufayli bwlingan qismlar orasida biriktirish, zidlash, qiyoslash, ayirish kabi munosabatlar aks etib, bu munosabatlarni shakllantirishda teng boQlovchilar xizmat qiladi. (Bu munosabatlar haqida ishning keyingi bobida batafsil fikr yuritiladi). Misollar:

1. Wtgan umring kwz oldingdan juda tiniq, juda aniq bwlilib wtadi. Va shu daqiqada wtgan umringga baho berib ulgurasan. (S.A.) (<Wtgan umring kwz oldingdan juda tiniq, juda aniq bwlilib wtadi va shu daqiqada wtgan umringga baho berib ulgurasan). Yigit dwnglikka chiqib, boyagi qwy suruvini kwzlari bilan qidirdi. Ammo, suruv olislab kwzga kwrinmay ketgan edi. (P.J.) (<Yigit dwnglikka chiqib boyagi qwy suruvini kwzlari bilan qidirdi, ammo suruv olislab kwzga kwrinmay ketgan edi.) Bechora tovuqlar qaqolab, qanotlarini yoyib qochishdi. Wwkizlar esa tizzalarigacha hovuzga kirib wzlari loyqalatgan suvni simira boshladi. (P.J.) (<Tovuqlar qanotlarini yoyib qochishdi, hwkizlar esa suvni simira boshladi). Deylik, yaxshi rassomni hech kim tanimasligi mumkin. Yoki bir hovuchi mutaxassislargina biladi (F.M.) (<Yaxshi rassomni hech kim tanimasligi mumkin yoki bir hovuch mutaxassislargina biladi)

BoQlovchi vositlarsiz tuzilgan murakkab sintaktik butunlikning ham bir yoki bir necha qismi partsellyatsiyaga uchraydi:

Tolibjon unga biron marta bwlsin qattiq gapirmadi. Boshqalarga wxshab senlamadi. Sizlab yashadi. (S.A.) (<Tolibjon unga biron marta bwlsin qattiq gapirmadi, boshqalarga wxshab senlamadi, sizlab yashadi) Tolibjon tamoman tuzalib ketolmaydi. Asabiylik dardiga muhtalo bwladi. Sal narsaga qizishib ketadigan, birov bilan gaplashganda siltab tashlaydigan bwlilib qoladi. (S.A.) (<Tolibjon tamoman tuzalib ketolmaydi, asabiylik darsdliga mubatto bwladi, sal narsaga qizishib ketadishgan, birov gaplashganda siltab tashlaydigan bwlilib qoladi.)

Murakkab sintaktik butunlik tarkibidagi gaplarning qwshilishi aloqasi asosida boQlanishidan hosil bwlganda ham, uning bir yoki bir necha qismi partsellyatsiyaga uchraydi:

Bunday xayollardan uning wzi battar azoblanar, kwngli buzilardi. Jolaversa, ota, qiz va wQillarning bir-birlariga zarracha wxshamasligi Qayritabiiy va shubhali tuyular..... edi. (T.Pwlatov.) (<Bunday xayollardan wzi battar azoblanar edi, qolaversa ota, qiz va wQilning bir-birlariga wxshamasligi shubhali tuyular ...edi) Rayhon Samadovna vujudi bilan sezib turibdi - Zulxumor yana dadasini qwmsagan... Buning ustiga eshitgan gapi yurakni tirgan... (W.U.) (<Rayhon Saidovna vujudi bilan sezib turibdi - Zulxumor yana dadasini qwmsagan,... buning ustiga eshitgan gapi yuragini tirnagan).

Yuqorida keltirilgan ikki misolda gaplarning «qolaversa», «buning ustiga» boQlovchi vositalari yordamida qwshiluv aloqasi orqali boQlanishidan tuzilgan murakkab sintaktik butunliklarning qismlari partsellyatsiya hodisasiga uchragan va shu hodisa tufayli keyingi gaplar kommunikativ talablariga kwra alohida ta`kidlanib muhimlashgan.

Ba`zan gaplarning boQlovchisiz qwshiluv aloqasi orqali boQlanishidan tuzilgan murakkab sintaktik butunlikning bir yoki bir necha qismlari partsellyatsiyaga uchrashi mumkin.

Umuman, bu yil omadi kelmadi. Paxta mwl, havo turib berdi, yomQir hadeb yoQib Qashga tegmadi. Sovuq tushmadi. (W.W.) (<Umuman, bu yil omadi keldi: paxta mwl, havo turib berdi, yomQir hadeb yoQib Qashga tegmadi, sovuq tushmadi) Keltirilgan misolda ikki bosqichli partsellyatsiya rwy bergan.

Aslida bu misolda murakkab sintaktik butunlik beshta gapning boQlovchi vositalarsiz qvshilishidan tuzilgan bwlub,ularning birinchisi umumlashtiruvchi gap keyingi twrtta gaplar tomonidan izohlangan. Izohlash, sharhlash munosabati asosida qurilgan murakkab sintaktik butunlikning (shu munosabati asosida tuzilgan qurilmalar doim ikki qismdan: izohlanuvchi va izohlovchi qismlardan tashkil topadi) izohlanuvchi qismi, ya`ni umumlashtiruvchi gap va izohlovchi qismi, ya`ni teng aloqaga kirishgan twrtta gaplar kommunikativ talablarga kwra bir-biridan ajralgan, partsellyatsiyaga uchragan. Bu – birinchi bosqichdagi partsellyatsiya. Partsellyatsiyaning keyingi bosqichida murakkab sintaktik butunlikning bwlingan ikkinchi qismidan, izohlovchi qismidan wz navbatida yana bir gap ifoda aktuallashib, muhimlashib ajralib chiqqan. Bu jarayonni quyidagicha kwrsatish mumkin: Umuman, bu yil omadi keldi: paxta mwl, havo turib berdi, yomQir hadeb Qashga tegmadi, sovuq tushmadi> ... bu yil omadi keldi. Paxta mwl, havo turib berdi, yomQir ... yoQib Qashga tegmadi, sovuq tushmadi> ... bu yil omadi keldi. Paxta mwl, havo turib berdi, yomQir... yoQib Qashga tegmadi. Sovuq tushmadi.

Daliklar shuni kwrsatadiki, ba`zan bir qurilmaning wzida turli sintaktik sathlarda partsellyatsiya namoyon bwladi. Bunda yirikroq sintaktik qurilma strukturasi bwlinish rwy berib, uni ikki maydaroq qismlarga ajratib yuboradi, wz navbatida oxirgi bwlingan qismning strukturasi ham ikki yoki undan ortiq bwlaklarga ajralib ketadi. Bunda yana wziga xos kwv bosqichli partsellyatsiya kuzatiladi. Keltirilgan avvalgi misolda shunga wxshash holatni kuzatgan edik, ammo unda birgina sintaktik qurilma sathida, murakkab sintaktik butunlik sathida ikki bosqichli partsellyatsiyaga duch kelgan edik. Turli sathlardagi kwv bosqichli partsellyatsiyada esa nisbatan yirikroq qurilma, masalan, murakkab sintaktik butunlik ikki yoki undan ortiq gaplarga (ifodalarga) ajralib, oxirgi gapdan (ifodadan) bitta yo bir necha gap bwlagi bwlinib chiqadi. Masalan: Dadam, oyim gapiraveradi. Men esa Munavvarni eslayveraman. Wayrat bilan tikilib turgan kwzlarini. Katta-katta qop-qora kwzlarini... (W.W.) (Dadam bilan oyim gapiraveradi, men esa Munavvarni, hayrat bilan tikilib turgan katta-katta qop-qora kwzlarini eslayveraman.)

Keltirilgan misolda ikkita mustaqil gaplarning tenglanishidan tuzilgan murakkab sintaktik butunlik (buning ustiga ikkinchi gapga twldiruvchi wrnini egallagan tenglanishli qator kiritilgan) twrtta ifodaga ajratilgan. Bunda birinchi bosqichda mazkur qurilma ikkita gapga, ifodaga bwlinib ketgan (Dadam bilan oyim gapiraveradi, men esa Munavvarni, hayrat bilan tikilib turgan katta-katta qop-qora kwzlarini eslayveraman > Dadam bilan oyim gapiraveradi. Men esa Munavvarni, ... eslayveraman); ikkinchi bosqichda murakkab butunlikni tashkil qiluvchi ikkinchi gapdan esa twldiruvchi wrnini egallagan tenglanishli qatorning oxirgi qismi ajralib chiqqan (Men esa Munavvarni, hayrat bilan tikilib turgan katta-katta, qop-qora kwzlarini eslayveraman > Men esa Munavvarni eslayveraman. Hayrat bilan tikilib turgan katta-katta qop-qora kwzlarini); uchinchi bosqichda uchinchi ifodadan, sintagmadan yana bir sintagma partsellyatsiyaga uchragan (Hayrat bilan tikilib turgan katta-katta qop-qora kwzlarini > Hayrat bilan tikilib turgan kwzlarini. Katta-katta qop-qora kwzlarini).

Yana bir misol:

Odamzodning qonida Qalati adolatsizliklar bwladi. Begonalardagi wzgarishni darrov sezasizu, yaqin odamingizga e`tibor bermaysiz. Xuddi ota-onangizni birov sizga boglab quygandek. Gwyo ular siz uchun abadiy yashashi shartdek (W.Hoshimov). (<Odamzodning qonida Qalati adolatsizliklar bwladi: begonalardagi wzgarishni sezasizu, yaqin odamingizga e`tibor bermaysiz, xuddi ota-onangizni birov sizga boQlab quygandek, gwyo ular siz uchun abadiy yashashi shartdek).

Keltirilgan misolda murakkab sintaktik butunlik gaplarning izohlash, sharhlash munosabati asosida qurilgan bwlub, birinchi gap qolgan ikkinchi sodda gap uchun («begonalardagi wzgarishni darrov sezasiz») va uchinchi ergash gaplarning tenglanishli qatori bilan kengaytirilgan qwshma gap uchun («yaqin odamingizga e`tibor bermaysiz, xuddi ota-onangizni birov sizga boQlab qwygandek, gwyo ular siz uchun abadiy yashashi shartdek») umumlashtiruvchi gap sifatida kelgan va ana shu ikkita keyingi gaplar tomonidan izohlangan. Bundan tashqari, butunlikning tarkibiga kiruvchi uchinchi gapda (yaqin odamingizga e`tibor bermaysiz, xuddi ota-onangizni birov sizga boglab quygandek, gwyo ular siz uchun abadiy yashashi shartdek) bir boshga tobelanib kelgan ikkita bir turdagi wxshatish ergash gaplarning ikkinchisi birinchisini sharhlab, izohlab kelgan. Mana shunday murakkab munosabatlar, boQlanishlar asosida qurilgan murakkab sintaktik butunlikda kwp bosqichli partsellyatsiya rwy bergan. Birinchi bosqichda mazkur butunlik ikki qismga ajratiladi, biri izohlanuvchi, ikkinchisi izohlovchi qismga ajratiladi (< Odamzodning qonida Qalati adolatsizliklar bwladi. Begonalardagi wzgarishni ... sezasizu, ...); ikkinchi bosqichda murakkab butunlik tarkibidagi uchinchi gap, bir necha ergash gapli qwshma gap sathida bosh gapdan ergash gaplar qatori bwlub chiqadi (< Yaqin odamingizga e`tibor bermaysiz. Xuddi ota-onangizni birov ... boQlab qwygandek, gwyo ular siz uchun abadiy yashashi shartdek); uchinchi bosqichda tenglanishli qatordagi izohlovchi gap izohlanuvchi gapdan ajralib chiqadi (< Xuddi ota-onangizni birov ... boQlab qwygandek, gwyo ular siz uchun abadiy yashashi shartdek).

Shunday qilib, murakkab sintaktik butunlik sathida ham partsellyatsiya tufayli uning tarkibi ikki va undan ortiq kommunikativ birliklarga bwlub ketadi va har bir bwlubuvchi ifoda kommunikativ jihatdan muhimlashadi. Murakkab sintaktik butunlikda uning tuzilishiga qarab kwp bosqichli partsellyatsiya namoyon bwlub ham mumkin.

Xulosa qilib shuni ta`kidlash kerakki, 1) qwshiluv aloqasi bilan chambarchas boQliq bwlub partsellyatsiya kichik matnga, mikromatnga xos bwlub hodisadir. Bu hodisa sodda gap sathida ham, qwshma gap sathida ham, murakkab sintaktik butunlik sathida ham namoyon bwlub, qaysi sathda rwy bermasin, uni, ya`ni sodda gap, qwshma gap, murakkab sintaktik butunlikni doim ikki va undan ortiq kommunikativ birliklarga, turli hajmdagi ifodalarga bwlub yuboradi; 2) turli sintaktik birliklar sathida partsellyatsiya tufayli bwlub kommunikativ birliklar, turli hajmdagi ifodalar qwshiluv aloqasi orqali wzaro boQlanib turadi; 3) turli hajmdagi va turli shakldagi ifodalardan tashkil topgan boQlanishli matn yaxlit, yagona bir qurilmalarga: sodda gapga, qwshma gapga, murakkab sintaktik butunliklarga aylanishi mumkin. Buning uchun tenglanish aloqasidan, tobelanish aloqasidan, qushilish aloqasidan, izohlovchilardan, turli boQlovchi, boQlovchi vazifasidagi yordamchi swzlardan foydalanish mumkin. «Mana shunday ywl bilan qayta tashkil qilingan matn uzvlarining tizma zanjiri mazmunan oldingi variantiga, kwrinishiga mos bwladi», - deydi L.I.Zil`berman. Tadqiqotchi shu haqdagi fikrini davom ettirib, bunday holatda faqat stilistik omillar bilan boQliq bwlub mantiqiy-mazmuniy urQularning ma`lum siljishi sodir bwlub; alohida gaplarga, sintagmalarga bwlubmagan yagona, yaxlit matn ifodaning mazmunini jamlangan holda anglatishi va mustaqil gaplar zanjiridan tashkil topgan matn esa mazmun bayonining ayrim bosqichlarini alohida ajratgan holda ifodalashini qayd etadi;¹ 4) demak, kichik matn, mikromatn tarkibi ikki va undan ortiq qismlarga, ifodalarga bwlubinishi, partsellyatsiya qilinishi mumkin bwlub sodda gapga ham, qwshma gapga ham, murakkab sintaktik butunlikka ham teng bwlub mumkin.

Tadqiqotning keyingi bwlublarida biz tenglanish aloqasining, shuningdek, tenglanish aloqasiga yaqin turadigan qwshiluv aloqasining mikromatnda tutgan wrnini, umuman, mikromatn tizimida tenglanish aloqasi muammolarini yoritishga harakat qilamiz.

MIKROMATN TIZIMIDA QWShILUV ALOQASI

¹ Л.И.Зильберман. Структурно-семантический анализ текста. Издательство «Наука». М.,1982, с.83.

Mikromatn tizimida qwshiluv aloqasi alohida wrin tutadi. Aslida bu aloqa teng aloqaga yaqin tursa ham, qwshiluv aloqasi orqali mikromatn tarkibidagi asosiy ifoda qwshimcha ma`lumotlarni izohlar , sharhlarni wzida aks ettirgan boshqa bir ifoda bilan twldiriladi. Bunda qwshimcha ma`lumotlar , izohlar asosiy fikrni bayon qilish bilan bir vaqtda emas, balki undan swng beriladi. Masalan: Men teatrni judayam sevaman. Judayam. U erda soatlab wtiraman. **Hozir ham** (E.Vohidov).

Keltirilgan misollarning ikkinchisida mikromatn tarkibidagi «U erda soatlab wtiraman» gapining mazmuniga qwshimcha izoh berish uchun «Hozir ham» ifodasi qwshilgan, gapdagi asosiy mazmun mana shu ifoda bilan twldirilgan. Birinchi misolda esa «Men teatrni judayam sevaman» gapidagi asosiy mazmun belgi bildiruvchi «judayam» swzi gapning swngida ta`kidlash uchun takrorlanib qwllanib, shu ifoda bilan oldingi ifodanitwldirgan. Kwrinadiki, mikromatn ichidagi asosiy fikrni anglatuvchi ifoda bilan qwshimcha izoh, sharhni anglatuvchi ifoda wzaro qwshiluv aloqasi orqali bog`langan.

Ma`lumki, tilshunoslikda qwshiluv aloqasi masalasida turli qarashlr mavjud. Wzbek tilshunosligida bu masalaga doir fikrlar juda kam bwlsa ham, rus tilshunosligida qwshiluv aloqasining wziga xos xususiyatlari wrganilgan .

Ayrim tilshunoslar qwshiluv aloqasining teng aloqaga yaqin turishini ta`kidlasalar, ba`zilari uni teng aloqaning va tobe aloqaning wziga xos turi deb qaraydilar.

Jumladan, S.E.Kryuchkov qwshiluv aloqasi kwproq og`zaki nutqqa xosligini uqtirib, u teng va tobe aloqalarning bir kwrinishi ekanligini ta`kidlaydi.¹

Wzbek tilshunosligi qwshilish aloqasi maxsus wrganish ob`ekti bwlman ham, unga aloqador ba`zi masalalar ayrim manbalarda «ilova konstruktsiyalar», sifatida talqin etilib, ularning wziga xos xususiyatlari haqida ma`lumot berilgan.² F.Ishoqov «ilovalni konstruktsiyalar» odatdan tashqari aloqaga ega bwlib, swzlovchining uslubiga bog`liq ekanini, uni nutq swzlangan sharoit va stilistika faniga asoslanib tekshirish lozimligini³ qayd etsa, twliqsiz gaplar tabiatini wrganib chiqqan olim A.Boboeva bunday qurilmalarga twliqsiz gap sifatida yondashadi.¹

Ba`zi manbalarda sintaktik aloqalar haqida, qaratilgan bwlaklar haqida gap borganda, mazkur «ilova aloqasi», «izohlash» aloqasi nomlari bilan yuritilib, bu haqida juda qisqa ma`lumot berilgan, xolos.²

Wzbek tili grammatikasi II tomida keyingi yillarda sintaktik aloqaning ikki turi (tenglanish va tobelanish) dan tashqari uchinchi turi (ilova aloqa) mavjud ekanligi haqida tadqiqotlar yuzaga kelayotgani, bu uchinchi tur aloqa deyilganda, asosiy gapdan keyin kelib, unga izoh, yangi fakt qwshadigan konstruktsiyalarning asosiy gap bilan bwlgan mantiqiy aloqasi kwzda tutilishi haqida ma`lumot berila turib, mazkur grammatikaning mualliflari bu xil konstruktsiyalarda sintaktik aloqa emas, sintaktik munosabatlari ifodalangan deb, qayd etishgan .

Yuqoridagi bayon etilgan turlicha qarashlardan kwrinadiki, qwshiluv aloqasiga doir masalalarni twg`ri talqin etish mikromatnningina emas ,umuman tilni sintaktik qurilishini wrganishda katta ahamiyatga ega. Mazkur masalani chuqur wrganish hozirgi uzbek tili sintaksisining kwpgina sintaktik xodisalariga twg`ri yondoshishiga, echimini kutayotgan qator masalalarni aniq yoritishga yordam beradi.

¹ 1.С.Е.Крбчовы. О присоединительных связях о современном русском языке((Вопросы синтактика оременного русского языка)) М., 1950, с.397.

2. Б. Масколов. «Узбек тилшунослигида илова конструкция масаласи.» УТА, 1973.-сон:Яна унинг:О присоединительных конструкциях в узбекском языке. АҚД. Ташкент,1985.

3.Ф.Исх.оков. Хозирги узбек тилида иловали конуструкциялар. «Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари». 2-китоб. Тошкент, 1961.

¹ А.Бобоева. Хозирги узбек тилидат туликсиз гаплар. Тошкент. 1978., 80-82-б

² . Узбек тили грамматикаси. II том . Тошкент , «Фан», 1976 .

Ma`lumki, qwshiluv aloqasi sintaktik aloqani bir turi bwlub, u sodda gapdagi yoki qwshma gapdagi qwshimcha ma`lumotlar, izohlar, sharhlarni wzida aks ettirgan ma`lum bir qismning intonatsiya va mazmun jihatdan ajratilishini, ayrilishini kwrstatadi. Bunday aloqaning mohiyati haqida lingvistik terminlar lug`atida ham shu xildagi ma`lumot berilgan.³

Qwshiluv aloqasi orqali yuzaga keladigan qurilmalar, B.Maskolovning twg`ri ta`kidlashicha, « sodda nutq uslubi bwlub, swzlovchining yodiga twsatdan keladi. Swzlovchi fikrini izchil bayon eta olmagan uchun uzib-uzib swzlab maqsodga erishadi. Bunda ilova qurilmalar asosiy gapga bog`lanib, swzlovchining qwshimcha mulohazasini anglatadi»⁴.

Qwshiluv aloqasi asosida yuzaga keladigan «ilovali qurilmalar» aslida mikromatn bir kwrinishidir. Bunda qwshiluv aloqasi orqali asosiy ifodaga bog`lanib kelgan qwshimcha ifoda, og`zaki nutqda oldingisidan maxsus pauza bilan ajratilib aytiladi, matnda esa asosiy ifodadan ma`lum tinish belgilari bilan ajratilib yoziladi.

Qwshiluv aloqasi sintaktik aloqaning bir turi sifatida sodda gapga teng kichik matn tarkibida ham, qwshma gapga teng, (ergashgan qwshma gapga teng) matn tarkibida ham, murakkab sintaktik butunlik yoki frazadan yirik birlik tarkibida (mikromatnda) ham kuzatiladi. Bularni alohida-alohida

kwrib chiqamiz.

Sodda gapga teng mikromatnda quyidagi sintaktik birliklar qwshiluv aloqasi asosida bog`lanadi:

- 1). Tenglanishli qator a`zolarining barchasi yoki bir qismi.
- 2). Wzaro sharhlash, izohlash munosabatida bwlgan bwlaklar;
- 3). «Umumiylik - xususiylik» munosabatidagi bwlaklar va h,k.

Qwshma gapga, aniqrog`i ergashgan qwshma gapga teng mikromatnda yolg`iz ergash gap yoki tenglanishli qator tarkibidagi ergash gaplar doim bosh gapdan keyin qwllanib, undan maxsus pauza bilan ajratilib, qwshiluv aloqasi orqali bog`lanadi.

Murakkab sintaktik butunlikka kiruvchi mustaqil gap- ifodalar ham wzaro qwshiluv aloqasi asosida bog`lanadi. Bunda teng huquqli gaplar, biri ikkinchisini izohlaydigan, sharhlaydigan gaplar mazkur aloqada bwladi.

Qwshiluv aloqasi **«partselyatsiya»** (uzilish) hodisasi bilan chambarchas bog`liq aloqadir. Bu hodisaga kwra, ma`lum bir qurilma tarkibida biror bir qismning uzilishi rwy berib, aynan shu uzilgan qismi bilan qwshiluv aloqasi orqali bog`lanib turadi.

Qwshiluv aloqasi mikromatnning aktual bwlinishi bilan uzviy bog`liq bwlgan aloqa hisoblanadi. Matn, mikromatn qismlarining tartibi kommunikativ talab orqali belgilanadi. Kommunikativ talabga kwra mikromatn ikki qismga – tema(tanish xabar) va rema (yangi xabar)ga ajratiladi. Mikromatnning aktual bwlinishi ham partselyatsiya hodisasi bilan bog`liq.

Qwshiluv aloqasi maxsus yordamchi swzlar vositasida yoki faqat intonatsiya vositasida yuzaga kelib, sintaktik qurilma qismlari orasidagi turli munosabatlarni shakillantirish uchun xizmat qiladi.

Mikromatnda, kichik matnda asosiy ifodaga qwshimcha ma`lumot , xabar, izoh, sharh berish uchun gapga teng ifodalar yoki fonetik, grafik sintagmaga¹ teng ifodalar qwshiladi. Kwpincha asosiy ifodaga qwshiladigan qurilmalar gap shaklida yoki gap bwlagi shaklida bwlishi mumkin. Har ikki holatni alohida kwrib chiqamiz.

Gaplardagi qwshiluv aloqasi

Gaplarning qwshiluvi deyilganda, oldingi gapning mazmunini twldiradigan, unda ifodalangan fikrni rivojlantiradigan, kengaytiradigan xabarni bildiruvchi gapning qwshilishi

³ . Д.Э.Розенталь, М.А.Теленкова. Словар – справочник лингвистических терминов. М., 1976, с. 337.

⁴ Б.Масколов. Узбек тилшунослигида илова конструкциялар масаласи. УТА, 1973, 5-сон, 52-б.

¹ Бу уринда синтагма термини нутк бирлиги сифатида олинган. Фонетик синтагма ва график синтагмалар огзак нуткка, ёзма нуткка хос булган матний бирликлар сифати: ла суздан, сузлар ,кушилмвсидан ,хатто гаплардан (Эргаш гаплардан) иборат булиши мумкин .

tushuniladi. Bunda qwshiladigan gap ifodalaydigan qwshimcha ma`lumotlar yoki fikrni rivojlantiradigan xabarlar ahamiyatsiz hisoblanmaydi, ular asosiy fikr shakillangandan swng paydo bwlmaydi. Qwshiladigan gap ifodalaydigan qwshimcha ma`lumotlarning ahamiyatsiz bwlishi, asosiy fikr shakillangandan keyin paydo bwlishi og`zaki swzlashuv nutqiga xos bwlsa, badiiy va ilmiy nutqda qwshiladigan gap orqali katta ahamiyatga ega bwlgan ma`lumotlar beriladi.¹

Gaplarning qwshiluvini «bog`langan qwshma gap»-ga xos bwlganidek, «bog`langan qwshma gap» deb ataluvchi qurilmalarga ham xosdir. Bunday qurilmalarga ham qwshiladigan ikkinchi gap birinchisining mazmunini twldiradi, birinchisidan anglashilgan fikrni rivojlantiradi. «Qwshilish turidagi bog`lovchisiz qwshma gaplarda birinchi qism voqea-xodisalar haqida dastlabki ma`lumot bersa, ikkinchi qism ifodaning asosiy mazmunini anglatadi,» deb ta`kidlaydi N.S.Pospelov. Boshqacha qilib aytganda, kommunikativ planda qwshiluv aloqasi asosida tuzilgan qurilmada, birinchi gap wziga xos «tema» vazifasini bajarsa, ikkinchi gap «rema»bwlilib keladi. Bunda gaplar-ifodalar orasida tema-rematik munosabatlar aks etadi.

Shunday qilib, mikromatnda (xoh u bog`langan qwshma gap shaklida bwlsin, xoh bog`lovchisiz qwshma gap shaklida bwlsin) ma`lum ifodaga uning mazmunini twldiradigan, rivojlantiradigan gaplar-ifodalar qwshiladiki, ular oldingi gap bilan qwshilish aloqasi orqali bog`lanib turadi.

Masalan: Darhaqiqat shahar hayotida allanechuk bezovtalik, sarosimalik, hukmron edi. Buning ustiga, chor tarafdin qumtepalar bostirib kelyapti (T.Pwlatov. «Toshbaqa torozisi», 5-b.).

Keltirilgan misolda birinchi gap-ifodaga «buning ustiga» qwshiluv bog`lovchisi² orqali uning mazmunini twldiradigan ikkinchi gap-ifoda bog`lanib kelgan.

Yana misol:

Avvalombor, Tolib aka gwyo hech narsa sodir bwlmagandek yuraverdi, Ahmadni wz xoliga tashlab qwydi. Wz xoliga tashlab qwydigina emas, umuman, Ahmad redaktsiyada bor-ywqligini sezmagandek tutdi wzini. (F.Musojonov «Himmat», 54-b).

Bu murakkab sintaktik butunlik ikki guruh gaplaridan tashkil topib, unda nuqtadan keyin boshlanadigan gaplarning ikkinchi guruhi (Wz xoliga tashlab qwydigina emas, umuman, Ahmad redaktsiyada bor-ywqligini sezmagandek tutdi wzini) gaplarning birinchi guruhiga («Tolib aka gwyo hech narsa sodir bwlmagandek yuraverdi, Ahmadni wz xoliga tashlab qwydi») qwshiluv aloqasi bog`lanib, uning mazmunini rivojlantirgan. Wz navbatida har bir guruhdagi ikkinchi gaplar birinchi gaplarga qwshilib, ularning mazmunini twldirib kelgan.

Gap bwlaklaridagi qwshiluv aloqasi

Gap bwlaklarining qwshiluv aloqasi bu hodisaning bir kwrinishi bwlilib, u ham ifodaning bir turi sifatida oldingi ifodaga, asosiy ifodaga qwshimcha ma`lumot, izoh, sharh berish uchun qwllanadi.

Bunda gapning turli bwlaklari alohida ifoda sifatida asosiy ifodaga qwshimcha ma`lumot berish uchun qwshilib keladi.

Ega tarkibidagi qwshiluv aloqasi: Ozodlik, tinchlik forovonlik hayotimizning normal odatiy belgilaridir. **Xalqlarimizning dwstligi ham** (E.Vohidov. «Shoiru she`ru shuur», 197-b).

Bu matn tarkibidagi birinchi ifodada twrtta teng aloqaga kirishgan ega qatnashgan bwlilib, yana bir ega wz aniqlovchisi bilan asosiy ifodaga qwshimcha ma`lumot berish maqsadida qwshiluv aloqasi orqali bog`lanib kelgan.

Twldiruvchi tarkibidagi qwshiluv aloqasi: Rost, hammasi twg`ri. Qaynog`am otalik qildi. **Unga emas, menga!** (W.Hoshimov. «Ikki eshik orasi», 413-b).

¹ Н.С.Пospelov. Грамматической природе и принципах классификации бессоюзных сложных предложений. «Вопросы синтаксиса современного руссой языка» . М., 1950, ситр. 353.

² Бу уринда богловчи терминини ёрдамчи суз туркумининг тури маъносида эмас, бириктирувчи восита маъносида кулладик.

Keltirilgan matnda ifodalarga bitta emas, ikkita keng aloqaga kirishgan vositali twldiruvchilar qwshiluv aloqasida bog`lanib kelgan.

Aniqlovchi tarkibidagi qwshiluv aloqasi: Mana haqiqiy rais! Xalol , mehnatkash (W. Hoshimov. «Ikki eshik orasida». 336-b).Uning oldida hech qanaqa gunohim ywq mening... *Akamning ham...* (T.Pwlatov. «Etti xuzir-halovat va qirq qayg`u-alam», 253-b). Yong`oqzordan wtib ketayotsam, oldimdan Olimjon chiqib qoldi. *Komil tabibning wg`li* (W.Hoshimov. «Ikki eshik orasi», 38).

Keltirilgan misollarning birinchisida ikkita teng huquqli sifatlovchilar, ikkinchisida bitta qaratuvchi, uchinchisida izohlovchi, wzining qaratuvchisi bilan wzidan oldingi ifodalarga qwshimcha ma`lumotlar berish uchun qwshiluv aloqasida qatnashgan.

Hol tarkibidagi qwshiluv aloqasi: Ag`darmaysizmi zambilni?! *Ergamas, aravaga!* (W.Hoshimov. «Ikki eshik orasi», 128-b). Orif Oqsoqol bunaqa adabsiz «taka»larni tarbiyalagan ota-onasi bilan gaplashib, shunaqangi tanobini tortib qwyganki, endi ashula aytishmaydi. Lekin aytishgan... *Bir vaqtlar...* (W.Hoshimov. «Ikki eshik orasi», 280-b.). *Bir tabarruk* zot qazo qilgandi, *besh kun_burun* (S.Ahmad. «Jimjitlik», 147-b.). Ajab qildim: oltin twla qutini Dom-dexqonga wz qwlimi bilan oborib topshirdim. *Sanab, bitta-bittalab* (W.Hoshimov. «Ikki eshik orasi», 276). Biz keksa buxoroliklar ahloq-odobdan gap ochadigan bwlsak, mana shunday soddadil bwlib kwrinamiz! *Quvligimizdan emas*, aslo (T.Pwlatov. «Etti xuzur-halovat va qirq qayg`u-alam», 70). Bir haftaga komandirovkaga borib kelmoqchi edim. *Ogcherk uyushtirib kelish niyatida* (F.Musojonov. «Himmat», 58).

Yuqoridagilardan kwrinib turibdiki, birinchi misolda teng aloqaga kirishgan wrin hollari , ikkinchisida payt holi, uchinchisida teng huquqli ravish hollari , twrtinchisida sabab holi, , beshinchisida esa maqsad holi wzidan oldingi kelgan ifodaga qwshiluv aloqasida qatnashgan.

Shunday qilib, mikromatnda qwshiluv aloqasi alohida mavqega ega bwlib, u orqali asosiy ifodaga qwshimcha ma`lumot, sharh berish uchun gaplar va turli gap bwllaklari: ega, twldiruvchi, hol, aniqlovchilar alohida ifoda sifatida bog`lanib keladi.

Shu alohida e`tirof etish kerakki, matnga xos bwlgan qwshiluv aloqasi partsellyatsiya (uzilish) hodisasi bilan bivosita bog`lanadi. Shuning uchun ishning keyingi qsmida shu har ikki xodisaniing tabiati va wzaro munosabati haqida fikr yuritimiz.

Mavzu bo`yicha nazorat savollari:

Tayanch so`z va iboralar:

Matn sintaksisiga oid adabiyotlar

1. **Russkaya grammatika II tom, M., 1980.**
2. **Zolotova G.A. Sintaksicheskaya osnovi kommunikativnoy lingvistiki. «Voprosi yazikoznaniya» 1988, №4 st. 52.**
3. **Torsueva I.G. Tekst kak sistema // Strukturno – semanticheskie ediniti teksta// Sbornik nauchnix trudov. (vip. 267) IGPIIYa im.M. Toreza, M., 1986. st. 9.**
4. **I.I.Moskal`skaya. Tekst kak ob`ekt lingvisticheskogo issledovaniya. M., 1981.**
5. **Zarubina N.D. Tekst: Lingvisticheskie i metodicheskie aspekti. M., 1981.**
6. **Buxbinder V.A., Rozanov E.D. O tselostnosti i strukture teksta. «Voprosi yazikoznaniya», 1975. № 6**

7. Lyapon M.V. Smislovaya struktura slojnogo predlojeniya i teksta v germanskix yazikax. L., 1987.
8. Zil'berman L.I. Strukturno-semanticheskii analiz teksta. M., 1982.
9. Issledovaniya po strukture teksta. M., 1987.
10. Predlojeniya i tekst: semantika, pragmatika, sintaksis. L., 1988.
11. Strukturno-semanticheskie ediniti teksta. M., 1986.
12. Hakimov M. Wzbek ilmiy matning sintagmatik xususiyatlari. NDA. T., 1993.
13. Abduraxmanov G. Teoriya teksta (Doklad na «Vsesoyuznoy tyurologicheskoy koferentsii») «Sovetskaya tyurkologiya» № 1, 1981.
14. Jwchqortoev I., Nizomxonov X. Badiiy asarning tekstual variantlari lingvistik tadqiqot ob'ektlaridan biri. «Wzbek tili va adabiyoti» jurnali, 1983, № 6.
15. Tuksonov M. Mikrotekst i sistema sredstv virajeniya konkretnosti v uzbekskoy xudojestvennoy rechi AKD. 1986.
16. Abdullaev K.M. Ob odnom kriterii otdeleniya granits teksta v azerb. iz.e («Sovetskaya tyurkologiya» № 3, 1987).
17. Twqsonov M. Mikrotekst va uning kommunikativ yaxlitligi haqida «Wzbek tili va adabiyoti» jurnali, 1990, № 5.
18. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. T. 1989.
19. Gak V.G. Viskazivanie i situatsiya// Problemi strukturnoy lingvistiki, M., 1972.
20. Sovremenniy russkiy yazik. Pod. Red. V.A.Beloshapkovoy M., 1981. st. 499.
21. Margaryan A.A. Kommunikativnaya funktsiya i struktura viskazivaniya. T., 1998.
22. Zolotova G.A. Ocherk funktsial'nogo sintaksisa. M., 1973.
23. Russkaya grammatika II tom M 1980 osiovaniya zolotova.